

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta’lim vazirligi**

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika
instituti**

TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENTI VA MAHORATI

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar
Ta’lim sohasi:	110 000	– Pedagogika
Magistratura mutaxassisligi:	5A111801	– Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)

**ZARVARAQ NASHRIYOTI
Тошкент – 2021**

UO'K 37.013.2:005.336.2

KBK 74.204

T 23

Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o‘quv qo‘llanma / Tuzuvchi mualliflar: X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. – Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 6.

Tuzuvchi mualliflar:

X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova

Taqrizchilar:

N. Jamilova - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
G.Qo‘sqaqova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 5A111801 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi uchun (2019-2020 o‘quv yili) tasdiqlangan o‘quv rejaga muvofiq Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashining 2020-yil 24-avgustdagи 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan ishchi o‘quv dasturi asosida tayorlangan.

Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashining 2021-yil 25-fevraldagи 7-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.**

ISBN 978-9943-7232-4-5

**© Zarvaraq nashriyoti,
2021.**

MUNDARIJA

1-bob. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining kompetensiyasi	7
1. Maktabgacha ta’lim uzlusiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida.....	7
2. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o‘rni	15
3. Pedagog olimlarning tarbiyachi shaxsi to‘g‘risidagi fikrlari	19
4. Tarbiyachi kompetentsiyasi.....	23
2-bob. Tarbiyachining pedagogik mahorati	30
1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha.....	30
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.....	33
3. Pedagogik qobiliyat va uning asosiy turlari.....	34
4. Tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirish yo‘llari	40
3-bob. Zamonaviy tarbiyachi imiji.....	46
1. Zamonaviy tarbiyachi imiji.....	46
2. Pedagogik odob.....	48
3. Pedagogik nazokat	51
4-bob. Tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv	55
1. Pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv	55
2. Tarbiyachining ijodkorlik sifatlari.....	61
3.Tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuvni shakllantirish	63
5-bob. Maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni tashkil etish	66
1. Bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari	66
2. Mashg‘ulot turlari va tuzilishi.....	72
3. Mashg‘ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o‘tkazishga tayyorgarligi	76

6-bob. Tarbiyachining innovatsion faoliyati	79
1. Innovatsion pedagogika tushunchalari.....	79
2. Innovatsiyaning rivojlanishi. Innovatsion faoliyat.....	83
3. Tarbiyachining innovatsion faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari	89
7-bob. Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimi.....	94
1. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari	94
2. Osiyo mamlakatlarida maktabgacha ta’lim tizimi	97
3. Yevropa davlatlarida maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi	102
8-bob. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti	107
1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari turlari va ularni tashkil etish.....	107
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini malakali kadrlar bilan ta’minalash tizimi.....	112
3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti	113
4. Kadrlar taylorlashda xorijiy tajribalar	120
9-bob. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarida pedagogik mahoratni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari.....	129
1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarida pedagogik mahoratni shakllantirishning innovatsion usullari.....	129
2. Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiy jarayonining tashkil etilishida tarbiyachining pedagogik mahoratni	131

10-bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy-ma’naviy ruhda tarbiylashda tarbiyachining kasbiy yondashuvi...	137
1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tashkil etilishi	137
2. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda tarbiyachiga qo‘yiladigan talabla.....	139
3. Bola shaxsini shakllantirishda zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish.....	143
11-bob. Tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablar va tarbiyachi shaxsini taylorlash tizimi	147
1. Hozirgi zamon tarbiyachi shaxsining pedagogik faoliyati.	147
2. Tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablar va tarbiyachi-pedagogni taylorlash tizimi	149
3. Tarbiyachining bolalar ruhiyi va fiziologiyisini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi	152
12-bob. Pedagog – tarbiyachining nutq madaniyti.....	157
1.Tarbiyachi nutqining o‘ziga xos xususiyatlari	157
2.Tarbiyachi nutq madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	161
3.Tarbiyachining nutq texnikasini egallash yo‘llari.....	164
13-bob. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining asosiy funksiyalari.....	179
1.Maktabgacha ta’lim muassasasi pedagogining kasbiy faoliyati	179
2.Tarbiyachining asosiy faoliyat funksiyalari.....	181
3.Tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylik	182
14-bob. Tarbiyachining muomala madaniyati	187
1. Muomala madaniyati	187
2. Sharq mutafakkirlari asarlarida sharqona muomala madaniyati haqida	192
3. Bola bilan muomalada bo‘lish jarayonining o‘ziga xosligi.....	209

15-bob. Oilalar bilan hamkorlik.....	218
1. Oila tushunchasi va uning mohiyati.....	218
2. Oilaning vazifalari	220
3. Oila bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish qoidalari	227
16-bob. Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tarbiyachisining ish faoliyati.....	235
1. Fransiyada maktabgacha ta’lim tarbiyachisining ish faoliyati	235
2. Finlyandiyada bolalar bog‘chasi tarbiyachisi	240
3. Maktabgacha ta’lim tarbiyachisining professiogrammasi	242
17-bob. Bola huquqlari kafolatlarining qonunchilik asoslari	246
1. O‘zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishi.....	246
2. Bola huquqlarining himoya qilinishi, uning rivojlanish tendensiyalari va huquqiy asoslarining mustahkamlanishi... ..	255
3. Bola huquqlarini himoya qilishda hamkorlik	262

KIRISH

Ushbu qo'llanma tarbiyachining kasbiy mahorati va kompitentlikning maqsadi, vazifasi, mактабгача та'лим muassasasi tarbiyachisining kompetensiysi, tarbiyachining pedagogik mahorati, zamonaviy tarbiyachi imiji, tarbiyachi – pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv, maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari, tarbiyachining innovatsion faoliyati, maktabgacha ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini o'z ichiga qamrab olgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining kasbiy mahorati va kompetentligi fanini o'qitishdan maqsad:

- talabalarda maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining kompetensiysi va pedagogik mahorati bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- zamonaviy tarbiyachi imiji va uning faoliyatiga kreativ yondashuv to'g'risida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida samarali tashkil etish yo'llarini o'rgatish;
- rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim tizimi bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.

Ushbu fanni o'qitish orqali talabalar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar:

- jamiyat taraqqiyotidagi ta'lim-tarbiya jarayonining ahamiyati;
- ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari;

-
- innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyati;
 - ta’limga texnologik yondashuv asosida mashg‘ulotlarning o‘quv-tarbiyaviy maqsadini qo‘ya olish;
 - tarbiyalanuvchilar faoliyati faolligini jadallashlashtirish asosida pedagogik texnologiyalarni tanlay olish;
 - maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni tashkil etish;
 - o‘yinli texnologiyalar va ulardan mashg‘ulotlar davrida foydalana olish;
 - tarbiyachi-pedagog faoliyatiga kreativ yondashuv;
 - zamonaviy tarbiyachi imiji bo‘yicha zamonaviy talablar to‘g‘risidagi bilim;
 - shaxsning ma’naviy-axloqiy sifatlarini faol shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik texnologiya tamoyillariga mos ravishda pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etish va amalga oshirish, ta’lim-tarbiya mazmuniga oid axborotlarni qayta ishslash, umumlashtirish va bolalarga yetkazish;
 - ta’lim samaradorligini oshirish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
 - mashg‘ulotlarda ta’lim resurslaridan foydalanish;
 - o‘qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishslash, umumlashtirish va bolalarga yetkazish ko‘nikmalar;
 - o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish;
 - ta’lim-tarbiya texnologiyalarini o‘z faoliyatida qo‘llay olish;
 - o‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida pedagogik texnologiyani tanlay olishi zamonaviy talablar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish malakalariga ega bo‘ladi.

Shuningdek, jahon tajribasida mavjud innovatsion ta’lim-tarbiya texnologiyalaridan xabardor bo‘lish va kasbiy faoliyatda foydalanish kompetensiyalarini egalelaydi.

Bakalavriat o‘quv rejasiga kiritilgan tanlov fani “Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy asoslari”, “Maktabgacha pedagogika”, “Mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik” kabi fanlardan talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlashga, o‘quv bloklari modullari bilan uzviy bog‘langan holda tarbiyachilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanma talabalarga ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni o‘rgatish hamda amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

1-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHISINING KOMPETENTSIYASI

- 1.1. Maktabgacha ta'lism uzluksiz ta'lism tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida.
- 1.2. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni.
- 1.3. Pedagog olimlarning tarbiyachi shaxsi to'g'risida-gi fikrlari.
- 1.4. Tarbiyachi kompetentsiyasi.

Tayanch tushunchalar: tarbiyachi, yosh avlod, qobiliyat, milliy qadriyat, e'tiqod, kompetentsiya, tarbiyachi kompetentsiyasi.

1.1. Maktabgacha ta'lism uzluksiz ta'lism tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida

Tarbiya go'daklikdan boshlanadi.

Shavkat Mirziyoyev

Har bir bola tug'ilgandan oilada tarbiya oladi. Uch yoshdan maktabgacha ta'lism muassasasiga bora-di. Maktabgacha ta'lism uzluksiz ta'lism tizimining

birinchi – boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Maktabgacha ta'lism muassasalari “bolalar bog'chasi” deb ham yuritiladi. Sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda bolalar bog'chasing ahamiyati katta. Chunki millatning sog'lom genofondini tarbiyalash shu tizimdan boshlanadi.

Maktabgacha yosh – tug'ilgandan boshlang'ich ta'lism olishgacha bo'lgan yosh davri, ya'ni 0 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Maktabgacha ta'lism mak-

tabgacha yoshdagи bolalarnи har tomonlama rivojlantirib, boshlang‘ich ta’limda muvaffaqiyatli o‘qishini davom etti-rishga ko‘maklashadi.

Maktabgacha ta’lim – maktabgacha yoshdagи bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan, har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir.

Maktabgacha ta’lim muassasasi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatiladi:

- bolaning maktabgacha ta’lim olishini ta’minalash;
- bolaning jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan rivojlanishini ta’minalash;
- bolalar uchun qulay muhit yaratish, imkoniyati cheklangan bolalar uchun zamonaviy inklyuziv maktabgacha ta’lim va tarbiya olishini ta’minalash;
- bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, xalq an’analari va urf-odatlariga hurmat, o‘ziga va atrofdagilarga ongli munosabatda bo‘lishni tarbiyalash;
- bola shaxsini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- boshlang‘ich ta’lim olishga tayyorlash, ijtimoiy moslashuvini ta’minalash;
- bolani har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash va ta’lim olishini ta’minalashda oilaga ko‘maklashish va ijtimoiy-pedagogik yordam ko‘rsatish.

Mamlakatimizda bolaning jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, ota-onasining xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyidan qat’iy nazar maktabgacha ta’lim olishi kafolatlanadi.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagи bolalarnи maktabgacha ta’lim muassasalariga to‘la qamrab olish va

sifatli maktabgacha ta’lim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalar ham inklyuziv ta’lim olishi mumkin. Inklyuziv ta’lim deganda imkoniyati cheklangan bolalar bilan sog‘lom bolalarning birgalikda ta’lim va tarbiya olishi jarayoni tushuniladi.

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagি bolalarning ba’zilari bolalar bog‘chasiga boradi, ba’zilari esa bormaydi. Ular uyda tarbiyalanadilar. Lekin maktabga 1-sinfga kelganida bog‘chaga borgan bolalar bilan bog‘chaga bormagan bolalar birga o‘qitiladi. Ana shu paytda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Bog‘chaga borgan bola bilan bog‘chaga bormagan bolani o‘rtasida juda katta farq bor”ligi yaqqol bilinadi. Chunki, bog‘chaga borgan bola bilan bormagan bola o‘rtasidagi farq uning jismoniy rivojlanishida, intellektual salohiyatida, maktab ta’limiga moslashishida, ijtimoiylashuvida, o‘zini tutishi va o‘rtoqlariga munosabatida namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun Davlatimiz rahbari hamma bolalarning maktabgacha ta’lim muassasasiga borishi, maktabda o‘qishga tayyorlanishi zarur ekanligini ta’kidlab, “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga, albatta, erishamiz, - deb ishonch bildirdi.¹

Chunki, uzoq vaqt mobaynida maktabgacha ta’lim muassasalarining holati yaxshi bo‘lmagan, bolalar bog‘chalariga yetarli e’tibor qaratilmagan. Doimiy ishlaydigan va mavsumiy bog‘chalar bo‘lgan. Mavsumiy bog‘chalar dala shiyponlarida tashkil etilib, onalar qishloq xo‘jaligi ishlari ni bajarayotgan vaqtida enaga bolalariga qarab turgan.

Doimiy bog‘chalar ham ota-onalari ishga ketganda bolalarga qarab turadigan muassasaga aylanib qolgan edi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasi. - Xalq so‘zi. 2018-yil, 28-dekabr.

Oxirgi 20 yil ichida respublikamizda maktabgacha ta’lim muassasalari uchun yangi binolar qurilmadi.

2016-yilning 29-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqildi. Bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun sharoitlar yaratildi. Maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv-metodik ta’minotni yaxshilash, bolalarning sog‘lom ovqatlanishini tashkil etish, tarbiyachi-pedagoglarning mehnatini rag‘bantirishning samarli mexanizmi ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi bilan uni boshqaruv mexanizmi ham takomillashtirildi. Ya’ni, respublikamizda 2017-yilgacha ta’lim tizimini boshqaruvchi 2 ta vazirlilik – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalari Xalq ta’limi vazirligi tasarrufida faoliyat olib boran.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan

“Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rnini va ahamiyatini e’tiborga olib, Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etdik.

Biz ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog‘chalar qurishimiz, ta’lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi² va O‘zbekiston Respublikasi tarixida birinchi marta Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Maktabgacha ta’lim muassasalarini nazorat qilish va boshqarish bo‘yicha mustaqil organ yaratildi. Bunday vazirlik dunyoning boshqa biror mamlakatida mavjud emas. Quyidagililar vazirlikning vakolatlari etib belgilandi:

- maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagи bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta’minalash;
- nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalariga turli imtiyozlar berish;
- maktabgacha ta’lim va tarbiyaning muqobil shakllarini amaliyotga joriy etish;
- zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta’lim-tarbiya jarayoniga, nodavlat sektoriga joriy etish;
- milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar, o‘yin va o‘ynchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta’minalash;
- maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

² Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 й., 06/17/5198/0043-сон; 09.10.2020 y.

- maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash.

Mazkur vazifalarni bajarishda ta'lim sohasida raqobat muhitini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatini ta'lim olishini ta'minlash talab etiladi.

Buning natijasida turli shakllardagi maktabgacha ta'lim muassasalarini ochishga va ularning sonini ko'paytirishga ehtiyoj tug'iladi. Bundan asosiy maqsad, birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini tubdan o'zgartirish, ikkinchidan, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrovini keskin oshirishdan iborat bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim sifati – ertangi kunimizni hal qiladigan masala.

Shavkat Mirziyoyev

1.2. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni. Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalar ni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi.

Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan hayot, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyatni, fiziologiyasi va yosh xususiyatlarini tushunishi kerak. Shuningdek, pedagogik tar-

biyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvafqaqiyatini belgilaydi. Bugungi kunda respublikamiz rahbariyati tarbiyachilarining faoliyatini yuqori baholamoqda. Yosh avlodni komil inson qilib, kamolot sari yetaklashdag'i erishgan yutuqlari uchun tarbiyachilar metodist, katta metodist tarbiyachi va boshqa shunga o'xshash unvonlar bilan taqdirlanadilar. Ularga respublika miqyosidagi unvonlar beriladi. Xalq ta'limi xodimlari orasidan respublika, viloyat, tuman kengashlariga deputatlar saylanishi ularga bo'lgan chuqur hurmat va ishonchni bildiradi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugungi kunda bog'chada, akademik litsey va kasb-hunar kolleji hamda oliv o'quv yurtlarida shakllanayotgan avlodning ijobiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini, kasb-hunar, malaka va ko'nikmalarni har tomonlama puxta egallab borishini talab qiladi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni singdirish, jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalarini bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash-dek vazifalar qo'yildi. Davlat ahamiyatiga molik bunday vazifani amalga oshirishda umumta'lim maktablari bilan bir qatorda xalq ta'limining boshlang'ich bo'limi bo'lgan bolalar bog'chalari muhim rol o'ynaydi. Buning uchun har bir tarbiyachi o'zini talab va nazorat qila bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo'ygan talablarni amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Bolaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash.
2. Aqliy qobiliyatini o'stirish.
3. Milliy qadriyatimiz va ma'naviyatimizning g'oya-viy, aqliy tamoyillariga mos keluvchi e'tiqod va qarashlari ni tarkib toptirish.

4. Ona Vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shaklantirish.

5. Yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini, halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Demak, yuqorida keltirilgan sifatlarni tarkib toptirish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi. Lekin tarbiyachi ishlarga asoslanib, bolalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma'lum bir maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida shunday yozadi: "Tarbiyachi - ustozi bo'lish uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak". Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Shunga ko'ra, tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida, ular bilan bo'ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi bolani har tomonlama diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvori ish natijalarini haqqoniy baholashi va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi. Demak, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi murabbiylarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir. Bolani tarbiyalash nihoyatda qiyin va murakkab jarayon bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishi-

lari jalgan etilgandir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarihidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o‘zining ma’naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a’zolari o‘rtasida yuksak hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan kishilar, ya’ni donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgandir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmunini faqat shaxs kamolotini emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasida ham tarbiyachi-murabbiy kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqli, salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda.

“Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz... tarbiyachi bolalari-mizga zamonaviy bilim berishi uchun avvalo, murabbiyning ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak”³. Yuqoridaq qayd etilgan fikrlardan bugungi kun tarbiyachisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablarning naqadar muhimligini anglash lozim. Demak, tarbiyachi-maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo‘yicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanaladi. Shuning uchun zamonaviy tarbiyachi murabbiy qiyofasida quyidagi fazilatlarni namoyon eta olishi kerak. Zamonaviy murabbiy o‘zini mutaxassisligi bo‘yicha chuqur puxta bilimga ega bo‘lish, o‘z ustida timimsiz ishlashi kerak. Tarbiyachi maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiya, fiziologiya fanlarining asoslarini bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak. Tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olishi lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalar dan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi va uning nutqida quyidagi xususiyatlar aks etishi kerak.

- Nutqning aniqligi.
- Nutqning irodaviyligi.

Nutqning sofligi (*uning turli sheva so‘zlaridan xoli bo‘lib*), faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (*muayyan kasb yoki soha mutaxassislargacha xos so‘zlar*), varvarizm (*muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o‘zga millatlarga xos so‘zlarning o‘rinsiz qo‘llanilishi*), vulgarizm (*harakat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar*) hamda kontselyarizm (*o‘rinli bo‘lmagan vaziyatlar da rasmiy nutqda so‘zlash*) so‘zlaridan xoli bo‘lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak.

1.3. Pedagog olimlarning tarbiyachi shaxsi to‘g‘risidagi fikrlari.

Qadimgi dunyo falsafa sistemalaridan boshlab pedagogikaning fan sifatida shakllanish jarayoni nazariy tafakkurning taxmin va fikrlashlaridan ilmiy bilim sari harakat qilish jarayoni yuz beradi.

Har qanday fan tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining obyektiv qonunlari to‘g‘risidagi bilimlarning yakunidan, jamlashidan ishonarli va umumlashgan bilimlar sistemasidan iborat bo‘ladi.

Pedagogika tarbiya haqidagi fandir. Pedagogikaning bosh masalasi – tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma’no ta’lim, rivojlanish, ma’lumot bilan bog‘langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir⁴.

Dastavval, pedagogik g‘oyalar Aflatun (er.ol.427 - 347 yillar) Arastu (er.ol.384-322 y.) Plutarx (tax.416-tax.327 yillar) Kvintilian (35-95-yillar chamasi) ning falsafiy va siyosiy asarlari, gumanist pedagoglar, sotsial utopistlar T.Mor (1478-1535) asarlarida namoyon etila boshladи.

Mukammal pedagogik sistemani Yan Amos Komenskiy yaratdi. U o‘z davrining ilg‘or g‘oyalariga tayangan holda “hammani hamma narsaga o‘rgatish“ to‘g‘risida da’vat bilan chiqdi. Uning “Buyuk didaktika” degan katta risolasi nazariy pedagogikaning ilk asarlaridan hisoblanadi. Pedagogikaning ilmiy asoslarini tuzishga J.J.Russo (1712-1858), I.G.Pestolotsiy, A.Destervenrg, R.OUEN (17711-1858), A.N.Radihev (1749-1802), V.G.Belinskiy, A.Gertsen, I.I.Pirogov, N.G.Chernishevskiy (1822-1899), N.D.Dobrolyubov ko‘p yordam qildilar. Pedagogika nazariyasining rivojlanishiga K.D.Ushinskiy buyuk hissa qo‘shti. Uni rus pedagogikasining otasi deb atashadi. Har qanday fanning ajralib turishi va normal faoliyat ko‘rsatishi uchun uning o‘zida muqarrar shart bo‘lib hisoblanadi.

Pedagogika ta’lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariiga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o‘zgarib borishini o‘rgatadi. Tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ochib beradi. Shu asosda ta’lim-tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ni, yo’llarini ko‘rsatib beradi.

Shuningdek u maktab, hunar-texnika bilim yurti va maktabdan tashqari tarbiya muassasalari xodimlarini ham

⁴ Umumiy pedagogika Qism I. /O.Musurmonova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - B.14

nazariy, ilg‘or tajribalar bilan qurollantiradi. Ota-onalarga yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash, o‘qitishdagi mahoratini yanda takomillashtirish yo‘lida amaliy tavsiyalar beradi.

“Pedagogika” faniga tavsiif berilganda “ta’lim”, “tarbiya” hamda “ma’lumot” degan so‘zlarni ishlardik. Bu so‘zlar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Ular ni pedagogikaning asosiy kategoriya tushunchalari deb qaraymiz.

Bulardan tashqari “o‘quvchi”, “o‘qituvchi”, “usul”, “intizom”, “jamoa”, “irsiyat”, “muhit”, “direktor” va hokazo tushuncha - nomlar mavjudki, bu haqida mavzular yuzasidan fikr yuritilganda alohida to‘xtalamiz. Ma’lumki, tarbiya tushunchasi o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilgan bilimlar asosida aqliy kamolot - dunyoqarashini insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodaydi.

Shu ma’noda tarbiya deb tarbiyachi o‘zi xohlagan sifatlarini tarbiyalanuvchilarga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadga ko‘ra tizimli ta’sir ko‘rsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tug‘ilgandan boshlab, umrining oxirigacha davom etadigan jarayonidir. Shu tufayli tarbiya so‘zi ko‘p vaqtarda ta’lim, ma’lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi.

Endi biz shular xususida o‘zimizning fikr-mulohazalari-mizni bildirib o‘tmoqchimiz. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo‘lmish Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Maxmudxo‘ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko‘plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat sarchashmalari o‘zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma’rifatni targ‘ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega

ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Navoiyning mashhur “Hamsa”sini, Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Imom al- Buxoriyning “Al-jome as-sahih” hadislar to‘plami kabi ko‘plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlar ni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo‘lib, ular ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o‘z navbatida yuqorida sanab o‘tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga yetkazgandir. Shunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziyi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda tako-millashtirib borishdir.

Ma’lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog‘langan. Shuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarning aksariyati va mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat sar-chashmalar aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan. Shunday ekan, biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to‘g‘ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, doimo millatlar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlikni va insoniyatga nisbatan qilinadigan har qanday zo‘ravonlikka qarshi harakatlarni hamda behuda qon to‘kilishiga qarshi g‘oyalarni targ‘ib etib kelgan.

O‘zbek xalq pedagogikasida asrlar mobaynida asosiy tushunchalar shakllangan: parvarish, tarbiya, mukammalashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash, nasihat qilish, o‘qitish, ta’lim berish, o‘rgatish.

Forobiyning fikricha, insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l- ta’lim va tarbiya orqali hosil qilinadi: “Ta’lim nazariy

fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo‘ladi...”. Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyani o‘zviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergen bo‘lsa ham, har birining insonni kamolga yetkazishida o‘z o‘rni va xususiyati borligini alohida ta’kidlaydi.

Xalq pedagogikasi tarbiyaning ko‘p omillaridan foydalaniishi bilan (*tabiat, mehnat, turmush, odat, san’at, din, ona tili*), uslublar katta boyligi bilan (*ishontirish, misol, talab, buyruq, tushuntirish, rivoyat, o‘rganish va mashq, istak va farovonlik, afsun, qasamyod, iltimos, maslahat, ishora, ma’qullash, gina, ko‘ndirish, taqiqlash, po‘pisa va hokazo*) va tarbiya vositalari (*o‘yin, sanoqlar, topishmoqlar, maqollar, qo‘sinqalar, ertak va afsonalar, rivoyatlar*) bilan kuchli. Xalq pedagogika xazinasi tarbiyani xalq turmushi bilan g‘oyaviy bog‘lanishini mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi. Bu xazinalar ijodiy yondashganda yosh avlodni tarbiyalashda katta samara berdi.

Xalq pedagogikasining turli vositalari katta o‘zgarishlarga uchradi. Bu o‘zgarishlar tarbiyaga ham salbiy ta’sir etdi. Bugun istiqlol g‘oyalari ruhida qadimgi xalq an’anasini tiklash, ta’minlash tarbiyada boy rang-barang xalq pedagogikasidan foydalanish davri keldi. Zamonaviy tarbiya ishida o‘zining mohiyatini yo‘qtagan xalq pedagogikasining g‘oyaviy xazinasi va buyuk yutuqlari sifatida epos, ertak, lapar, maqol, tez aytish, topishmoq kabi janrlar bugun yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

1.4.Tarbiyachi kompetensiyasi

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxas-

sisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

“Kompetensiya” lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo‘lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. Demak, biror-bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

“Kompetentlik-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish demakdir. O‘z sohasining, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini ham har tomonlama chuqur bilish demakdir.

B.D.Elkonin


Kompetentlik - deganda ko‘pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiyligi qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko‘nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo‘naltilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo‘lishi kabi siatlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’limda yangi tadqiqot yo‘nalishi bo‘lgan kompetentli yondashuvning paydo bo‘lishi hamda xorijiy pedagogik va

metodik manbalarda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida paydo bo‘ldi va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog‘liq.

Kompetensiya o‘z xarakteriga ko‘ra uch turga bo‘linadi.



Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan “kompetensiya” atamasining umumiy ma’nosida shakllandi. Yevropa Kengashi das-turi bo‘yicha Bern shahrida bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996-yil) “kompetensiya” tushunchasi “o‘quv”, “kompetentlik”, “qobiliyat”, “mahorat” singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta’lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv e’tirof etildi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real bahoresh, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabbiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishslash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishslash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O‘z ustida ishslash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Tarbiyachi-pedagogning kompetentligi komponentlari

<p>Bilimlilik, tashkilotchilik, izlanuvchanlik, adolatlilik, kommunikativlilik, yuksak ma'naviyatlilik, nazoratni o'z vaqtida o'rnatish, o'z hissiyotlarini jilovlay olish, pedagogik deontologiya (kasbiy odob-axloq), mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, istiqbolli, innovatsion fikrlash, androgogik ma'lumot, vatanparvarlik, prinsipiallik, yetakchilik qobiliyati, sadoqatlilik, kasbiy refleksiya</p>	<p>pedagogik mahoratlilik, fidoyilik, rahbarlik, jarayonlar ni loyihalashtirish, ijodkorlik, pedagogik, texnologiya yadan xabardorlik, pedagogik kvalimertiyani bilish, g'oyaviy-siyosiy yetuklik, talabchanlik, dunyoqarashning kengligi, mehnatga ijodiy munosabat, g'oyalilik, bir so'zlilik, yangiliklarni tez qabul qilish</p>	<p>o'ziga ishonch uyg'ota olish, tashabbuskorlik, kreativlik, yuqori imij, aktyorlik, notiqlik mahorati, innovatsion qaror qabul qilishda boshqaruvchanlik, variativlilik, qonun doirasida ishlash, mantiqiylash, jamoani ergashtira olish, sabr-toqatlilik, nufuzli va ishonchli natijani oldindan ko'rish, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik</p>
--	---	---

Tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'лади. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi va uning huquqiy asoslari.
2. Maktabgacha ta’lim vazirligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Pedagog olimlarning tarbiyachilik kasbi haqidagi fikrlari.
4. Kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
5. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini qisqacha yoritib bering.
6. Kreativ kompetentlik tushunchasini yoritib bering.
7. Tarbiyachi mutaxassisligiga oid qanday malakalaraga ega bo‘lishi kerak?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi / Xalq so‘zi, 2018-yil, 28-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017- y.,1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y.
3. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqi-yotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 62 b.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им. Чулпана. Т.; 2005. -200 с.
5. Umumiy pedagogika Qism I. /O.Musurmonova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.

2-BOB. TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI

- 2.1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha.
- 2.2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
- 2.3. Pedagogik qobiliyat va uning asosiy turlari.
- 1.4. Tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirish yo'llari.

Tayanch tushunchalar: *pedagog, tarbiyachi, kompetensiya, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, pedagogning funksional vazifalari. Pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika.*

2.1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Pedagoglik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra individualdir. Har bir pedagogning hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishi, usta (master) juda ilg'or, bilimdon yoki o'z ishini mohirlik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. Pedagoglik mahorati uning faoliyatida ko'rindi. Pedagog eng avvalo, pedagogik jarayon qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim.

Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega.

Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishi ni, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodaydi.

Pedagogik mahorat kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. So'nggi yillardagi ilmiy yondashuvlar bu

holatga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi: pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishi individualligini xarakterlaydi. Xo‘s, pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo‘ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalarda pedagogik mahorat tushunchasiga nisbatan turlicha izohlarga duch kelamiz. Bu tushuncha mohiyatining aniqroq ta’rifi “Pedagogik ensiklopediya”da berilgan ta’rif pedagogik mahorat mazmun-mohiyatini ancha to‘g‘ri yoritadi: “Tarbiya va o‘qitishda yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkonini ta’minlovchi san’at bo‘lib, talabaga mehr qo‘ygan va o‘z kasbini sevgan, har bir pedagogning qiladigan ishi. O‘z ishining mohir ustasi bo‘lgan pedagog bu yuksak daraja madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san’atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassisdir”.

Bu ta’rifni yaxshi tushunib, uning ma’no-mohiyatini tahlil etadigin bo‘lsak, ushbu ta’rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmuniga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin bo‘ladi:

- a. Umumiyl madaniyatning yuqori darajasi hamda bilimdonlik va aql-zakovatining yuksak ko‘rsatkichi.
- b. O‘zining o‘qitayotgan faniga doir keng va bilim sohibi.
- c. Pedagogika, umumiyl va pedagogik - psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ulardan o‘qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish.
- d. O‘quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini egallangan bo‘lishi.

Mustaqil O'zbekistonda qurilayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko'rsatadigan pedagog qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhim asos - bu insonparvarlik. Pedagog juda yuksak darajadagi madaniyatga ega bo'lgan shaxs. Hozirgi zamonda o'zi o'qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarga har kuni mashg'ulotlarni o'rgatib borish uchun o'zi muntazam o'qib, o'rganib, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib boriishi kerak.

Demak, pedagog, pedagogik mahoratining asosiyisi o'z ustida mustaqil o'qishidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, ana'nalarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadiriyatlarni yanda rivojlantirish xususida buyuk burilishlar bo'lgani bar-chaga ayon. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilim va pokiza odob-axloqli qalb egasi ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Mahorat - bu yuqori va yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tamonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassisdir. Bo'lajak mutaxassislarining mahoratini oshirishda ma'ruza darslarining o'rni qanchalik zarur bo'lsa, seminar mashg'ulotlarining o'rni ham shunchalik muhimdir.

Pedagogik mahorat - bu tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishda,

psixologik va metodik tayyorgarlikda, yoshlarni o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib, amaliy faoliyatda qo'llashida namoyon bo'ladi.

2.2. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari.

Pedagoglik sharaflı, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi pedagog bo'lish uchun pedagogik nazariyani egal-lashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi, yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi.

Maktabgacha ta'lim hayoti kichik pedagogik jarayon bo'lib, juda xilma-xildir. Pedagogik jarayonda turli vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Shuning uchun bugungi kun tarbiyachisi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon; milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- pedagoglik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radian, har bir bola ulg'ayib, yaxshi inson bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan,adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Davlatimiz xalq ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan pedagogga bog‘liq. Ho-zirgi kunda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsad-larga erishish, pedagoglarning xilma-xil faoliyatini uyush-tirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli, barkamol inson qilib o‘stirish pedagoglar zim-masiga yuklatilgan.

Bu maqsad quyidagi vazifalarni yechish orqali hal eti-ladi:

- pedagogik mahoratning nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish;
- pedagogik mahoratning pedagogik texnika, peda-gogik muloqot, pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat kabi tarkibiy qismlari haqidagi malakalarни yechish;
- pedagogik mahoratni mustaqil shakllantirish ko‘nik-malarini hosil qilish;
- egallangan pedagogik-psixologik bilimlar asosida shaxsiy pedagogik mahoratni yaratish malakalarini hosil qilish.

2.3. Pedagogik qobiliyat va uning asosiy turlari.

Pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- 1) pedagogning shaxsiy fazilatlar bo‘yicha tayyorgarligi;
- 2) pedagogning ruhiy-psixologik tayyorgarligi;
- 3) pedagogning ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi;
- 4) pedagogning maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi;

Pedagog faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Pedagog, eng avvalo, mulohaza-li, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning

uddasidan chiqa olishi kerak. Muloqot jarayonida pedagogning so‘zlaridan suhbatsoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do‘stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin. Hozirgi sharoitda jamiyatning pedagoglik kasbiga nisbatan qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to‘g‘ri tashkil qilish vazifasi pedagogga bog‘liq. Ijodiy faoliyat olib boruvchi pedagog faqatgina ta‘lim oluvchilarni muvaffaqiyatl o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or pedagoglar ish tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi zarur. Hozirgi zamon pedagogi fan va texnika taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanishi, o‘z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo‘llay olishi taqozo etiladi.

Qobiliyat shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatl amalga oshirish subyektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisiga aytildi, zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo‘lgani sababli, shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya’ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg‘ulariga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo‘yilishi kerak. Qobiliyatni inson tug‘ma, tabiat in’omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to‘plami deb atadi va uning yettita jihatini ajratib ko‘rsatdi. Biz intellekting ushbu jihatlaridan oltitasini pedagog pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveyeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va pedagogning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko‘rsatib o‘tadi:

- Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: Pedagogning dars va darsdan tashqari jarayonlarda guruhda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.
 - Voqealarni oldindan ko‘ra olish qobiliyati: ushbu qobiliyat turi har bir pedagogning sergakligida, ta’lim oluvchilarining ruhiyatini, ichki dunyosini ko‘ra olishida namoyon bo‘ladi. Shunda pedagog kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.
 - Eshitish va his qilish qobiliyati: Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o‘qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she’r va qo‘shiqlarni sevib tinglaydi.
 - Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: pedagogning o‘z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo‘naltiradi, vaqtini, harakat sur’atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish, hayot marhamatlaridan rohatlanish.
 - Mantiqiy qobiliyat: mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarни sevish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisdan ajrata olish;
 - Shaxsning ichki qobiliyati: o‘z-o‘zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo‘rquv yoki noerkinlik tuyg‘usi kamdan-kam holda bo‘ladi.
- Qobiliyat pedagogning individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli pedagoglar o‘z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko‘proq yutuqlarga erishadilar. Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishi ni, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natjalarga erishishini ta’minlaydi.

Qobiliyatlari kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan

yoki madaniyatga yangilik krita oladi. Qobiliyat bilimdan farq qiladi.

Bilim – bu ilmiy mutolaa natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo‘lib, shu bilan birga, u ma’lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiylar maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallahib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko‘nikma va malakalardir.

Ko‘nikmalar – pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir.

Malakalar – pedagogning ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig‘indisidir. Ular pedagog kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birlashtirilgan pedagogik mahoratga erishishni ta’minlaydilarki, buning natijasida pedagog kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud pedagog ko‘p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko‘nikma va malakalarda ro‘yobga chiqadi. Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko‘nikma va malakalari ko‘p qirrali va mukammallahashgan bo‘ladi. Ko‘nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o‘zginasidir. Demak, qobiliyat ko‘nikma va malakalarning paydo bo‘lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogning pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V.Kuzmina shunday yozadi: “Ta’lim-tarbiyada ro‘y beradigan ko‘pgina kamchiliklar pedagog o‘z pedagogik qobiliyatining amaliy yo‘nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste’dodning pedagogda yo‘qligi natijasida ro‘y beradi”. Maxsus qobiliyatga ega bo‘lgan pedagoglar faqat o‘zlarini egallagan kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha muayyan faoli-

yat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanadilar. Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta’minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyildi. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun pedagogda layoqat, zehn va qiziqish bo‘lishi kerak.

Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari. Pedagogik – psixologiyada pedagog qobiliyatning cheklangan turlari yo‘q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko‘payib va o‘zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat o‘zoq vaqtgacha “o‘zgarmas irsiyat” nasldan-naslga o‘tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning o‘zoq yillar olib borgan ilmiy tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko‘rsatilgan:

- O‘z kasbiga muhabbat, bolalarni seva olishi;
- O‘z mehnatiga ijodiy yondashish;
- Bolalar jamoasiga singib keta olish;
- Javobgarlikni his etish;
- Pedagogik taktga (odob va go‘zallikka) ega bo‘lish;
- Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

Pedagog faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o‘ziga xos tizimlari mavjud.

Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: asosiy xususiyatlar, tayanch xususiyatlar, yetakchi xususiyatlar, yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko‘p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir.

Pedagogik texnika – pedagogning nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo pedagogning mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalari

hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlariga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali bolalar ongiga va tafakkuriga ta’sir o‘tkaziishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabiladir. Pedagogning pedagogik texnikasi qanday ko‘nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida pedagog ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni zamонавиy talablar asosida qanday tashkil qilishi, ta’lim oluvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kunga-cha dunyo olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Birinchi guruh komponentlari pedagogning shaxsiy-axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo‘ladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika);
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z hissiyorini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo‘ya ta’sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy pertseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o‘z o‘rnida qo‘llay olishi. Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari pedagogning shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu guruh ta’lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:
- pedagogning didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qibiliyatlari;

- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan tablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va pedagogik jamoada ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- bolalar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab, boshqara olishi.

Pedagogning tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatları muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'ri-nishda sahnada namoyish etsa, pedagog butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida bolalar ongiga yetkazish uchun chuqr tayyorgarlik ko'radi, guruh jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib, pedagogik faoliyat ko'rsatishga majburdir. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun pedagogdan yuksak pedagogik-texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

2.4. Tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirish yo'llari

Tarbiyachining kasbiy mahorati – bu ma'lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, xayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarining yig'indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, uslubiy tayyorgarligida, bolalarni tarbiyalashning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachining kasbiy mahorati, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy si-fatlarni takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Tarbiyachi faoliyat mahoratini qanday fazilatlar belgilaydi? U avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. Bu deganimiz Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analarni bilishi va ularni yoshlar ongiga yetkazib, tarbiyalanuvchilarda ota-bobolarimiz yaratgan boy merosga hurmatni tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo tarbiyachining o‘zi milliy qadriyatlarning mohiyat-mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmati va e’tiqodi bo‘lishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash tarbiyalanuvchilarda bobolar, avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi pedagogik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylit, dilkashlik, talabchanlik, qat’iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Shuningdek, tarbiyachi bilim sohasiga saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilishi lozim.

Faoliyatlar kishini o‘ziga duch kelgan hodisalarini tahlil qilish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka – egallagan bilim va ko‘nikmalarini faoliyatning ma’lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir.

Shuni alohida qayd qilib o‘tmoq zarurki, pedagoglik kasbi murakkab va mas’uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo‘lgan inson bilan muloqotda bo‘ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shuning

uchun, u bilan doimo muloqotda bo‘lganda, unga ta’sir ko‘rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o‘rganib, o‘z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachilarda pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikni ta’minlaydi. Tarbiyachining pedagogik mahorati – pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yib, bo‘lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo‘lishi lozim. Pedagogning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon-e’tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob-axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma’naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat’iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi kabilar kiradi. Bular tarbiyachilarda kasbiy xususiyatlarni o‘zida tarbiyalab borishga ko‘maklashadi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta’rif, hamda tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari va pedagoglarga qo‘yiladigan ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib pedagogika nazariyasi pedagogik mahoratni quyidagi asosiy komponent (tarkibiy qism)lardan iborat bo‘lishi lozimligini ifodalaydi.

Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb et-sada, ular yaxlit holda tarbiyachi (pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi. Zero, **pedagogik texnika** – o‘qitish, ta’sir ko‘rsatish, ta’lim-tarbiya oluvchilarga o‘z his-tuyg‘ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini o‘rgatish texnologiyasini ifodalasa, **pedagogik muomala** – kasbiy faolligining bir ko‘rinishi bo‘lib, ta’lim-tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta’sir va hamkorligini aks ettiradi.



Pedagogik madaniyat – tarbiyachilik burchi, mas’uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e’tiqodini nazarda tutib, pedagogning talabchanligi,adolati, komilligi, rostgo‘yligi, to‘g‘riligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida **pedagogik nazokat (takt)** – pedagogning pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari pedagogning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o‘z kasbining mohir ustozi bo‘lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o‘ylash, pedagogik ish tutish lozim bo‘ladi. Bu deganimiz, o‘z faoliyatini pedagogik holdisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog‘lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta’lim-tarbiyaga doir g‘oya-

larni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo‘ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo‘llarini topish ustida o‘ylashi kerak.

Insonparvarlik – insonning qadri erkinligi baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Pedagoglarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlariga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, o‘zgalar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishda adolatlilik.

Samimiylilik – atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat.

Vatanni sevish – ona yurtiga, ota-onasiga va yorudo‘shtlariga sadoqatli bo‘lish va e‘tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzları, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

Fidoyilik – tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to‘plash, o‘rganish, avaylab saqlash va targ‘ib qilish.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o‘rni qanday?
2. Qaysi pedagog olimlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlarini bilasiz?
3. Kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
4. Tarbiyachiga qo‘yilayotgan talablar?
5. Pedagogning pedagogik texnikasi qanday ko‘nikma va malakalardan iborat?

6. Pedagog faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o‘zi-ga xos qanday tizimlari mavjud?

7. Pedagogik nazokat deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2018 -yil, 28-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017.y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y.

3. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2010, -367 б.

4. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им.Чулпана. Т.; 2005. -200 с.

5. Umumiylpedagogika Darslik 1-qism /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.

3-BOB. ZAMONAVIY TARBIYACHI IMIJI

- 3.1. Zamonaviy tarbiyachi imiji.
- 3.2. Pedagogik odob.
- 3.3. Pedagogik nazokat.

Tayanch iboralari: *imij, imijelogiya, qadriyat, madaniyat, mahorat, tarbiyachi faoliyatining qirralari, pedagogik odob, pedagogik nazokat, psixologik jozibadorlik.*

3.1. Zamonaviy tarbiyachi imiji.

Zamonaviy tarbiyachining o‘zini namoyon etuvchi mezonlardan biri uning imiji hisoblanadi.

Imij - u o‘zida yetarli darajada his-tuyg‘uga bezalgan obyekt to‘g‘risidagi axborotni qamrab oladi va aniq ijtimoiy munosabat tasavvurini yuzaga keltiradi. Shaxslara-ro munosabatlarga e’tibor berganimizda, har bir shaxs o‘z munosabatidan kelib chiqib o‘z imijini aks ettiradi. Shu bois munosabat doirasida ularni **“imij qadriyat funksiyalari”** deb keltirdik.

Imijelogiya – har bir insonni jozibador bo‘lishga va insonlarga yorug‘lik ulashishga chaqirish. Imijelogiya – ta’sir ko‘rsatish texnologiyasi. Insonlarga ta’sir ko‘rsatishning 2 usuli mavjud. “Ishontirish usuli” va “Yoqish usuli”. Ulardan so‘nggisi samaraliroq (Blez Paskal). Imij qandaydir sintetik siymo bo‘lib, aniq bir insonga bo‘lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir.

Tarbiyachi imiji ta’lim muassasasi imijiga ta’sir etadi. Shaxsni yuksaltirish imiji - ijobiy imij tufayli shaxsning siyoshi uning ma’naviy xislatini namoyon etadi, vizual tarzda uning eng yaxshi xususiyatlari moddiy tarz-

da gavdalanadi hamda uning individual o‘ziga xosligi ko‘rinadi.

Psixologik jozibador xususiyatga ega shaxs, insonlar e’tibori va hurmatiga muqarrar, unga bu bioenergetik quvvat to‘ldirish va tiklash imkonini beradi, bunga undagi ijobiy barqaror xush kayfiyat misol bo‘ladi.

Tarbiyachi o‘zining maqsadlariga erishish sari optimist va o‘ziga ishonchi mavjud bo‘lishi kerak. “O‘zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasi”ning 4 ta asosiy texnologik jihatlar mavjud:

1. Qiyofa vizualizatsiyasi
2. Kommunikativ
3. Verbal effekt.
4. Flyuid nurlanish.

Imijning texnologik funksiyalari:

1. Ijtimoiy adaptatsiya.
2. To‘g‘ri tanlangan imij orqali ma’lum bir ijtimoiy muhitga tezroq kirishish, insonlar bilan ijobiy aloqalar o‘rnatish mumkin.
3. Shaxsiy-kasbiy xarakteristikalarini namoyon qilish. Bu shaxsning o‘z kasbiga e’tiborini qaratib, insonlarda simpatiya uyg‘otishga qaratilgan.
4. Shaxsiy negativ xislatlarni yashirish.
5. Bu shaxsning kiyim, soch turmagi, ijobiy xulqi orqali o‘z kamchiliklarini boshqa insonlardan yashirish usuli.

Imij yaratishdagi “PR” texnologiyalar:

- * Pozitsiyani maqtash.
- * Lider shaxsining pozitivizatsiyasi.
- * Raqib imijini pasaytirish.
- * Tashkilot ijtimoiy bazasi va hamkorlarini ulug‘lash.
- * Kontrreklama.

Tarbiyachi imijini yaratishda atrof-muhitni hisobga olish lozim, shu bilan birga faoliyat yuritayotgan jamoaga mos imijini yaratishi kerak. Har bir muhitning o‘z imiji

mavjud. Shu bilan birga Tarbiyachi o‘z invidualligini, takrorlanmasligini yo‘qotmasligi zarur.

O‘z kasbini samarali boshqarishda Tarbiyachi imijini rivojlantirishga oid turli xil maslahatlar berilgan. Ulardan: AIDA imijining ta’sir qilish qonuni:

A (attention) –e’tibor.

I (interest) –qiziqish.

D (dimand) – ehtiyoj.

A (action) – harakat.

Agarda inson o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olsa, u to‘g‘ri yo‘l topa oladi. Uning doim o‘ziga ishonchi bo‘ladi va kasbiy faoliyatida ham shaxsiy hayotda ham omadli bo‘ladi.

Zamonaviy tarbiyachi imijining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: kiyinish madaniyati, ma’naviy madaniyati, muloqot madaniyati, o‘zini tutish madaniyati.

Shuningdek, aqlilik, bilimlilik, ijobjiy xulq-atvor, sog‘lik kabilalar muhim ahamiyatga ega.

Har bir tarbiyachi kompetentligi va kreativligi yuzasidan egallashi lozim bo‘lgan kompetensiya komponentlari asosida o‘zining siyomosini yaratadi.

- huquqiy kompetentlik;
- boshqaruv kompetentligi;
- axborot kompetentligi;
- kommunikativ kompetentlik;
- psixologik-pedagogik kompetentlik;
- tashkilotchilik kompetentlik;
- kreativ kompetentlik;
- innovatsion kompetentlik;
- iqtisodiy-moliyaviy kompetentlik.

3.2. Pedagogik odob.

Odob deganda, rasm-taomil, xulq-odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi bilan turmush sharoiti-

ning alohida tarzi, an'analari negizida odamlar o'rtasida paydo bo'lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi.

Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari ham deb qaraladi. Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir.

Pedagog odobi, eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Birroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyo-qarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi, jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati; ikinchisi, o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar,

normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

Tarbiyachi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar ni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular tarbiyachining dunyoqarashi, fikr va mu-lohazalari bilan qo'shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar tarbiyachining mashg'ulotlari jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, ota-onalar bilan muomala-munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi.

Pedagogik takt tarbiyachi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Tarbiyachi xulqining natijalari uning yosh-larga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

Tarbiyachi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydin-lashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch,

qadr-qimmat, mas’uliyat, vijdon, halollik, rostgo‘ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar tarbiyachi odobida pedagoglik faoliyati bilan bog‘liq ravishda tahlil qilinadi. Ta’lim oluvchilarga yaxshilik qilish, tarbiyachi burchi, tarbiyachilik sha’ni, qadr-qimmati, tarbiyachilik mas’uliyati, tarbiyachilik vijdoni, talabchanlik va adolatli bo‘lish, tarbiyachining ma’naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo‘yligi kabilar tarbiyachi axloqining muhim fazilatlari hisoblanaadi. Ularni chuqur va puxta o‘zlashtirish bo‘lajak tarbiyachi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

3.3. Pedagogik nazokat. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’limga qaratilayotgan e’tibor barcha pedagog xodimlarning o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi ta’lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo‘shili shiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasasi pedagog xodimlar oldiga yanada yangi vazifalar qo‘yadi.

Ma’lumki, inson har doim o‘sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta’sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik xodim jamoalari to‘g‘ri tushunishlari lozim. Har bir pedagog xodim, o‘z faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta’sirida amalga oshiradi.

Tarbiyachining mahoratini to‘la amalga oshirish uchun, avvalo, pedagogik mahorat tushunchasining mohiyat-mazmunini bilish, uning barcha komponentlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lib, ularning birligi, izchilligini ta’minlash lozim. Chunki ularning birining o‘zgarishi, tabiiy holda ikkinchisining o‘zgarishiga olib keladi. Natijada pedagogik mahorat to‘laqonli mazmunga ega bo‘lmay, uni egallash qiyin bo‘lib qolishi mumkin.

Pedagogik nazokat – bu tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonli-

gi, samimiyliliqi, nazokati va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z mutaxassisligini chuqur va atroficha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, yosh avlodga bilim berish, o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning qulay yo‘llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, tarbiyachi insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni o‘zida tarkib toptirishi lozim.

Shuni alohida qayd qilib o‘tmoq zarurki, tarbiyachilik kasbi murakkab va mas’uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo‘lgan inson bilan muloqotda bo‘ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shuning uchun, bola bilan doimo muloqotda bo‘lganda, unga ta’sir ko‘rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o‘rganib, o‘z kasbiy mahorati us-tida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachidan pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikni ta’minlaydi. Pedagogik nazokat pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yib, mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun xodim shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo‘lishi lozim.

Xodimning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon-e’tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob-axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma’naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat’iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va hokazolar kiradi. Bular rahbar va xodimiga kasbiy xususiyatlarni o‘zida tarbiyalab borishga ko‘maklashadi.

Pedagogik nazokat (takt) – tarbiyachining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari o‘qituvchining kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va o‘qituvchi-tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o‘z kasbining mohir ustozи bo‘lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o‘ylash, pedagogik ish tutish lozim bo‘ladi. Bu deganimiz, o‘z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog‘lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta’lim-tarbiyaga doir g‘oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo‘ladi. Asosiy pedagogik - psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng quay yo’llarini topish ustida o‘ylash ham kerak.

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta’lim oluvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o‘rgatish, intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o‘qituvchidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko‘nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shu jihatdan o‘qituvchining ta’lim oluvchilar bilan munosabatida “Pedagogik takt” muhim pedagogik qobiliyat sifatida e’tirof etiladi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar

1. Zamonaliviy tarbiyachi imiji deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyachining pedagogik odobi qanday bo‘lishi kerak?

-
3. Pedagogik nazokat qanday shakllantiriladi?
 4. Tarbiyachi qanday shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-T.: O‘zbekiston, 2017.- 592 b.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им.Чулпана. Т.; 2005. -200 с.
3. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi.- T.: Yangi asr avlodi, 2016. -132 b.
4. Umumiy pedagogika. Qism I. /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.

4-BOB. TARBIYACHI PEDAGOGIK FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV

- 4.1. Pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.
- 4.2. Tarbiyachining ijodkorlik sifatlari.
- 4.3. Tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yndashuvni shakllantirish.

4.1. Pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.

Kreativlik (lot., ing. “create ”yaratish”, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirib boriladi.

Pedagog-tarbiyachining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qibiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etish-

ga yo'naltiradi. Tarbiyachining kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog-tarbiyachi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Odatda, pedagog-tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bo'lajak pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagи ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mav-

jud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalgalash oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllanadi.

Zamonaviy ta’lim barcha turdagи ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo‘lishlarini taqozo etmoqda.

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xilikni aks ettiradi. G‘arb kishilar uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqda esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Pedagogning kreativligi - bu uning innovatsion yondashuvlari bilan shakllanadi. Pedagogning kreativligi - tashabbuskorlikni, samarali muloqotni, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqeni, oldindan ko‘ra olish, vaziyatni tezda payqab olishlari zarur. O‘ziga ishonchi bo‘limgan pedagog vaziyat o‘zgarishi bilan, o‘z qarorini o‘zgartirib turadi. O‘z shaxsiga va qobiliyatiga ishommagan odam o‘zgalarda ham ishonch uyg‘ota olmaydi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Tarbiyachi qanday tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur?

G‘oyaviy-siyosiy bilim	Tashkilotchilik	Insonparvarlik
Keng dunyoqarash	Halollik	Yangiliklarni tez qabul qilish
Mukammal bilim	Adolatlilik	Mehnatga ijodiy munosabat
Qobiliyat	Tashabbuskorlik	Kasbiy refleksiya
Kreativ tafakkur	Kommunikativlilik	Yuqori imij

Ko‘pgina pedagog-tarbiyachilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘s, ular o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki mashg‘ulotlarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. *Har tomonlama fikrlash* ta’lim oluvchilardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli

ravishda *bir tomonlama fikrlash* esa birgina to‘g‘ri g‘oya-ga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda ta’lim oluvchi yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “ta’lim oluvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

fikr ravonligi

fikrni maqsadga
muvofiq yo‘llay
olish

qiziquvchanlik

farazlar yaratish
qobiliyatni

o‘ziga xoslik
(originallik)

xayol qila olish,
fantastlik
(fantaziya)

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyor-

lanib, ta’lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo‘lgan ijod mahsulotlari sanab o‘tiladi.

Multimedia – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha.

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqa grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks etiruvchi elektron shakldagi to‘plam.

Elektron atlas (yun. “Atlas” – birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalilanildi.

Raqamli video lavhalar – o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagи zamonaviy o‘quv manbai.

Virtual stendlar – 1) real obyekt, predmet, jarayon, voqeа va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita.

Imitatcion virtual trenajyor (ingl. “train” – “tarbiyalamoq”, o‘qitmoq”, “mashq qildirmoq”) – elektron shakldagi o‘quv-mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m-n: mashina (mexanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o‘zlashtirish) ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo‘lgan malakalar takomillashtiriladi.

Multimedia mahsulotlari – o‘zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafiqa va animatsiya effektlari asosida o‘quv materialini tinglovchilarga etkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar.

Audio va video vizual materiallar – o‘quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta’minlovchi materiallar.

Video animatsiyalar – chizilgan (rasmli) yoki kichik hajmlı obraz (hajmiy, qo‘g‘irchoq yoki o‘yinchoqli obyekt) larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichi ni ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tavrilar.

Prezentatsiya (*taqdimot; lot. “praesentatio” – taqdim etish*) – muayyan mavzu yoki muammo bo‘yicha o‘quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materialarning ish qog‘ozlari (oddiy yoki vatman qog‘ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proektor, protsesor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi.

4.2. Pedagog-tarbiyachining ijodkorlik sifatlari. Pedagog-tarbiyachi o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyatni ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish,

shuningdek, pedagogik xarakterdagи ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Ijodkorlik - muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijodkor shaxs - ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Kreativ shaxs - jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarini yechishga nostandard usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Ijod - ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olin-gan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish.

Kasbiy-ijodiy faoliyat–mutaxassisning kasbiy masalalarini ijodiy hal qilishga muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.

Ijodiy topshiriqlar–muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.

Kasbiy-ijodiy imkoniyat.

1. Kasbiy kompetensiya, malakaga egalik;
2. Kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik;
3. Jodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;
4. Kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi - ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obyektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi,

mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot.

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo‘ladigan individual xususiyati.

O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. Mashg‘ulotlarda “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drapeau) sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
- 2) mashg‘ulotlarni qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘-batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija.

4.3.Tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuvni shakllantirish.

Tarbiyachi – pedagoglarda kreativlikni tarbiyalash mezonlari-kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim, ko‘nikma, malaka va shaxs sifatlari majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydali natijalarni olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogning o‘z-o‘zini boshqarish natijasida shakllantiriladi.

Tarbiyachi-pedagogning kreativ tafakkuri

Aqlning peshqadamligi	Tezlikda qaror qabul qilish	Tafakkurning egiluvchanligi
Noan'anaviyligi	Qarorlarni qabul qilishdan cho'chimaslik	Istiqlobni ko'rish
Nostandard qarorlar va yechimlar qabul qilishdan cho'chimaslik	Ish vazifasi va sohasiga sodiqlik	Prognoz qila olish kabi xususiyatlari

Aqlning peshqadamligi belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziga xos salbiy va ijobiyy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyatini.

Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarни sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantirish bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

Prognoz, bashorat qila olish esa - o'z sohasi rivojidagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unum-

dorligining ko‘tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o‘zgarishi hamda mazkur o‘zgarishlarning sohaga bo‘lgan ta’siri, narxlarning ko‘tarilishi va pasayishi v.b.

Tarbiyachi pedagog doim mas’uliyatni his qilishi lozim. Uning kreativ tafakkuridagi aqlning peshqadamligi va egiluvchanligini maxsus abstrakt mashqlar va bilimlar asosida tarbiyalash mumkin. Kreativ tafakkur maqsadga yo‘naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma’lum bo‘lmagan va an’anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo‘l, vositalarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar

1. Kreativlik deganda nimani tushunasiz?
2. Multimedia va multimedia mahsulotlariga izoh beriring.
3. Pedagog-tarbiyachining ijodkorlik sifatlariga izoh bering.
4. Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi deganda nimani tushunasiz.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им. Чулпана. Т.; 2005. -200 с.
2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., va b.qalar. – Toshkent, 2015. – 120 b.
3. Umumiy pedagogika Darslik 1-qism /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.
4. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - T: O‘qituvchi, 1990.

5 –BOB. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH

- 5.1. Bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari.
- 5.2. Mashg‘ulot turlari va tuzilishi.
- 5.3. Mashg‘ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o‘tkazishga tayyorgarligi.

Tayanch iboralar: *ta’lim, tarbiya, mashg‘ulot, dastur, tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi.*

5.1. Bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari.

Fiziologiya, gigiyena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bolalar bog‘chalarida kichkintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi:

- har bir yosh guruhida bolalarni jamoatchilik ruhi-da tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarni yosh guruqlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
- bolalarning har xil faoliyat bilan shug‘ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo‘lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigiyenik, pedagogik, estetik tabalbar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta’minalash;

- bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash;
- bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratish.

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish bolalar bog'chasing har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidalı o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar, gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog'chasiidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Bolalar bog'chasing pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish, savod o'rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko'nikma sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bolalar bog'chasi dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiyl rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ma'lum izchillikda olib boriladi,

mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo‘ladi.

Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soni va har bir mashg‘ulot qancha davom etishi belgilab qo‘yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o‘zining haftalik mashg‘ulotlar jadvalini tuzadi, bu ta’limning hamma bo‘limlari bo‘yicha belgilangan ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi.

Mashg‘ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablar-ga rioya qilish kerak:

1. Dasturning hamma bo‘limlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni haftaga teng taqsimlanadi.

2. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg‘ulotlar qo‘yiladi.

3. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

4. Kun davomida birinchi bo‘lib bolalardan aqliy zo‘r berishni ko‘proq talab etadigan, kam harakatli mashg‘ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa va shunga o‘xshash mashg‘ulotlar keyinroqqa rejalashtiriladi.

5. Kun davomida mashg‘ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va h.k.

Mashg‘ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini yengilroq o‘zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatları tashkil etiladi. Bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan didaktik va harakatli o‘yinlarni o‘ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini yasaydilar, ki-

toblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar. Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtida bolalarning o‘z-o‘zini tashkil eta bilish qobiliyati o‘sishiga, xulq madaniyati irodaviy sifatlarning tarbiyalanishiga, jamaoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o‘ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi talab etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug‘ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta’minlashda, tarbiyachining maslahati lozim bo‘ladi.

Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg‘ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnati davomida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e’tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, ishlayotganlarning axloqiy munosabatlariga qaraladi. Bolalarning ovqatlanishi, mashg‘ulotga tayyorlanishi, tabiat burchagida navbatchi vazifasini bajarish, ularda topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi. Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. Kichkina guruh bolalarning ko‘p vaqtli guruh xonasida o‘tadi. Yaxshi jihozlangan xona, o‘yinchoq va qo‘llanmalarni to‘g‘ri tanlash bolalarning to‘laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o‘yinchoqlar bu yoshdagи bolalarning 2-3 ta bo‘lib o‘ynashlarini e’tiborga olib joylashtirilishi, o‘yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o‘yinchoqlar ham bo‘lishi kerak, qolgan o‘yinchoqlar, rasmlar, shkaflarga bolalar bemalol oladigan

qilib joylashtirilishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o‘ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak, harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jihozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo‘yiladi.

II kichik guruh. Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari, kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda baliq, to‘rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. Bog‘cha maydonchasida sport o‘yinlari bilan shug‘ullanish uchun maxsus joy bo‘ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo‘yiladi.

O‘rta guruh. Guruhda uqlash xonasi, hojatxona va yechinish xonasi bo‘lishi kerak. Guruh xonasi bir necha bo‘limdan iborat bo‘lishi kerak. Birinchi o‘yin bo‘limida qo‘g‘irchoqlar hamda kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo‘ladi. Ikkinci o‘yin bo‘limida qurilish materiallari qo‘yiladigan shkaf va ular bilan o‘ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug‘ullanishlari uchun kerakli materiallar qo‘yiladi. Kitob burchagi va stol ustini bosma o‘yini bilan shug‘ullanishlari uchun o‘yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalariga yaqinroqqa joylashtirgan ma’qul. Xona amaliy san’at asarlari va ko‘kalamzorlashtiruvchi o‘simliklar bilan bezatiladi. Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzaralni o‘simliklar bilan to‘silib, jismoniy mashqlar va sport o‘yinlar uchun kerakli asboblar bilan jihozlanadi.

Katta guruh. O‘yin bo‘limlari bolalarning yoshiba mos holda o‘rta guruh xonasi kabi jihozlanadi. Guruh xo-

nasida yana mashg‘ulot o‘tkaziladigan bo‘lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, taxta joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o‘ynashlari uchun hamma kerakli materiallar (stollar, o‘yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar) bo‘lishi lozim. Tabiat burchagi, qo‘l mehnati bilan shug‘ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat burchaklari bo‘lishi kerak.

Tayyorlov guruhi. Bu yerdagi mashg‘ulot o‘tkaziladigan bo‘limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo‘yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli shug‘ullanganda o‘yinga joy bo‘shatish maqsadida boshqa tomonga surib qo‘yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o‘yinlari va har xil o‘yin uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u yerda bolalar o‘zлari gul va sabzavotlarni yetishtiradilar.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar.

Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish. Bolalarning bog‘chada 9-12 soat bo‘lishi kun tartibida belgilab qo‘yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog‘chadagi vaqt qiziqarli, sermazmun o‘tishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishdagagi talablar quyidagicha:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruvida faoliyat turlarini almashtirib borish.
3. Bolalarning harakat faolligini yetarlicha ta’minalash.
4. Mashg‘ulot, o‘yin, mehnat, maishiy faoliyat o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish.
5. Bolalarni olgan bilim, malaka, ko‘nikmalarni mustaqil faoliyatlarida qo‘llay olishga o‘rgatish.
6. Bolani faol bo‘lishga, har doim biron narsa bilan mashg‘ul bo‘lishga o‘rgatish.

7. Har bir bolani ijodiy qobiliyatlari, xohish va qiziqishlarini diqqat bilan ko‘zatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.
8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.
9. Kun tartibiga qat’iy rioya qilish.

5.2. Mashg‘ulot turlari va tuzilishi

Mashg‘ulot bolalar bog‘chasida bolalarga ta’lim berishning asosiy shaklidir. Mashg‘ulot-tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta’lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigiyenik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta’lim berishda bosh rolni mashg‘ulot egallaydi. Mashg‘ulotlar bolalar bog‘chasida ta’limni tashkil etish shaklidir. U mактабгача tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga ma’lum o‘rin va vaqt ajratilgan. Mashg‘ulot tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi, tarbiyachi mashg‘ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etadi. O‘quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashg‘ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Mashg‘ulot bolalarda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega, birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topag‘onligini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi. Bolalar ishiga zo‘r berishni talab etuvchi vazifa qo‘ylganda birgalikda qayg‘urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar,

rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs o‘yinlarini ijro etish, badiiy asarlarни eshitish, o‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishslash, yashashga o‘rgatadi. Mashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda mакtabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi.

Mashg‘ulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, hikoya qilinayotgan voqeadagi asosiy g‘oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi.

Mashg‘ulot jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi takomillashtirib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi. Bolalar bog‘chasida kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanish tirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarni o‘stirish mashg‘ulotlari, musiqa mashg‘ulotlari, tasviriy san‘at mashg‘ulotlari, ko‘rish, yasash, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib boriladi. Mashg‘ulotlar boladan aqliy va jismoniy kuchlarni talab etadi, ya’ni u bolaning faolligi bilan bog‘liq bo‘lib, bola ma’lum natijaga erishish uchun intiladi. Bu esa boladan uzoq ixtiyoriy diqqatni talab etadi.

Mashg‘ulotlarni kunning birinchi yarmida o‘tkazish maqsadga muvofiq, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug‘lik bilan yaxshi ta’minlangan bo‘ladi. Har bir yosh guruhiida necha marta mashg‘ulot o‘tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg‘ulot yosh guruhlari bo‘yicha qancha davom etishi

bolalar bog‘chasi tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Bolalarning bilimlarini sinovchi mashg‘ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dasturda belgilangan bilim va malakalarni o‘zlashtirish darajasini bilib oladi va o‘zining keyingi ishi mazmuni, metodlarini belgilaydi. Kompleks mashg‘ulotlar bolalar bog‘chasi tajribasida keng tarqalgan bo‘lib bunday mashg‘ulotlar bolalarga yangi bilim beradi. Egallangan bilimlar mustahkamlanadi.

Mashg‘ulotning tuzilishi: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qismdan iborat bo‘ladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv das-turi O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bola ta’limning keyin-gi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Dastur maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalar: kommunikativ kompe-tensiya, o‘yin kompetensiyasi, ijtimoiy kompetensiya, bi-lish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi. O‘yin kom-petensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilish-da tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi. Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdosh-lar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya

qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati. Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olin-gan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Mazkur kompetensiyalar atrofdagi olam bilan tanishish, tabiat bilan tanishish, nutqni rivojlantirish, savodxonlikka o‘rgatish, badiiy adabiyot, ikkinchi tilni o‘rganish, elemen-tar matematika, rasm chizish, applikatsiya, konstruksiyalar tuzish va qo‘l mehnati, plastilin, loydan yasash, jismoniy tarbiya, musiqa mashg‘ulotlari orqali rivojlantiriladi.

Bolalar mashg‘ulotda qiziqish va faoliik bilan ishtirok etishi uchun mashg‘ulot mazmuni va metodikasi puxta o‘ylab olinishi kerak. Bolalar o‘quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e’tibor bilan tinglab, o‘yindan mashg‘ulotga osonlik bilan o‘tadilar. Tarbiyachilar bolalarni yig‘ib, ularning mashg‘ulotga tayyorgarligi: tashqi ko‘rinishi, o‘z joyiga to‘g‘ri o‘tirishi, diqqatini to‘plaganini tekshiradi. Mashg‘ulot muvaffaqiyatlari o‘tishi uchun bolalar-da qiziqishni uyg‘otish, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi faoliyatiga mos har xil usullarni qo‘llash kerak. Kichik guruh bolalarida mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi kutilmagan topishmoqlar, muammoli usullardan foydalilanildi. “Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti? Bu qorbobo bizniki-ga mehmonga keldi”, deb mashg‘ulotni boshlash maqsad-ga muvofiq bo‘ladi. Tarbiyachi katta guruhlarda esa qanday mashg‘ulot o‘tkazilishi haqida bolalarni oldindan ogohlan-tirib qo‘yadi. Bu esa bolalarni keyingi mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Masalan, hayvonot bog‘iga, ekskuri-siyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib qo‘yadi va ularga hayvonot bog‘ini aylanib chiqishni, ota-onasi bilan sayr qilganda qanday hayvonlarni ko‘rganini va ular qan-day taassurot qoldirganini eslab qolishni taklif etadi. Bolalar esa bu kunni zo‘r qiziqish va xursandchilik bilan kutishadi.

Katta guruh va tayyorlov guruhlaridagi bolalar o'tkazilayotgan mashg'ulotning zarur va majburiyligini ongli ravishda tushunib unga tayyorlanib boradilar. Mashg'ulot jarayonida bolalarga yangi bilim beriladi. Berilayotgan topshiriq yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatiladi. Topshiriqni bajarishda qiy-nalgan bolalarga yordam ham beriladi. Shuningdek, beril-gan topshiriqni hamma bolalar tomonidan to'liq bajarilishini ta'minlash uchun tarbiyachi turli xil metod va usullardan keng foydalanadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'qishni va yozishni bilma-ganliklari uchun o'tilgan mavzuni qaytarib mustahkamlay olmaydi. Shunga ko'ra bolalarga berilgan bilimni mustah-kamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashg'ulotlardan foydalanib boradi. Bu jarayonda bolalarga mexanik qayta-rish yoki yodlatishdan chetlashish kerak. Chunki mazmuni anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi.

5.3. Mashg'ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi.

Mashg'ulotda tarbiyachining bolalarda qo'yadigan talabi, albatta, ularning yoshi va imkoniyatiga mos bo'li-shi kerak. Tarbiyachi kichik guruh bolalarini ikki guruhga bo'lib mashg'ulot olib boradi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashg'ulot o'tkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi dastlab-ki mashg'ulotlar jarayonida guruh xonasi, qo'g'irchoq va o'ynichoqlar bilan tanishtirishi kerak. Qo'g'irchoqlar yordamida esa mashg'ulot o'tkazadi. Tarbiyachi av-val bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otib bersa, ke-yin mashg'ulotning hamma uchun majburiyligini bolalar ongiga singdirib boradi. O'tkazilayotgan mashg'ulotlar asta-sekin murakkablashtirilib, bolalar xulqiga moslab boriladi. Bolalar mashg'ulot jarayonida axloq-qoidalarini egallab boradilar. To'g'ri o'tirish, tarbiyachi so'zini diqqat

bilan eshitish, chalg‘imaslik, tarbiyachi so‘ragandagina javob berish, javob berganda o‘rnidan turish kabilar o‘rgatiladi. Mashg‘ulotning sifati va uning natijasi tarbiyachining unga qanday tayyorgarlik ko‘rganiga va pedagogik mahoratiga bog‘liq.

Mashg‘ulotga tayyorlanish mazmuniga quyidagilar kirdi: mashg‘ulotni rejalashtirish, kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo‘yish, bolalarni mashg‘ulotga tayyorlash.

Tarbiyachi mashg‘ulotni bir bo‘limdan bitta emas, balki butun bir mashg‘ulotlar tizimini rejalashtirib olib borsa, ijobjiy natijani qo‘lga kiritishi tabiiy.

Tarbiyachi mashg‘ulotlarni metodik adabiyotlaridan keng foydalanilgan holda olib borishi kerak. Agar mashg‘ulotlar murakkabroq bo‘lsa, tarbiyachi, albatta, unga reja tuzadi. Rejada mashg‘ulotning mazmuni tayyorlanish uchun kerak bo‘lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar, mashg‘ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko‘rsatiladi.

Har bir bog‘chada metodika kabinetlari mavjud, unda “Bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiya dasturi”ning hamma bo‘limlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi. Yetishmaganini tarbiyachi o‘zi tayyorlaydi, ba’zan esa bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalb etadi. Tarbiyachi mashg‘ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi. Tarbiyachi bolalar bog‘chasida asosiy shaxs hisoblanib, yosh avlodning tarbiyalanganligi va bilish darajasi uning g‘oyaviy, siyosiy va ilmiy pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, salohiyatiga, pedagogik mahoratiga bog‘liq. Odatda, bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ham uning tarbiyachi shaxsiga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalansa hamda

bolaning ruhiyati, yosh va o‘ziga xos ruhiy, fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiyaning samaradorligi ortadi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bola hayotini tashkil etishga qanday talablar qo‘yiladi?
2. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining kundalik faoliyati nimalardan iborat?
3. Kun tartibini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar.
4. Mashg‘ulot nima va unga qanday talablar qo‘yiladi?
5. Mashg‘ulot qanday bosqichlardan iborat?
6. Mashg‘ulotlarda tarbiyachining tayyorgarligi bosqichlari.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. – 201 б.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им. Чулпана. Т.; 2005. -200 с.
- 3.Umumiy pedagogika Darslik 1-qism /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 б.

6-BOB. TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATI

6.1. Innovatsion pedagogika tushunchalari.

6.2. Innovatsiyaning rivojlanishi.

6.3. Innovatsion pedagogik faoliyat.

Tayanch iboralar: innovatsiya, faoliyat, novatsiya, ijodkorlik, yangilik, yangilanish, tarbiyachi, innovatsion jarayon, pedagogik g'oya, innovatsion ta'lif.

6.1. Innovatsion pedagogika tushunchalari.

Hozirgi taraqqiyotimizning talablari asosida ta'lif standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta'lif muassasalariga yetkazilib berilmoqda. Ta'lif muassasalarining moddiy bazalari jadallik bilan mustahkamlanmoqda.

Yangi turdag'i kasb-hunar kollejlari, universitetlar va institutlar qoshida akademik litseylar, maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, joriy va kapital ta'mirlash, yangi zamonaliviy asbob-uskunalarini, o'quv qurollari, texnika vositalari va kompyuterlashtirish ishlari aniq davlat rejalarini asosida amalga oshirilmoqda.

Innovatsiyaning asosiy tushunchalari.

Yangilik: g'oya, aniq bir shaxs uchun yangilik, vosita (yangi metod).

Innovatsiya: yangilanish, o'zgarish; biror-bir yangilikni kiritish; yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

Innovatsiya (inglizcha Innovation - yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Innovatika – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o‘zlashtirishni va targ‘ib-targ‘ibotini o‘rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimni yangi ko‘rsatgichlarga muvafaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi o‘zgarishdir. Innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Innovatsion pedagogik g‘oya – tizimlashtirilgan pedagogik g‘oyalar; o‘quv jarayoni bashorat etilishi, ma’lumotlar to‘plami.

Innovatsion ta’lim - ta’lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni demakdir.

Innovatsion ta’lim muassasasi – yangi tipdagि ta’lim muassasalari: akademik litseylar, maktabgacha ta’lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta’lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo‘nalishli, predmetlari chuqur o‘rgatiladigan maktablar va h.k.

Innovatsion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta’minalashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faoliy, didaktik o‘yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihashtirilgan, AKT texnologiyalari).

Innovatsion o‘qitish deganda yangicha o‘qitish tizimi va ta’lim oluvchilarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni (algoritmlash, loyihali, modulli va b.) tushuniladi.


Lug‘aviy jihatdan “**innovatsiya**” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“**innovation**”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. **Innovatsiya** – muayyan tizim-

ning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “**Innovatsiya** (ingl. “innovationas” – *kiritilgan yangilik, ixtiro*) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar;

ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi”.

Innovatsion ta'lif (ingl. “innovation” – *yangilik kiritish, ixtiro*) ta'lif oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lif. Innovatsion ta'lif jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lif texnologiyalari yoki ta'lif innovatsiyalari deb nomlanadi.



Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jayronida mayjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubii”da qo‘llanilgan. **Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi.**

Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy **ko‘rinishlari** sanaladi.

- yangi g‘oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan‘anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalar ni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “**novatsiya**”, “**innovatsiya**” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagи ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u **novatsiya (yangilanish)** deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma’lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u **innovatsiya (yangilik kiritish)** deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda “**novatsiya**” (**yangilanish, yangilik**) hamda “**innovatsiya**” (**yangilik kiritish**) tushuncha-

larining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, “*yangi*”, “*yangilik*” tushunchasi nafaqat muayyan g'oya-ni, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan element-laran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra, novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud.

Ular quyidagilardir.

Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi.	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) subyektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

6.2. Innovatsiyaning rivojlanishi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishi-ga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda

pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishi-ga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyv-lok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Ko'zmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan. Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Subyektiv yangilik ma'lum obyektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritisha ga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'limgan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. Rossiyalik olimlar. A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va boshqa esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rghanishga e'tiborni qaratgan. Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondashuv mavjud ekanligini e'tirof etadi:

1) yangilikning individual mikro darajasi (*unga ko'ra qandaydir yangi g'oyaga amaliyatga joriy etiladi*);

2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (*bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi*).

A.I.Prigojning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodelaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro,

mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o‘ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g‘oyasi o‘tgan asrning boshlariida G‘arbiy Evropa va AQShda ta’lim tizimi ni isloq qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi. Mazkur g‘oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash **“ta’lim texnologiyasi”** yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etildi, asosiy e’tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni o‘zatish xizmatini sifatlari tashkil etish, ta’lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o‘quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o‘rganishga alohida urg‘u berildi.

60-yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “**texnologiya**” tushunchasining mohiyatini olib beruvchi omil sifatida ko‘rla boshlandi. Dasturiy ta’lim ta’lim oluvchilarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta’lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan “Dasturiy ta’lim va o’rgatuvchi mashinalar bo‘yicha birlashgan Qo‘mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o‘zida ta’lim maqsadlari, ularni o‘zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o‘zgartirish majmuasini to‘laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi. Pedagogik tizim elementlarning juda chidamli va mustahkam majmuidir.

V.P.Bespalkoning fikriga ko‘ra qaysi davr pedagogik sistemasi bo‘lmisin u o‘zaro bog‘langan quyidagi elementlardan iboratdir:

- 1) ta’lim (tarbiya) maqsadi (umumiy va xususiy);
- 2) ta’lim (tarbiya) mazmuni;
- 3) ta’lim (tarbiya) jarayoni (xususiy tarbiya va ta’lim);
- 4) tarbiyaviy ishlarni tashkiliy shakllari.

Innovatsiya chuqurroq bilim olish, o‘rganish, o‘zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog‘i yaxshi natijalar berishi mumkin.

Bular doimiy pedagogik muammo bo‘lib kelayotgan: o‘quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o‘quv materialni hajmini oshirish, o‘quv jarayonini jadallashtirish, vaqt ni tejash, ko‘proq ilg‘or metodlardan foydalanish, o‘quv-tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g‘oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, shaxsni rivojlanishiga olib

keluvchi, tom ma'nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

Ko'plab umumiy va xususiy loyihalarni tahlil etib, pedagogik nazariya va amaliyatga tadbiq etilish xususiyat va holatlarini o'rghanish asosida umumpedagogik innovatsiyalarni quyidagi ko'rinishlarini belgilash mumkin:

1. Juda yangi bo'lmasa-da, doimiy faol bo'lgan, o'zining g'oyasi, ahamiyati jihatdan eskirmagan, o'quv jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladigan o'quv-tarbiya texnologiyalari.

2. Gumanistik pedagogika mohiyatini ifodalovchi texnologiyalar.

3. Pedagogik tizim jarayonidagi boshqaruvlarni yangi g'oya, yondashuvlar asosida tashkil etilishini ta'minlovchi texnologiyalar.

4. Yangi g'oyalilar, axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiyalarga asoslangan texnologiyalar. Innovatsion texnologiyalarda yangiliklarni asosiy yo'nalishlari sifatida:

- pedagogik tizimning bir butunligi;
- o'quv muassasalarini;
- pedagogik nazariya;
- ta'lim oluvchilar;
- pedagogik texnologiya;
- ta'lim (tarbiya) mazmuni;
- ta'lim (tarbiya)ning shakl, metod va vositalari;
- ta'lim (tarbiya) jarayonini boshqarish;
- ta'lim (tarbiya) maqsadi;
- ta'lim (tarbiya) natijalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

6.3. Innovatsion pedagogik faoliyat. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yordarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga

keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Mohiyatiga ko‘ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

- *yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;*
- *pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;*
- *novatorlik darajasi;*
- *kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;*
- *ijodkorligi.*

Innovatsion jarayonni tashkil etuvchi yangilik yaratish, o‘zlashtirish, yangilikni qo‘llash–hamkorlikda innovatika obyekti hisoblanadi. Pedagogik didaktikada esa o‘qish jarayoni ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib hisoblanadi. Ana shu bilan ular bir-biridan farqlanadi.

Innovatsion faoliyat – ta’limning u yoki bu bosqichida innovatsion jarayonni amalga oshirishga yordam beruvchi kompleks choralar bo‘lib, u jarayon ichida kechadi.

Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyasi pedagogik jarayonni komponentlarini, ya’ni ma’no, maqsad, ta’lim mazmuni, shakli, metodi, texnologiyasi, ta’lim vositalari, uni boshqaruvarlarini o‘zgartirishdan iborat.

Innovatsion jarayonning o‘ziga xosligi shundaki, u siklik xarakterli bo‘lib, quyidagi bosqichli tarkibiy tuzilmada, yangilikning vujudga kelishi, opponentlar bilan kurashdagi tezkorlik, g‘oyaning yetilishi, o‘zlashtirilishi, tarqalishi, krizis yoki finalga borishidan iborat.

Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g‘oyasi paydo bo‘ladi. U sotsial holatga undan ta’limdagi yangilikning tug‘ilishi, paydo bo‘lishiga olib keladi.

Innovatsion jarayonning ba’zi yangiliklari lokal tadqiqotlar o‘tkazish va tajriba-sinovlar orqali tadbiq qilish-

dan farqlash kerak. Masalan, mактабда qо‘shimcha kursni innovatsion deb bo‘lmaydi.

Shunday qilib biror g‘oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyatga olib kirib, u jarayonni boshqarib borish mumkin bo‘lsa, innovatsion faoliyat hisoblanadi.

Innovatsion ta’lim muassasasi - yangi tipdagi ta’lim muassasalari: akademik litseylar, maktabgacha ta’lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta’lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo‘nalishli, predmetlari chuqur o‘rgatiladigan maktablar va h.k.

Innovatsion texnologiya - pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faoliik, didaktik o‘yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihashtirilgan, AKT texnologiyalari).

Innovatsion o‘qitish – 1) yangicha o‘qitish tizimi; 2) va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni (algoritmlash, loyihali, modulli va b.).

Innovatsion faoliyatining umumiy jihatlarini K.Angelevskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A.Slastyonin, L.M.Fridman kabi olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yaratib berdilar. I.Shumpater va N.Kondratevlar esa innovatsiya tushunchasining ilk va ulkan nazariyotchilari hisoblanadilar. K.Angelevskiy V.A.Slastyonin va V.I.Slobotchikovlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatning alohi-da shakli ekanligini isbotlashga harakat qiladilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar deb tan olinadilar.

Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi, zamon bilan birga qadam tashlashga yordam beruvchi kuch sanaladi.

Innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalari yaratish, tajriba-sinov ishlarini olib borish yoki bosh-

qa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan sharoitda yangi mahsulot yaratish bilan yakunlanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir

M. Jumaniyozovaning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshra olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borishni innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining qay darajada dunyo ta'limi bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligi asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoada ijodiy muhitning alohida o'rni borligini ko'pchilik olimlar ta'kidlab o'tadilar. Ta'lim oluvchilarning novatorlik xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi yangiliklarga bo'lgan ijobjiy munosabatlariga qarab, K.Rodjers va K.Angelovskiy pedagogik jamoa a'zolarini beshta guruhga ajratishni taklif etadilar.

1. Novatorlar.
2. Eski g'oyalarni amalga oshiruvchilar.

3. Eski g‘oyalarni amalga oshirishni ma’qul ko‘rvuchilar (ular aksariyat holatlarda ko‘pchilikni tashkil etadilar).

4. Yangi g‘oyalarni amalga oshirishni ma’qul ko‘rvuchilar (bugungi kunda ularning soni ham ortib bormoqda).

5. Ikkilanuvchilar.

Ta’lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilash va farovon turmush kechirishga olib keladi. Yangilikni kiritish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta’lim jarayoniga uzlucksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar.

Ko‘pgina taraqqiy etgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlarning faol ishtirok etishlari ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ulardan pedagog olimlardan N.Azizzxo‘jayeva, B.Farbermon, N.Sayidiahmedov, K.Zaripov, M.Ochilov, O’.Tolipov, M.Usmonboyeva, M.Jumaniyozova va boshqalarni keltirish mumkin.

Ammo ko‘pgina mamlakatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion jarayonlarda yuqorida pastga qarab harakatlansa va bunda bo‘ysunuvchi ijrochisi, ya’ni yangilikning faqat iste’molchisi bo‘lib qolsa, u holda bu jarayon ma’muriy xarakterga ega bo‘ladi.

Demak, innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lib, darsga eng so‘nggi yangiliklarni olib kirib, ta’lim oluvchiga qiziqarli va uning ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlash mumkin.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar

1. “Innovatsion pedagogika” nima? Uning predmeti, obyekti, vazifalari haqida nimalarни bilasiz?

2. Novatsiya va innovatsiya deganda nimani tushunasiz?

3.Pedagogik innovatsiya qanday ko‘rinish (yo‘nalish) da belgilanadi?

4.Pedagogik innovatsiya, innovatika, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, innovatsion maqsad, innovatsion muhit, novator, islohat, innovatsion reja va innovatsion loyiha nima?

Foydalangan adabiyotlar

1. Zaripov K. O‘qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarlarining roli. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1993. – 112 b.

2. Манако А.Ф. Инноватции в подготовке преподавателей. – Киев: МСИТ при МОН., 2003. – 86 с.

3. Qodirova F.R. va boshq. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim konsepsiysi. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011, 38 b.

4. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun / Toshkent: Tafakkur, 2019. - 685 b.

7 -bob. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI

- 7.1. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari.
- 7.2. Osiyo mamlakatlarida maktabgacha ta'lim tizimi.
- 7.3. Yevropa davlarlarida maktabgacha ta'lim tizimi ning rivojlanishi.

Tayanch iboralar: *tyutor, moderator, fasilitator, integratsiya, differensiatsiya, differentsiyal ta'lim, pedagogik texnologiya, innovatsiya, tizim, ta'lim tizimi, integrativ, tajriba.*

7.1. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatalmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi. **Tyutor** (*Tutorem-lotincha*) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi.

Ba'zi hollarda ma'ruzasi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallahshda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi. **Edvayzer (advisor)** - fransuzchavisen-o'yamoq) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

Fasilitator - (ingliz tilida *facilitator*, lotincha *facilis* - yengil, qulay) - guruhlardagi faoliyat natijasini samarali qo'llash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi komunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarini bajaradi.

falarini bajaradi.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini pedagog bajaradi va pedagog deb yuritiladi. Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda. Bunday o'zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog'liq. Aynan ana shu masala yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"-gi Qonunda o'z aksini topgan. Bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarning o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariiga bog'liq. Chunki, ularning barchasi mohiyati, mazmuни, tabiatи, shakli va ko'lamiga ko'ra tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, yechimi topiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi. Ko'p sonli manbalar, xususan pedagogik amaliyot sohalarining tahlili ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan, bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan obyektlarning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar shaklida o'rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan bog'lanmagan va tizimlashmaganligidir. Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan qo'llanilishiga

qaramay, davr taqozosiga ko‘ra yaqin paytlargacha unga yetarli ahamiyat berilgan emas. Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o‘zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologik olimi G.S.Kostyukning fikricha: “Tabaqalanish differensiatsiya – ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko‘payishiga olib kelsa, integratsiya - tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma’lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo‘li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo‘ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo‘lgan elementlardan sintezlash yo‘li bilan hosil qilinadi”. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va nihoyat o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o‘quv predmetlari mazmunini eng kamida ta’lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv predmetlari doirasida ma’lum didaktik birliklar orasida o‘rnatilib, ularni o‘rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi, bundan farqli o‘laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv predmeti yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o‘z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko‘rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgililar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqa-

dorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o‘rganilayotgan obyektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.

7.2. Osiyo mamlakatlarida maktabgacha ta’lim tizimi.

Koreya ta’lim tizimi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasi ga davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o‘tkazilib, tajriba almashinuvi, O‘zbekistonda eksperimental tarzda bolalar bog‘chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Safar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta’lim va boshqa turdagи muassasalariga tashriflar uyuşhtirildi va ularning faoliyati o‘rganildi, jumladan bog‘chalarning o‘ziga xos jihatlari, qo‘llanilayotgan ta’lim berish uslublari, moliyalashtirish va to‘lov tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta’minot hamda sohalariga tegishli dasturlar va uslublar atroficha o‘rganildi.

Pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo‘qligi, davlat bog‘chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o‘zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlaniruvchi o‘yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o‘zini

tutish va shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlar Koreya maktabgacha ta’lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Alohiba e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir jihat, davlat jamiyatning eng himoyalanmagan qatlamlari, kam ta’minlangan oilalar va nogiron bolalarga, birinchi navbatda g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi va bog‘chalarga qabul davomida ularga ustuvorlik prinsipini qo‘llaydi va shu sababli ham, Koreyada inkylyuziv ta’lim prinsiplari tahsinga sazovordir.

Koreyaning ta’lim tizimiga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta’lim muassasalari bo‘lgan oliv ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Sanmyong Universiteti, (Sangmyung University) hamda Chung-Ang Universiteti (Chung-Ang University) bilan Hadli kelishuvlar imzolandi, shuningdek Chonnam Milliy Universiteti (Chonnam National University) bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Kelishuvlar va Memorandum doirasida quyidagi sohalardagi hamkorlik nazarda tutilgan: talabalar, ilmiy-pedagogik va boshqaruva mutaxassislari o‘rtasida tajriba almashinuvlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga qaratilgan choralar, jumladan eng yangi dasturlar va uslublarni joriy qilish, hamkorlikda tadqiqotlar, konferensiyalar, ko‘rgazma va seminarlarni amalga oshirish, maktabgacha ta’lim mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha maxsus qo‘shma magistrlik va doktorlik dasturlarini tashkil etish, shuningdek, O‘zbekistonda Koreya tizimiga asoslangan eksperimental bog‘chalarni tashkil etish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim vazirligi delegatsiyasining Koreya Respublikasiga tashrifi davomida bolalarning erta rivojlanishi va maktabgacha ta’lim tizimi sohasiga ixtisoslashgan nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari bilan uchrashuvlar ham o‘tkazildi. Jumladan, 2017-yilning 23-noyabr kuni Koreya

bolalar parvarishi va va maktabgacha ta’lim masalalarini o‘rganish Instituti (KICCE) bilan Hadli kelishuv imzolandi. Kelishuv doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi va KICCE hamkorligida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkaziladi, pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali tajriba almashinuviga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi, seminarlar va konferensiyalar tashkil etiladi. Shu bilan bir qatorda hamkorlik asosida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyalarining ishlab chiqilishi, ta’lim dasturlari va standartlarining qayta ko‘rib chiqilishi, ta’lim statistikasini joriy qilish nazarda tutilgan.

Seul bolalarni erta rivojlantirishga ko‘maklashish Institute (Seoul Early Childhood Education Promotion Institute) bilan 2017-yilning 22-noyabr kuni o‘tkazilgan uchrashuv chog‘ida qo‘shma tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyatga tatbiq qilish imkoniyatini beruvchi hamkorlikdagi ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalarini tashkil etish, o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlash borasida kelgusida hamkorlik bitimlarini imzolash kelishib olindi.

Yana bir samarali uchrashuv – Maktabgacha ta’lim vazirligining eng muhim salohiyatlari hamkor – Koreya Respublikasi Ta’lim vazirligining Maktabgacha ta’lim va bola parvarishi Departamentida bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda Koreya tomoni O‘zbekiston delegatsiyasiga Koreyada maktabgacha ta’lim va bola parvarishi bosqichlari, sohani rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish prinsiplari, yangi NURI maktabgacha ta’lim Milliy dasturini joriy qilish jihatlari haqida ma’lumot berdilar. Shuningdek, to‘lov tizimlari, ta’lim muassasasi turidan kelib chiqqan holda narxlarni belgilash prinsiplari, Davlatning maktabgacha ta’limga yo‘naltirayotgan harajatlari, shuningdek istiqboldagi rejalar, jumladan, maktabgacha ta’lim strukturasida Davlat bog‘chalari ulushini kengay-

tirish, elektron qabul tizimini joriy qilish, pedagoglar malakasini oshirish hamda sohani takomillashtirish tendensiyalari haqida ham ma'lumotlar berildi.

Koreya Respublikasining tajribasi, albatta, e'tiborga molik va ishonamizki, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida bu boradagi Koreya modeli elementlari albatta o'z aksini topadi.

Yaponiyada ta'lim tizimi va xususiyatlari. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladidi. 1872-yili "Ta'lim haqida" Qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan. 1893-yilda kasb ta'limi yo'nalishidagi birinchi kollej paydo bo'lgan. 1908-yilda Yaponiya boshlang'ich ta'limni majburiy 6 yillik qilib belgiladi.

1946-yili qabul qilingan konstitutsiya fuqorolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiyligi ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan.

Hozirgi zamон yapon ta'lim tiziminining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich mакtab, kichik o'rta mакtab, yuqori o'rta mакtab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Bolalar yoshlariга qarab 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir. Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70 foizini, qolgan 30 foizini butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik har doimgidek birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina

yaponlarning aytishlaricha, bola tarbiyasi ularning hayotlarining maqsadidir.

Yapon tarbiyachilari bolalarni kichik guruh (xan)larga bo‘lib o‘qitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu guruhrar o‘zlarining stollariga, bolalarning o‘zлari tanlagan shaxsiy nomlariга, (bu bolalarda qarorlar qilishda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a‘zolarini barchasini tashabbuskor bo‘lishga) o‘rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o‘rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhrar o‘rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o‘zлari boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib ko‘radi.

Boshlang‘ich mакtabda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga, ya’ni o‘z xulqlarini yomon tomonlarini, mакtabdagи kamchiliklarni tanqid qilishni o‘rgatadilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchil faqat ta’lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tamonlama rivojlanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o‘qituvchi kasbiga katta e’tibor beriladi. Yaponiya - rivojlangan davlatlar ichida o‘qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo‘lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta’lim. Ta’limning bu pog‘onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘z ichiga oladi. 6 yillik boshlang‘ich ta’lim va 3 yillik o‘rta mакtab.

9 yillik majburiy ta’lim bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o‘quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta’minlanadi. Zarur bo‘lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko‘rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy mакtablar ham mavjud.

Yuqori o‘rta mакtab 10,11,12-sinflarni o‘z ichiga oladi, bunday mакtablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo‘limlari mavjud. O‘quvchilarning 95 foizi kunduzgi mакtablarda o‘qiydi.

Yaponiyada o‘quv yili -240, AQShda - 180 kun. Yozgi ta’til iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o‘qitiladi.

Universitetlarga yuqori va o‘rtta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o‘quvchilar qabul qilinadi. U erda 460 ta universitet bo‘lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipial, 31 tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o‘qituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to‘g‘ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo‘linadi: 1-bosqichi turar joyda o‘tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo‘yicha o‘qitiladi.

7.3. Yevropa davlatlarida maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi. Germaniya ta’lim tizimi.

Germaniya – jahon film fani va madaniyati o‘choqlariidan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablari, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlari bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e’tirof etilgan olmon ta’lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e’tibor berildi. Ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so‘nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanma-ganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o‘z o‘rniga ega bo‘lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, bir so‘zlilik xislatlari ham aynan ta’lim dargohlarida shakllanadi.

Tafakkur ustaxonasi Germaniyada maktabgacha ta’lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog‘chasi xayriya jamg‘armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxona va tashkilotlar ham o‘z bog‘chasiga ega bo‘lishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bo-

lalarda o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda bog‘chalarning o‘rnii katta. Shu bois ham olmonlar bog‘chalarни “*tafakkur ustaxona-si*” deb atashadi.

Bepul va majburiy talim Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta’limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘zining ta’lim to‘g‘risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta’lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang‘ich ta’lim – 4 yil (birinchi sinfdan to‘rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun miliy tartib-qoidalar amal qiladi.

Germaniyada maktab ta’limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta’lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta’lim tizimi esa boshlang‘ich, o‘rtा va yuqori bosqichlarga bo‘linadi. Bolalar 5-6 yoshdan boshlang‘ich maktabga qatnaydi. Boshlang‘ich maktabda o‘qish davri to‘rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o‘quvchilariga baho qo‘yilmaydi. Pedagoglar baho o‘rniga bolaning individual, psixologiya rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O‘quvchilarga 3-sinfdan baho qo‘yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko‘ra, 1 – a’lo, 2 – yaxshi, 3 – qoniqarli, 4 – yetarli, 5 – yetarli emas, 6 – qoniqarsiz. O‘quvchilar fanlarni eng kamida “4” ga o‘zlashtirishi kerak. Boshlang‘ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, mu-siqa, estetika fanlari o‘tiladi.

Tanlash imkoniyati Olmon ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quvchilar boshlang‘ichni tugatgan-dayoq kelajak yo‘lini aniqlab olishi zarur.

Asosiy maktab. Bu orada bolalar to‘qqizinchi sinf-

gacha o‘qitiladi. Bu turdagи maktablarda bazaviy bilimlar beriladi va asosiy e’tibor amaliy mashg‘ulotlarga qaratiladi. Asosiy mакtabni tugatgan o‘smirlar tugallanmagan o‘rta ta’lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablariga kirish mumkin. Bizdagi kasb-hunar kollejlariга o‘xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo‘yicha bilim va tajriba oshiradi.

Real mакtab. Bu turdagи maktablarda matematika va tabiiy fanlarga mobil, keljakda oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lishni niyat qilgan bolalar o‘qiydi. O‘qish 5-sinfdan 10- sinfgacha. Mazkur muddat mobaynida yoshlarga turli sohalari bo‘yicha kengaytirilgan bilim beriladi. Real mакtabni tugatgan o‘smirlar o‘qishni gimnaziyada davom etiradi.

Gimnaziya o‘rta ta’limning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan ushbu bilim maskanida to‘qqiz yil – 5-sinfdan 13-sinfgacha ta’lim oladi. Real mакtabning 10-sinfini tamomlagan yoshlar esa gimnaziyada uch yil o‘qiydi. Mazkur ta’lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o‘rgatiladi. Germaniyada davlatga qarashli maktablar bilan birga xususiy ta’lim maskanlari ham faoliyat yuritadi. Xususiy maktablar o‘rta ta’lim maskanlarining 2 foizini tashkil etadi. O‘quv dasturlari an‘anaviy maktablardan farq qiluvchi xususiy maktablarni Federal ta’lim va madaniyat vazirligi nazorat qiladi. Xususiy maktablar sanoat, gimnastika, uy xo‘jaligi kabi ixtisoslashgan yo‘nalishlarda ta’lim beradi. Nodavlat ta’lim maskanlari bir-birini qo‘llab-quvvatlash uchun Xususiy maktablar uyushmasiga birlashgan. Shuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan. Olmon maktablarida xorijlik fuqarolar ham ta’lim olishi mumkin. Xorijliklar mahalliy shart-sharoitga moslashishi, nemis tilini paxta o‘zlashtirishi uchun tayyorlov kurslari tashkil etiladi.

Nemis pedagoglari iste'dodsizning o'zi yo'q, deb hisoblashadi. Shunga ko'ra ularning ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtiolar ruhida tarbiyalashga intiladi. "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!" Mash-hur faylasuf Rene Dekart. Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birin-chi navbatda o'quvchining, hatto xato bo'lsa-da, mustaqil fikri bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta'lif jarayoni esa ota-onva o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.

Aslzodalar orzu qilgan universitet Germaniyada Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda bepul oliv ta'lif olish imkoniyati ko'proq. Nodavlat jamg'armalar hamda hukumat grantlari asosida xorijliklar ham nemis universitetlarida tahsil olishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mahalliy gimnaziyalarni bitirib, imtiyozli shahodatnomani olgan yoshlar universitet ta'lif oluvchilarga imtihonsiz kiradi. Chet elliklar esa o'qishga kirish uchun nemis tili bo'yicha imtihondan o'tadi. Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha davom etadi. Odatda, bakalavriat va magistratura talabalari o'qish yakuniga davlat imtihoni topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi. Ta'lif oluvchi o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. Yozgi mavsum aprel-sentabr, qishkisi esa oktabr-mart oyalarini o'z ichiga oladi.

Germanianing mo'jazgina Geydelberg shahrida joylashgan mazkur universitetning nufuzi hozir ham baland. Bu erdan Gegel, Yaspers kabi jahon tanigan olimlar, o'nga yaqin Nobel mukofoti egalari yetishib chiqqan. Universitet yurisprudensiya, biologiya, kimyo, tibbiyat yo'naliishlarida ko'pkadrlar tayyorlaydi. Bu yerda o'qiydigan 25 ming talabaning 12 foizi xorijliklardir. Myunxendagi Lyudvig-Maksimillian universitet Yevropaning tibbiyat bo'yicha yetuk

mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Besh asrlik tarixga ega bo'lgan ta'lim maskanida ayni paytda 45 ming talaba tahsil oladi. Kasbiy oliy maktablar yoki institutlar olmon ta'lim tizimining o'ziga xos bo'g'ini sifatida muhandis, iqtisodchi, dizayner, mashinasozlik, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash yo'naliishlari-da mutaxassislar yetkazib beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaning 370 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida 2 millionga yaqin talaba, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda. Olmon yurti chet ellik talabalar soni bo'yicha dunyoda AQSh va Buyuk Britaniyadan keyingi o'rinda turadi.

O'zini o'zi nazorat qilish uchun savollar

1. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi?
2. Koreya ta'lim tizimi haqida nimalarni bilasiz?
3. Yaponiya ta'lim tizimi?
4. Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari qanday nomlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Levitan K.M. Lichnost pedagoga: stanovlenie i razvitiie. Izd-vo Saratovskogo universiteta. 1991. -166 s.
2. Mavlonova R., To'rayeva O. Holqberdiyev K. Pedagogika. T., O'qituvchi. - 2001. – 512 b.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2007.

8-BOB. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKIL OTI PEDAGOGINING KASBIY STANDARTI

8.1. Maktabgacha ta'lism tashkilotlari turlari va ularni tashkil etish.

8.2. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash tizimi.

8.3. Maktabgacha ta'lism tashkiloti pedagogining kasbiy standarti.

8.4. Maktabgacha ta'lism muassasasi rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

8.1. Maktabgacha ta'lism tashkilotlari turlari va ularni tashkil etish.

Respublikamizda davlat maktabgacha ta'lism muassasalari, nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalari, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lism muassasalari bor.

Davlat maktabgacha ta'lism muassasalari maktabgacha ta'lism xizmatlarini ko'rsatish maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lism muassasasi yuridik shaxs bo'lib, litsenziya asosida yoki boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan ruxsatnomalar asosida tashkil etiladi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lism muassasalari maktabgacha ta'lism sohasida faoliyat yuritadigan, yuridik shaxs sifatida ma'lum muddatga davlat va xususiy sherik o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik asosida xususiy investitsiyani jalb qilish, resurslarni birlashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida sog‘lom raqobatni shakllantirish maqsadida davlat maktabgacha ta’lim muassasalaridan tashqari nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasalari tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasasiga asos solindi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasasiga O‘zbekistondagi yangi maktabgacha ta’lim muassasasidir.

Davlat xususiy-sherikchilik asosida nodavlat ta’lim muassasalari quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

1. Maktabgacha ta’lim nodavlat muassasalarining binolarini qurish uchun bepul asosda doimiy foydalanishga yer maydonlari taqdim etish.

2. Maktabgacha ta’lim nodavlat muassasalari binolarni qurish uchun faoliyat yuritayotgan davlat maktabgacha ta’lim muassasalarining hududida bepul asosda doimiy foydalanishga yer maydonlari ajratib berish.

3. Mavjud davlat maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va jihozlash, keyinchalik esa ularni otaliqqa olish sharti bilan maktabgacha ta’lim nodavlat muassasalari obyektlarini qurish uchun bepul asosda yer maydonlarini taqdim etish.

4. Konsessiya asosida qurilish uchun yer uchastkasi yoki rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun bino ajratish.

5. Bo‘sish yotgan davlat mulki obyektlarini, shu jumladan, faoliyat ko‘rsatmayotgan davlat maktabgacha ta’lim muassasalarining binolarini “nol” xarid qiymatida sotish.

6. To‘liq butlanmay qolgan davlat maktabgacha ta’lim muassasalarining foydalanilmayotgan xonalari yoki kor-

puslarini uzoq muddatli bepul maqsadli foydalanish uchun xususiy sheriklarga topshirish.

7. Xususiy sherikning mol-mulki negizida tashkil qilin-gan maktabgacha ta’lim nodavlat muassasalarini mod-diy-texnik va moliyaviy ta’minlash.

8. Oilaviy maktabgacha ta’lim nodavlat muassasalarini moddiy-texnik va metodik ta’minlash.

9. Otaliq shaklidagi xayriya faoliyatini olib borish.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasasi qanday tashkil etiladi. Bunday maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish tartibi quyidagicha;

1. Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida nodavlat maktabgacha ta’lim xizmatini ko‘rsatish istagini bildirgan xususiy sherik davlat sherigiga tegishli ariza beradi.

2. Arizada quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

– yuridik shaxslar uchun - xususiy sherikning nomi va joylashgan yeri, jismoniy shaxslar uchun - shaxsiy ma’lumotlar va yashash manzili;

– loyihami amalga oshirish maqsadi;

– bitimning taxmin qilingan obyekti yoki yer uchastka-si to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

3. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida kelib tushgan ariza u kelib tushgan kundan boshlab o‘n kun ichida davlat sheri-gi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda Davlat raqobat qo‘mitasi bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

4. Kelib tushgan ariza ko‘rib chiqilgach hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining hamda Davlat raqobat qo‘mitasining ijobiylarini olingach, davlat sheri-gi tanlovnini e’lon qiladi. Tanlov yakunlari buyicha g‘olib chiqqan tadbirkor tomonidan davlat-xususiy sherikchilik

Xususiy, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari rivojlantirildi va amaliyotga joriy qilindi.

asosidagi mактабгача та’лим муассасаси ташкіл етілді.

Hududiy hokimliklar томондан давлат-хусусиј шериклик тоғызидегі үч томонlama битимлар тузилган holda bo‘sh turgan yer

uchastkalari va bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini be-pul asosda tadbirkorlik subyektlariga beradi.

Davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdagи maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etishda eng muhim muammo – sarmoya topish hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari томондан maktabgacha ta’lim muassasalariga har томонlama ko‘maklashish maqsadida kredit mablag‘lari ajratiladi.

2018-yilda markaziy shaharlar va viloyatlar markazlarida tajriba tariqasida давлат-хусусиј шериклик шарттарда yangi maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish, eksperiment natijasiga ko‘ra, respublikaning barcha hududlarida maktabgacha ta’lim sohasida давлат-хусусиј шериклик asosidagi maktabgacha ta’lim muassasalari tashkil etila boshlandi.

Davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdagи maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni rivojlantirishning dastlabki bosqichidayoq axborot-kommunikativ va zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar olib borildi. Maktabgacha ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayoniga samarli metodlarни tatbiq etish maqsadida xalqaro tashkilotlar va chet eldagи ta’lim muassasalari bilan hamkorlik rivojlanirdi.

Ularning samarali faoliyat ко‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan imtiyozlar berildi. Jumladan:

- maktabgacha ta’lim muassasalari uchun tabdirkorlarga 5 yil davomida investitsiya shartlarini bajarish sharti bilan “nol” qiymatda binolarning berilishi;
- xususiy investorlarning o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan binolarda tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarining foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari uchun to‘lovning 50 foizi davlat byudjeti hisobidan to‘lanishi;
- bog‘chalarda bolalarni sog‘lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta’milash uchun har bir maktabgacha ta’lim muassasasiga 10-15 nafar fermerni sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun biriktirilishi;
- bolalar bog‘chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasining tashkil etilishi;
- “Ketring” xizmatini yo‘lga qo‘yish mexanizmining ishlab chiqilishi belgilandi.

Natijada iqtidorli bolalarni maktabgacha ta’lim-tarbiyaning yuqori sifatini ta’minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratildi, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an’anaviy ta’lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va om-mabop ta’lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bozori rivojlantirildi, ilg‘or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o‘qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida maktabgacha ta’lim sohasidagi samaradorlikka erishildi.

Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida **qisqa muddatli** guruqlar ham tashkil etiladi. Qisqa muddatli guruqlarda bolalar 3-4 soat davomida boshlang‘ich ta’lim olishga tayyorlanadi. Ota-onalarning xohish va istaklaridan kelib chiqib, bolalar bog‘chalarining ish vaqtি turlicha belgilangan: 4,5 soatlik, 9 soatlik, 10,5 soatlik. Har bir ota-ona farzandini xohlagan guruhga berishi mumkin.

Bolalarning ovqatlanishi. Bog‘chalarda bolalarni sog‘lom ovqatlantirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Bolalar kun davomida bog‘chaning ish vaqtidan kelib chiqib 5 martagacha ovqatlantiriladi. Bolalarning ovqatlanish ratsioni rang-barang bo‘lishi kerak. Bolalar oziq-ovqat mahsulotlari sifatli bo‘lishi jiddiy nazorat qilinadi.

8.2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash tizimi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun tarbiyachi-pedagoglar kasb-hunar kollejlarida, oliy o‘quv yurtlarida tayyorланади. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni har tomonlama tarbiyalash uchun malakali tarbiyachi-pedagoglar kerak. Afsuski, bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida ishlayotgan tarbiyachi-pedagoglarning katta qismi zamonaviy talablarga javob bermaydi. Ularning 79 foizini o‘rta maxsus ma’lumotli tarbiyachilar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagisi “Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishida maxsus sirtqi bo‘limlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3183-son qarori qabul qilindi.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun esa kelgusi 3 yilda 47 ming 300 dan ziyod oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlashga ehtiyoj mavjudligi aniqlangan. Ulardan 28 ming 300 nafari tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbariga bo‘lgan ehtiyojlardir.

Shu bois, 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim muassasalarida ishlayotgan o‘rta maxsus ma’lumotli tarbiyachilarni oliy ma’lumotli, yetuk mutaxassis sifatida tayyorlash uchun pedagogik yo‘nalishdagi

oliy ta’lim muassasalarida maxsus sirtqi bo‘limlar ochildi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishlarining qabul kvotalari oshirildi.

2018-yilda Toshkent shahrida Koreya Respublikasining Puchon universiteti tashkil etildi. Universitetda boshqa yo‘nalishlar qatorida maktabgacha ta’lim sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlanishi belgilandi. Ta’lim-tarbiya jarayoni xalqaro standartlarga muvofiq o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlari asosida zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalari vositasida ochiq axborot-ta’lim muhitida amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Institut maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarini va mutaxassislarini qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi, yangi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etadi, maktabgacha ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatadi.

8.3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti.

Ma’lumki, kasbiy tayyorgarlik – tarbiyachilarni kasbga tayyorlash jarayonidagi birinchi qadamdir. U bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy ideallarini shakllantirish, kasbiy munosabatlarni tashkil etish hamda pedagogik ko‘nikmalarga oid bilimlar ba’zasini rivojlantirish orqali tayyorlaydi. Ushbu bosqichda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikmalar asosida talabalar keyinchalik o‘z pedagogik faoliyatini tashkil etadi, yosh avlodni bilim va ko‘nikmalarini shakllantiradigan o‘zgarishlar ni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Hozirgi kunga qadar maktabgacha ta’lim muassasasi pedagogining kasbiy faoliyati pedagog va psixologlarning tadqiqot predmeti bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar natijalari

maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o‘ziga xosliklari yaratuvchanlik, insonparvarlik, ijodiylik, jamoada ishlay olish kabilarda yorqin namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Mazkur o‘ziga xosliklar ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalovchi pedagog faoliyatida o‘z aksini topishi lozim. Go‘daklik chog‘idanoq rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoit yaratish eng avvalo, tarbiyanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tug‘ilganidan boshlab to maktab ta’limiga tayyorlashga qadar bo‘lgan bosqich shaxs rivojlanishing boshqa yosh davrlaridan farqli ravishda keyinchalik bola istalgan sohaga doir maxsus bilim va ko‘nikmalarni egallashi hamda faoliyatning xilma-xil turlarini o‘zlashtirishi uchun asos bo‘ladigan uyg‘un tarzda amalga oshuvining ta’minlashini talab etadi. Chunki maktabgacha yoshda bola jamiyatning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan jismoniy va psixologik sifatlarga ega bo‘lib, inson sifatida shakllanadi. Bola rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan jismoniy va psixologik sifatlar esa ongli ravishda dunyoni anglash, fikr yuritish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish orqali qo‘lga kiritiladi.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani tarbiyachining qo‘yilgan talablarga qanchalik muvofiq ekanligi belgilab beradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak mas’uliyatni to‘la anglab yetishi zarur. Faqatgina maktabgacha yoshdagi bola rivojining muhim qadriyat ekanligini tushunishgina emas, balki bola rivojlanishi qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallah juda muhimdir. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojining uni urab turgan atrof-muhit bilan bogliqligidir. Mazkur qonuniyat o‘z navbatida maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining quyidagi ikkita muhim funksiyasini belgilab beradi:

- 1) bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish;
- 2) ularning hayotiy faoliyati xavfsizligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalashi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish funksiyasi bolani faollikka undash, uni rivojlanтирувчи тавсифдаги faoliyatga jalg etishni talab etadi. Bolaning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash haqida g'amxo'rlik qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyani oqilona tashkil etishning garovi, chunki mazkur yosh davri rivoji bolaning ijtimoiy holati, kayfiyati, emotsiional ko'rinishlariga bevosita bog'liqdir. Ana shu sababli tarbiyachi bolani o'rab turgan atrof-muhitga e'tiborli bo'lishi, bola hayoti va salomatligiga xavf soluvchi eng oddiy holatlarning ham oldini olishi lozim. Ya'ni, tarbiyachi bolalar bog'chasi maydonchasi, o'yinchoqlar, mebel jihozlarining bola bo'yiga mos kelish holatini muntazam nazorat qilib borishi; havo va suv temperaturasini o'chish; bolalarni tayyorlash uchun mashhg'ulotlar vaqtini oldindan aniqlashi lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tarbiyachining e'tiborsizligi, befarqligi uning kasbiy layoqatsizligining muhim belgisidir.

Bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarni olib borish - maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy funksiyasi. U ta'lim-tarbiya ishlarni rejalashtirishni axboriy-metodik hujjatlar bilan ishslash, bevosita tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va uning natijalarini tahlil etish asosida amalgga oshiradi.

Zamonaviy tarbiyachi psixologik-pedagogik, sotsiologik tadqiqotlarga tayangan holda bola shaxsi rivojlanishi uchun uning ta'sirini hech narsa, hatto yuqori toifali ta'lim muassasasi ham bosa olmaydigan oila ekanligini anglab yetadi. Tarbiyachi ota-onalarning pedagogik ma-

daniyatini muntazam oshirib borishi, bolalar tarbiyasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi, mazkur jarayonda ijtimoiy yordamga muhtojlik sezuvchi oilalar bilan alohi-da ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachining oilalarga ko'rsatadigan ijtimoiy-pedagogik yordami uch asosiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni:

- 1) ta'limiy – ta'lim berish va tarbiyalash;
- 2) psixologik – ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish va qayta tiklash;
- 3) vositachilik – tashkil etish, ta'lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvoridagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zarur axborotlar bilan ta'minlash.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining quyidagi kasbiy funksiyalarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ota-onalarning ma'rifiy bilimlarini oshirishda ishtirok etish;
- 2) oila va maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyaviy ta'sirini boshqarish hamda uyg'unlashtirish.

Zamonaviy demokratik jamiyatda maktabgacha ta'lim ishiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachidan muntazam ravishda o'zining umummadaniy va kasbiy tayyorgarligini boyitib borishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi kasbiy faoliyatining yana bir yo'nalishi - mustaqil ta'lim olishni shart qilib qo'yadi. Mustaqil ta'limning xilma-xil shakllariga adabiyotlar (kasbga doir, badiiy) o'qish, muzey-larga tashrif buyurishdan, konferensiya, ko'rgazma va konkurslarda ishtirok etish kabilarni kiritish mumkin. Mustaqil ta'limning maqsadi - bosqichma-bosqich tarbiyachi shaxsini rivojlantirish, kasbiy mahoratini oshirib borishdir.

Pedagogik faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi tarbiyachidan ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish, innovatsiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Innovatsiyalarning jadal kirib kelishi tarbiyachilarini ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirot etishga jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiyachilarining bunday tadqiqot ishlariga jalb etilishi keyinchalik erishilgan natijalardan o‘z faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradi.

Shuningdek, tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U **quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:**

1. Tarbiyachi yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kasbiy bilimlarni puxta egallab, zarur metodik adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tatbiq eta oladigan shaxs bo‘lishi lozim.

2. Tarbiyachi kuzatuvchanlik qobiliyatini yaxshi egalagan, ularning xulq-atvori, xatti-harakatlarini tahlil etib, bolaga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa oladigan bo‘lishi kerak.

3. Tarbiyachilarining bilishga qiziqishlarini oshirish, ularning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachining nutqi ravon, aniq, mantiqiy ixcham va tushunarli bo‘lishi kerak. Ta’lim-tarbiya berishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi lozim. Tarbiya jarayonida ta’limning interfaol metodlaridan samarali foydalana olishi zarur.

4. Tarbiyachi bolalarning har tomonlama uyg‘un rivojlanishlari uchun ularni faoliyatning xilma-xil turlariga faol jalb eta olishi, ularda qiziquvchanlik, izlanuvchanlikni oshirib borishi, bolalarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini muntazam tashxis etib, korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi kerak.

5. Har bir mashg‘ulot uchun zarur materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi, tarbiyalanuvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib borilishiga erishishi, o‘rganilayotgan materiallarni tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishini ta’minlashi lozim.

6. Kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar ja-moasiga undagi har bir a‘zoni e‘tiborga olgan holda rah-barlik qila bilishi, ularning faoliyati (o‘quv, uyin, mehnat) mazmunli bo‘lishi uchun kerakli materiallar bilan ta’minlashi zarur.

7. Bolalarning jismoniy va psixologik holatini to‘g‘ri baholay olishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarida e‘tiborga olishi kerak.

8. Kun davomida olib borgan ta’lim-tarbiya ishini muntazam tahlil qila olishi va uni yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topishi zarur.

9. Tarbiyachi muntazam ravishda ota-onalar bilan individual va jamoaviy suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazishi, ularni bolalarni tarbiyalashga doir zamonaviy metodikalar bilan tanishtirib borishi, oilalarda qo‘llanib kelayotgan ijobiy shakl, metod va vositalardan o‘zining tarbiyaviy faoliyatida foydalanishi lozim.

10. Tarbiyachi bolalarga xayrixoh munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun maqbul psixologik muhitni yuzaga keltirishi, bolaning qalbi va yuragiga joy topa olishi, quntli va sabrli bo‘lishi, bagrikeng va yuksak ishonchga ega bo‘lishi lozim.

Yuqorida bayon etilgan maktabgacha ta’lim muassassi pedagoglarining kasbiy faoliyatga doir funksiyalari va “Maktabgacha ta’lim Konsepsiysi”ga asoslangan holda zamonaviy tarbiyachilar kasbiy **kompetentligining** uch aspektini ajratib ko‘rsatish mumkin: **shaxsiy, kasbiy va refleksiv**.

Shaxsiy tayyorgarlik- tarbiyachi shaxsida qaror topishi lozim bo‘lgan sifatlarni o‘zida aks ettirib, ularga gnostik (bilishga doir) qobiliyatlar (ilmiy ma’lumotlar bilan ishlay olish, ilmiy bilimlardan amaliyotda oqilona foydalana olish, pedagogik vazifalarni yuksak mahorat bilan hal eta olish); tashkilotchilik qobiliyatları (ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mashg‘ulot shakl, metod va vositalarini tanlay olish, vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini zaruriy jihozlar bilan ta’minlash, ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkaza olish); kommunikativ qobiliyatlar (axborotni maktabgacha yosh davrlari bilan bog‘liqlikda tushunarli taqdim eta olish, vaziyat bilan bog‘liqlikda axborotlarni uzatish metod va usullarini o‘zgartira olish, kasbiy faoliyat jarayonida muloqotni oqilona amalga oshira olish va boshqalar)ni kiritish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik - tarbiyachining kasbiy faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikma va mala-kalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Pedagogik taktga doir sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim-tarbiya berishning yangi, nostonart shakl, metod va vositalarini izlash; tarbiyaviy ish jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni hal etishning samarali yo‘llarini tanlay olish; o‘z faoliyati, o‘quv jarayonida bolalarning individual rivojlanishi, innovatsion o‘quv reja va dasturlarni loyihalay olish va boshqalar.

Refleksiv tayyorgarlik - tarbiyaviy jarayon natijalariiga asoslangan holda tarbiyachining kelgusi faoliyatini rejashtirish imkoniyatini berib, uning uch turdag'i refleksiv qobiliyatini o‘z ichiga qamrab oladi: obyektni his qilish, o‘lchovni bilish va daxldorlik hissi.

8.4. Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malakaviy talablar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- maktabgacha ta’lim tiizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan zamонавиyl talablar mohiyatini, kommunikativ, psixologik, tashkilotchilik, informatsion, kreativ, innovatsion kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini, boshqaruv kompetentligining tuzilishi va mazmunini bilishi;

- ta’lim-tarbiyaning innovatsion shakl, metod va vositalari mohiyatini anglash va qo‘llanishini tashkillashtirish hamda nazorat qilish;

- ilg‘or ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini belgilash;

- ta’lim-tarbiya loyihalarini ishlab chiqish, portfoliolarini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini boshqarish;

- elektron o‘quv modullari yaratilishi va sifatini nazorat qilish;

- moderatorlar, keysologlar faoliyatini tashkil etish;

- malakaviy amaliyot bazalarini yangilash va dasturlarini takomillashtirishni nazorat qilish;

- maktabgacha ta’lim muassasasida faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlanТИrish;

Notiqlik mahorati, rahbarlik etikasi va madaniyatini amaliyotda qo‘llash hamda ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Rahbarning kompetentligi-bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas‘uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasini, ishining ustasi

bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Rahbar kompetensiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

- Qobiliyatni aniqlash;
- Tarbiyalash va shakllantirish;
- Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
- Rahbarlik cho‘qqisi.


Zamonaviy rahbar kompetensiyasida jarayonni boshqarishning o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘lib, ular qo‘yidagilardan iboratdir:

- Rejallashtirish;
- Tashkillashtirish;
- Tahlil qilish;
- Asoslash (motivatsiya);
- Nazorat qilish.

Ularning har biriga izoh berar ekanmiz, shuni qayd etish lozimki, rahbarlikning asosiy maqsadi, ushbu muhim vazifalar o‘rtasida mutanosiblik va uyg‘unlikka erishish hamda shu orqali tashkilot yakdilligini ta’minlashdir. **Rejallashtirish** vazifasi birinchi navbatda rahbar o‘z tashkilotining maqsadi, vazifalari, amalga oshirish jarayoni, faoliyat natijalarini aniqlashi va belgilashi zarur. **Tashkillashtirish** belgilangan vazifalar, ish hajmi, unga ketadigan vaqt hisobini aniq belgilab olishi, ya’ni tashkilot turli bo‘limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo‘lgan ishning boshlanish jarayonidan boshlab oxirigacha to‘liq **tahlil qilishi** maqsadga muvofiq. Bu olib borilayotgan ish va mahsulot natijalaridagi ba’zi holatlarning kamchiliginini joyida tushunib borishga imkon yaratadi. Rahbar strategik maqsadlarni ko‘zlar ekan, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib borishiga **asosli dalillar** ham zarur. Shu sababli har bir rahbar tomonidan tashkillashtirilgan ishlar asosli va o‘zaro qiyosiy tahlillarga

ega bo‘lishi kerak. Boshqaruvdagi **nazorat qilish** vazifasi ta’lim standartlari, pedagogik jarayonni mavjud Qonun va boshqa hujjatlarda ko‘rsatilgan talablar asosida kechishini ta’minlaydi.

Boshqaruvda rahbar muhim vazifalarni bajarish bilan birga mehnat jarayonida kompetentlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur. **Maktabgacha ta’lim muassasasi** rahbarining kompetentligi bir qator komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilardan iboratdir:



Yuqorida bayon etilgan rahbarining kompetentligi komponentlari rahbarning **yutug‘ini kafolatlaydigan omillar** hisoblanadi. Rahbarning jarayonni innovasion boshqarishda uning kasbiy refleksiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasining zamonaviy rahbari kompetensiyasiga ta’sir etuvchi omillar va xususiyatlar mavjud bo‘lib, ularning mukammal rahbar sifatida shakllanishida bevosita ta’sir etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari bilish zarur bo‘lgan masalalar

- Pedagogik kvalimetriya – bu ta’lim tizimi xodimlarini kasbiy va pedagogik mahorati sifati, novatorligi darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan tadqiqot sohasini;
- Pedagogik deontologiya – pedagogning kasbiy odob-axloqi haqidagi fan;
- Andragogika - kattalarni o‘qitish san’ati va ilmi;
- Rahbarlik nazokatining tarkibiy qismlari: ixtisoslik sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisoslikka doir vijdon, izzat-nafs, pedagogik oriyat va boshqalar;
- Rahbar faoliyatida muloqot odobiga qo‘yiladigan talablar – do‘stlik, xizmatdagi moslik, chiqishib hamjihat bo‘lib ishslash, maslakdoshlik, mayinlik, iltifotlilik, samiyimiylik va boshqalar;
- Rahbarning o‘zini boshqara olish bilan bog‘liq ko‘nikmasi, shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalarini pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari demakdir.
- Kasbiy refleksiya – o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini-o‘zi boshqarish va o‘z-o‘zini bilish demakdir.
- Rahbarning mahorati – ishga bo‘lgan fidoyilik, bilim va tajribalarning birikmasi bo‘lib, rahbar faoliyatining eng yuqori cho‘qqisidir, chunki u o‘ziga ajratilgan juda qisqa vaqt ichida eng yuqori mukammal natijaga erishadi.
- Muloqot odobi, nutq texnikasi – rahbarning mu-loqot madaniyati me’yorlari, kommunikativ faoliyatni nutq texnikasi qoidalari asosida amalga oshirish jarayonidir.

- Rahbarning yakka shaxs va jamoaga ta'sir etish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmasi (*didaktik ko'nikma, tashkilchilik ko'nikmasi, konstruktiv va kommunikativ ko'nikmasi, pedagogik munosabatni boshqarish, jamoaning ijodiy ishini tashkil etish*).

Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining faoliyati mazmuni komponentlari. Bu rahbarning o'r ganilayotgan aniq obyektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalari kira-di. O'r ganilayotgan obyektlarga nisbatan rahbarlar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostonart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi. Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni tahlil etish, o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik rahbarning ta'limda o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida boyitishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalari rahbarining faoliyati mazmuni komponentlari:

- pedagogik jarayonni tashkil etishga tizimli yondashuv - kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, rag'batlantirish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, mahalliy va xalqaro ta'lim muassasalari bilan korporativ hamkorlik o'rnatish;

- ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish;

- yoshlar ta'limi va tarbiyasi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash;

- moliyaviy xo'jalik ishlarini tashkillashtirish, hukumat

boshqaruv organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni o‘rnatish.

Rahbarning o‘z-o‘zini takomillashtirish kompetentligi ma’naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o‘z-o‘zini boshqara olishga qaratilgan. Rahbar shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko‘ra faoliyat usullarini egallaydi, bu unga o‘zida zamonaviy rahbarga xos bo‘lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, tafakkurini, madaniyati va xulqini shakllantirishga yordam beradi.

Rahbarning kompetensiyasida kreativlik muhim rol o‘ynaydi. “Rahbarning kreativlik qobiliyati” tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjud.

Rahbarning kreativligi - bu rahbarning innovatsion yondashuvlari bilan shakllanadi. Rahbarning kreativligi - tashabbuskorlikni, samarali muloqotni, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqeni, oldindan ko‘ra olish intuitsiyasi rivojlanganligini va tashkilot faoliyatining qayerga yo‘nalishini tezda payqab olishlari zarur. O‘ziga ishonchi bo‘lmagan rahbar vaziyat o‘zgarishi bilan, o‘z qarorini o‘zgartirib turadi. Bunday rahbar qo‘l ostida ishlaydigan xodimlar o‘z rahbari timsolida suyanchiq ko‘rmaydilar, tashkilotda o‘tkazayotgan kunlari vaqtinchalikdek tuyuladi. Boz ustiga, bunday rahbar o‘zgalar bilan muzokaralar olib borishga ham qodir emas. Chunki o‘z shaxsiga va qobiliyatiga ishonmagan odam o‘zgalarda ham ishonch uyg‘ota olmaydi.

Kreativlikning mohiyati – intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Rahbarning kreativligi – boshqaruv jarayoniga ijodiy yondashuviga aytildi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J.Gilford kreativ-

likni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

Kreativlik zamonaviy boshqaruvchilar, menejerlar uchun tashkilotning zamon bilan hamnafas olib borilishi ni ta’minlab beradi. Chunki, kreativ ish olib borish degani rahbar o‘z faoliyatiga har tomonlama yondashishi, ya’ni ijodiy-innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Demak, rahbar kreativ fikrlab borishi “Rahbarning kreativ tafakkuri” deb tushunamiz. Rahbarning kreativ tafakkurida taraqqiyot takomili, o‘sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo‘tadil saqlanishining instrumenti, uning ongli quroli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda boshqaruvning eng muhim funksiyalarini amalga oshiradi.

Pedagogning kreativ tafakkuri:

- Aqlning peshqadamligi;
- Tezlikda qaror qabul qilish;
- Qarorlarni qabul qilishdan cho‘chimaslik;
- Ish vazifasi va sohasiga sodiqlik;
- Tafakkurning egiluvchanligi;
- Noan’anaviyligi;
- Nostandard qarorlar va yechimlar qabul qilishdan cho‘chimaslik;
- Istiqbolni ko‘rish;
- Prognoz qila olish kabi xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirishiga bog‘liq pedagogik jayayondir.

Aqlning peshqadamligi-belgilangan muddatda ko‘pchilik o‘ylab ko‘rishga ulgurmaydigan muammolar bo‘yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko‘rsata

olish hamda ularning barchasining o‘ziga xos salbiy va ijobjiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyati. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an’anaviy mavjud bo‘lgan, aslida to‘g‘ri deb o‘ylangan shablon yo‘nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo‘nalish va choralarни sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o‘z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo‘nalishlariga o‘zini safarbar eta olishdir.

Prognoz, bashorat qila olish esa – o‘z sohasi rivojidagi istiqbol o‘zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash hisoblanadi. Masalan, mehnat unumidorligining ko‘tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o‘zgarishi hamda mazkur o‘zgarishlarning sohaga bo‘lgan ta’siri, narxlarning ko‘tarilishi va pasayishi v.b.

Boshqaruvda rahbar doim mas’uliyatni his qilishi lozim. Rahbar kreativ tafakkuridagi aqlning peshqadamligi va egiluvchanligini maxsus abstrakt mashqlar va bilimlar asosida tarbiyalashi mumkin hisoblanadi. Kreativ tafakkur maqsadga yo‘naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma’lum bo‘lмаган va an’anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo‘l, vositalarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi. Zamonaviy menejmentda kreativ tafakkur amaliyotini bildiruvchi ma’lum sistema shakllantirilgan.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Respublikamizda qanday shakldagi mактабгача та’лим muassasalari mavjud?
2. Davlat mактабгача та’лим muassasasiga necha yoshdan qabul qilinadi?
3. Mактабгача та’лим muassasalarida qanday mashg‘ulotlar o‘tiladi?

-
4. Inklyuziv ta’lim deganda nimani tushunasiz?
 5. Nima uchun qisqa muddatli guruhlar tashkil etiladi.
 6. Tarbiyachi va pedagoglarni tayyorlash tizimi qanday tashkil etilgan?
 7. Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbar kadrlariga qo‘yiladigan talablar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaripov K. O‘qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarlarining roli. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1993. – 112 b.
2. Манако А.Ф. Инновации в подготовке преподавателей. – Киев: МСИТ при МОиН., 2003. – 86 с.
3. Qodirova F.R. va boshq. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim konsepsiysi. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011, 38 b.
4. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun / Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019, 685 b.

9-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHILARIDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

- 9.1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha.
- 9.2. Tarbiyachi-pedagoglarda pedagogik mahoratni shakllantirishning innovatsion usullari.

Tayanch tushunchalar: pedagogik mahorat, ijtimoiy, psixologik, estetik tizim, tarbiyaning uzlusizligi, ixtiyoriylik.

9.1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlari.

Pedagogikada o'qituvchining tarbiyachilik mahorati doimiy o'zgarib turadigan, jamiyat talablaridan kelib chiqib, to'ldirilib boriladigan bir butun tizimga ega. Uning bir-biri bilan bog'liq quyidagi tarkibiy qismlari o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatida muhim yo'nalishlar bo'lib, doimo mazmunan boyitilib boriladi.

Tarbiyachi-o'qituvchining mahorati har bir o'quvchiiga alohida yondashuv imkoniyatlarini topish, o'quvchi iste'dodida namoyon bo'ladigan holatlarda uning faolligini oshirishga qaratiladi. Tarbiyachi-o'qituvchi tomonidan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirdirlarga qo'yiladigan asosiy talablar: tarbiyaviy tadbirdirlar hech qachon tasodify bo'lmasligi va har bir tadbiriga puxta tayyorgarlik ko'riliishi lozim.

Ijtimoiy psixologik tizim. Tarbiyachi-pedagogning tarbiyachi sifatidagi mahorati – bu tarbiyalanuvchilarni ma'lum bir maqsadga muvofiq tarbiyalash uchun mo'ljal-

ga olish san'atidir. Bolalar har kuni quvonchli daqiqalarini, katta va kichik ko'ngilsizliklarni birgalikda boshdan kechiradilar. Ular tarbiyachi-pedagogning o'zlariga nisbatan yaxshi va yomon yoki insoniy munosabatlari ni tez ajrata oladilar va bunga darhol o'z "javoblarini" qaytaradilar. Ijtimoiy psixologik bilim va malakaga ega bo'lish tarbiyachi-o'qituvchida uddaburonlikni va sezgirlikni shakllantiradi. U bolalar jamoasini uyushtira oladi, bolalar qalbiga yo'l topadi. Chunki bolalar jamoasi umumiyl maqsad asosida tashkil topgan, yuqori darajada uyushtirilgan birlashma bo'lib, shaxs shakllanishining yetakchi omili sifatida ijtimoiy munosabatlar ichida muhim yacheyka hisoblanadi.

Bolalar orasidagi munosabatlarga mohirona rahbarlik qilish uchun tarbiyachi jamoaning ichki va jamoalararo ziddiyatlarni ham bilishi kerak. Bu ziddiyatlarning barham topishi tarbiyachi shaxsi, uning tarbiyalanuvchilar bilan yaqin munosabatlariga bog'liq. Haqiqiy va mohir tarbiyachi-pedagoglar bu ziddiyatlarni bartaraf etishda bolalar jamoasi, o'quvchilar o'zaro munosabatlarining kuchidan foydalanadi. Har bir bola o'zining ijtimoiy va psixik ola-miga ega. Uni bilish, o'rganish o'qituvchidan psixologik nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi. Bolaning jamoa bilan yaxshi munosabatda bo'lishi uchun o'qituvchi quydagi omillarga e'tibor berishi shart:

- har bir bolaga alohida pedagogik topshiriqlar qo'yish;
- jamoada o'zaro xayrixohlik, o'zaro yordam muhitini shakllantirish;
- oilaning tarbiyaviy ta'siridan o'z o'rnida fodalanish;
- bolalarning o'zaro aloqalarini kuchaytiruvchi, ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi faoliyatlarini tashkil qilish;
- bolalarga o'zaro teng,adolatli munosabatda bo'lish.

9.2. Tarbiyachi-pedagoglarda pedagogik mahoratni shakllantirishning innovatsion usullari.

Estetik tizim. Agar tarbiyaviy vosita, usul va metodlar orqasida yetakchi g‘oya turmasa, texnologik tizim va ijtimoiy psixologik munosabatlar tizimi maqsadli tarbiyaviy natijalar bermaydi. Tarbiyachi-pedagogning har bir harakati, tarbiyalanuvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi faoliyati hayotiy me’yor va qadriyatlar asosida olib borilishi kerak, shundagina, o‘quvchining tarbiya jarayonidagi faolligi ta’milanadi. Estetik tizimda ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun Tarbiyachi-pedagoglardan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijobiy ta’sir etish vositalarining birligiga erishish talab etiladi:

- tarbiyada bolalar jamoasi muhitining birligi;
- bolalar mustaqilligi va o‘z-o‘zini tarbiyalashning birligi;
- fuqarolik va insoniylikning birligi;
- talabchanlik va ishonch birligi;
- bola shaxsiga ehtiyojkorona munosabat;
- jinsiy tafovutlarni hisobga olish;
- bolalarning axloqiy va jismoniy sog‘ligi haqida qayg‘urish;
- axloq me’yorlariga amal qilish.

O‘z-o‘zini anglash. Tarbiyachi-pedagogining vazifasi va burchi tarbiya natijasida o‘quvchida milliy qadriyat-larga e’tiqod, milliy mafkura, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat. Tarbiya mazmunining eng muhim xususiyatlaridan biri – bu insonning hayotiy jihatdan o‘z-o‘zini anglashi, uning shaxsiy hayoti va faoliyati o‘zi yashab turgan muhitning subyekti sifatida e’tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini anglash muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi-pedagoglar bolalarni, o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni o‘z ustida ongli, batartib ishlashga

o‘rgatsagina, tarbiya jarayoni samarali natijalar beradi. Bolalarni o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlariga ko‘nikma hosil qildirish tarbiyachi-pedagoglarning mahoratiga, tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishiga bog‘liq. Bolalar odatda yaqin kishilarining, ba’zan ustozining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Shuning uchun tarbiyachi-pedagoglarda o‘z pedagogik mahoratiga tayanib, bola qalbida o‘ziga nisbatan ishonch, mehr tuyg‘ularini uyg‘ota olishi lozim. Bolalar ustozining ishda va hayotda o‘zini qanday tutishini, kiyinishi, muomalasini, kishilar bilan o‘zaro munosabatini kuzatib boradilar. Bu ham o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashda ta’sirchan vosita hisoblanadi va ijtimoiy mavqeini oshirishning muhim usulidir. Tarbiyanuvchilar pedagogning bevosita nazoratida ta’lim va tarbiya jarayonida, dam olishda, jamoat ishlarida, o‘z-o‘zini tarbiyalash usullariga ko‘nikma hosil qiladilar, bu usullar o‘quvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqil fikr-mulohaza yuritishga undaydi. Pedagog tarbiya jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniishi mumkin:

- o‘z-o‘zini tahlil qilish va nazorat qilish;
- o‘z-o‘zini baholash (tengdoshlariga taqlid qilish asosida);
- izohlash (o‘quvchining ma’naviy-axloqiy sifatlari izohlanadi);
- munozara (o‘quvchilarga siyosiy, madaniy, estetik, huquqiy mavzularda og‘zaki ta’sir o‘tkazish).

Ixtiyoriylik. Tarbiyanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g‘oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da va ta’lim-tarbiyani yanada takomillashtirishga qaratilgan qator hujjalarda shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga birlamchi e’tibor berilgan. Zero, erkinlik ta’minlangan jamiyatda fikr rivojlanadi, fikr rivojlanishi esa jamiyatning kuchli bo‘lishi garovidir. Erkinlik tufayli

o‘quvchi irodasi shakllanadi, u bir necha imkoniyatlardan birini ixtiyoriy tanlab oladi, ta’lim tizimida o‘quvchilarga ushbu imkoniyatlar yaratilgan, ularning erkinlik huquqlari ta’minlangan.

Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi subyektiv va obyektiv omillar ko‘zga tashlanaadi. Tarbiyachi-pedagog subyektiv omillar asosida Tarbiyalanuvchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobjiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo‘nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, o‘quvchi shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirish borasida pedagog muvaffaqiyatga erishadi. Tarbiyachi-pedagog tarbiya jarayonining ko‘p qirrali ekanligini, uni tashkil etish va boshqarishda nafaqat tarbiyachi faoliyati, balki o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, shaxsiy o‘ziga xos jihatlari, o‘y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligi kerak.

Tarbiyaning uzluksizligi. Tarbiyaning yana bir xususiyati uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur’atda yoki yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o‘zida, turli qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy faoliyat shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Binobarin, yoshlik yillarda insonning asab tizimi yuqori darajada ta’sirchan hamda beqaror bo‘ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi bolalarni o‘quvchilik yillarda to‘g‘ri tarbiya berish lozimligini talab

etadi. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy jarayon bu – o‘qituvchi va o‘quvchilarning birligidagi uzluksiz, tizimli harakatlari yig‘indisidir. Tarbiyalanuvchilarda ijobjiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o‘tkazilishiga erishish lozim.

Ta’lim muassasalarida tarbiyachi-pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati yetakchi o‘rinni egallasalar ham, ba’zan o‘quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta’sir o‘tkaza olmaydi, chunki, Tarbiyalanuvchilar ta’lim muassasalarida ma’lum muddatgina o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri va nazorati ostida bo‘lib, qolgan bo‘sh vaqtining asosiy qismini oilada, ko‘chada, do‘satlari davrasida, har xil tashqi muhitda o‘tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta’tillar davrida o‘quvchilar ta’lim muassasasi pedagogi ta’siridan chetda qoladilar. Demak, ta’lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash vaqt jihatdan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatlardan xoli vaqtda ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining ta’siri hamda nazoratida bo‘lishlari kerak.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish. Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun reja tuzish va uni bajarish tarbiya samaradorligini ta’minlashning asosiy yo‘lidir.

Tarbiyaviy ish rejasida mehnat tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi. Tarbiyachi-pedagog o‘quvchilarning mehnat tarbiyasi rejasini tuzar ekan, o‘quvchilar mehnati ning mashaqqati, charchoq va hordiq haqida aniq tasavvurlarga ega bo‘lishlarini hisobga olishlari kerak. Ota-onalar bilan ishslash bo‘limida oila, maktab tarbiyasini tavsiflaydigan qisqa ma’lumotlar beriladi. Mohir pedagog tarbiyaviy ish rejasiga aniq bir maqsadni qo‘yadi. Dastur asosi-

da quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha alohida tarbiyaviy ishlar rejasи tayyorlanadi:

1. Tarbiyalanuvchilar olamining hayotiy yo‘nalishlarini diqqat bilan o‘rganishi.

2. Xarakteri va xulqidagi og‘ishganlik sabablarini o‘rganishi.

3. Ijobiy yo‘nalishga, o‘zgarishiga ta’sir etuvchi hayotiy ko‘rinishlarni tanlashi.

Ma’lumki, tarbiyalanganlik natijalarini hisobga olish tarbiyalanuvchi xulqida, ularning o‘qish va mehnatga munosabatlaridagi o‘zgarishlarni ifodalaydigan pedagogik o‘lchamdir. Tarbiyaviy faoliyat samaradorligini aniqlash masalasi murakkab masaladir. Hech qachon tarbiya natijalarini o‘tkazilgan tadbirlar, ishtirot etgan tarbiyalanuvchilar soni bilan belgilab bo‘lmaydi. Tarbiyaviy ish samaradorligi tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasi bilan baholanadi.

Tarbiyachi-o‘qituvchi bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini chuqur his etgan holda, vaziyatni hisobga olib mavzu tanlashi, uni tayyorlash va o‘tkazishda o‘quvchilarni keng ko‘lamda jalb etishi, yuksak samaradorlikni ta’milanishi-ga e’tibor berish bilan birga, har bir o‘quvchiniig xohishini hisobga olishi, keskin rad etmasdan, yana o‘ylab ko‘rish, qiziqarliroq, soddaroq yo‘llarini topishing mumkin deb umidvor qilish o‘rinlidir. Tarbiyachi ijodkor bo‘lishi, o‘quvchilarni ham ijodiy faoliyat yuritishga jalb etishi, har bir tarbiyalanuvchida o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilishga ishonch hosil qilishi lozim.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar

1. Jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o‘rnini qanday izohlaysiz?

2. Tarbiya qanday hodisa (ta’rifini keltiring)?

3. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni, maqsadi nima-

lardan iborat?

4. Tarbiyachining tarbiyachilik qobiliyatiga zamin yaratuvchi jarayonlar?
5. Tarbiyachi tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qism-lari?
6. Tarbiya jarayonida ixtiyoriylik nima?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"-gi qonuni. – Toshkent, 2020, 23-sentabr.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, O'zbekiston, 1992. –160 b.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 380 b.
4. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – Toshkent, "O'qituvchi", 1991. – 376 b.

10-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY-MA'NAVIY RUHDA TARBIYLASHDA TARBIYACHINING KASBIY YONDASHUVI

10.1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tashkil etilishi.

10.2. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda tarbiyachiga qo‘yiladigan talablar.

10.3. Bola shaxsini shakllantirishda zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiyalash metodlari, ko‘p qirrali jarayon, obyektiv omillar, subyektiv omillar, tarbiyaning uzlusizligi, tarbiyaviy ish rejasi, tarbiyaviy tadbirlar, tarbiyalanganlik natijalari.

10.1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tashkil etilishi

O‘zbekistonda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimi tashkil etildi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minalash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqildi.⁵

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son

Konsepsiya da maktabgacha yoshdagи bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish vazifasi belgilangan.

Maktabgacha yoshdagи bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumi boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshiriladi. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumi boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish talab etiladi. Bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan natijalarga erishish imkonini beradi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish vazifasi qo'yiladi. Bunda ota-on, tarbiya-

chi, mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni to‘g‘ri tashkil etish orqali mактабгача та’лим муассасаларидаги ма’naviy-ma’rifiy ishlар jarayонидаги балаларда о‘з түйг‘уларини бoshqarish ко‘nikmalari rivojlantiriladi; о‘з xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalari yuzaga keladi; shaxsiy fazilatlar asoslari paydo bo‘la boshlaydi; ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqish paydo bo‘ladi, o‘zini namoyon qilishga intilish boshlanadi; o‘z tengdoshlari orasida muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji tug‘iladi; o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabat paydo bo‘la boshlaydi.

Mактабгача yoshda bola faoliyatining yetakchi turлари – muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar. Mazkur jarayonlarda bola ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalarni egallay boshlaydi.

10.2. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda tarbiyachiga qо‘yiladigan talablar.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Mamlakatimiz Biringhi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta’rif beradi: “Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l, avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zot – o‘qituvchi va murabbiylarning oljanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz ke-

lajagini hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi”⁶.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi - o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq.

Ma’lumki, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Ko‘pchilik yosh o‘qituvchilarda, ta’lim berish mahoratiga qaraganda tarbiyachilik mahoratini egallash jarayoni qiyin kechadi. Albatta buning obyektiv sabablari bor: tarbiya tushunchasi, insonning aqliy imkoniyatlarini rivojlanтирish, axloqan pok, estetik didli, mehnatsevar qilib tarbiyalash omili bo‘lib, ta’lim berish ko‘nikmalarini egallashga qaraganda keng ma’nodagi tushuncha bo‘lganligi uchun doimo ziddiyatlarga va tasodifiy hodisalarga boy. Tarbiya – o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillash tirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyo-

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son

qarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnnini topish uchun zarur bo'lган, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlari asosida ta'sir etib boriladi. Agar ularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniying "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidur" – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladi-ki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

Pedagogning tarbiyachilik faoliyatining mazmunida, oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lган bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. O'quvvchini tarbiya mazmunini shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat

mafkurasi g‘oyalari asosida belgilaydi. Shu bilan birga, tarbiyaviy faoliyat avvalo o‘qituvchining pedagogik mahorati, yuksak tashkilotchilik faoliyatiga ham bog‘liqdir:

1. Pedagogning tarbiyachilik mahorati – o‘quvchilar dunyosiga kirib borishida, ularning mehriiga sazovor bo‘lishida, ta’lim muassasasidagi pedagogik faoliyatni to‘g‘ri va ma’lum bir maqsadga yo‘naltira olishida namoyon bo‘ladi.

2. Pedagogning tarbiyachilik mahorati – bu maktab o‘quvchisini har taraflama rivojlantiruvchi pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri tashkil qila olish malakasidir.

3. Pedagogning tarbiyachilik mahorati – bu “o‘qituchi-o‘quvchi” munosabatini bir zumda ijobiy tomonga hal qilish emas, balki o‘quvchilar jamoasi va alohida shaxsga tarbiyaviy ta’sir etish, jamoada tarbiyaviy muhitni bir maramda tashkil qilishdir.

4. Pedagogning tarbiyachilik mahorati – bu faqat kasbiy bilimlarni mukammal egallash emas, balki tarbiya qonuniyatlarini hamda o‘quvchilar jamoasi hayotini tashkil qilish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan usul va metodlarning amaliyotga tatbiq etishidir.

5. Bilim va unga asoslangan ko‘nikma va malakalar – o‘qituvchi tarbiyachilik mahorati mohiyatining asosi hisoblanadi. Pedagogdan tarbiyachi sifatida intellektual qobiliyatlar tizimiga ega bo‘lish talab etiladi. U tarbiyachi sifatida o‘zida ushbu qobiliyatlarni yillar davomida shakllantirib borishi zarur.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning asosiy mohiyatini shunday ta’riflaydi: “...Ertangi kunimiz, hayotimizning farovonligi, ...ertangi istiqbolimiz, ertangi iqbolimiz baracha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishida, birinchi navbatda bizning o‘rnimizga kelayotgan yosh avlodimizni har taraflama yetuk insonlar qilib tarbiyalashga, voyaga yetkazishga chambarchas bog‘liqdir”.

10.3. Bola shaxsini shakllantirishda zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish.

Bola shaxsini shakllantirishda zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilik mahorati doimiy o‘zgarib turadigan, jamiyat tahlablaridan kelib chiqib shakllantiriladi.

Tarbiyada maqsadning aniqligi. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiyaviy maqsad aniq belgilab olin-gan va bu tarbiyachilar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklangan.

Texnologik tizim yoki tarbiya texnologiyasi bu pedagogik metod, usul va vositalarni rejali va kutilgan natijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko‘rsatadigan jihatlarini tanlash tizimidir. Bu tarbiyachi-o‘qituvchining amaliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qila olishi va boshqarishining ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishidir. Texnologik jarayon natijalaridan asosiy maqsad, tarbiyachi ijodiy izlanishlar tufayli, o‘quvchilar tashabbuskorligini ta’minlaydi. Tarbiyachi-o‘qituvchining o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarish uyushmalar bilan hamkorlikda ishlashi natijasida murakkab masalalarni hal qilish uchun vaqt ajratadi. Texnologik tizimda tarbiyaviy ahamiyatga ega tadbirlarni muvaffaqiyatlari uyuştirish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Uyushqoqlik bilan o‘tkazilgan tadbirlar o‘quvchilarning aqliy rivojlanishini, bilish tafakkurini, kasb tanlashga nisbatan qiziqishini, erkin fikrlashlarini, o‘z fikr mulohazalarini cho‘chimasdan to‘g‘ri tasavvur bilan bayon etish tushunchalarini shakllantiradi.

Tarbiyachi-o‘qituvchining mahorati har bir o‘quvchi ga alohida yondashuv imkoniyatlarini topish, o‘quvchi iste’dodida namoyon bo‘ladigan holatlarda uning faolligini oshirishga qaratiladi. Tarbiyachi-o‘qituvchi tomonidan

uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlarga qo‘yiladigan asosiy talablar: tarbiyaviy tadbirlar hech qachon tasodifiy bo‘lmasligi va har bir tadbirga puxta tayyorgarlik ko‘rilishi lozim.

Ijtimoiy psixologik tizim. Tarbiyachining mahorati – bu tarbiyalanuvchilarni ma’lum bir maqsadga muvofiq tarbiyalash uchun mo‘ljalga olish san’atidir. Bolalarlar har kuni quvonchli daqiqalarni, katta va kichik ko‘ngilsizliklarni bирgalikda boshdan kechiradilar. Ular tarbiyachi-pedagogning o‘zlariga nisbatan yaxshi va yomon, yoki insoniy munosabatlarini tez ajrata oladilar va bunga darhol o‘z “javoblarini” qaytaradilar. Ijtimoiy psixologik bilim va malakaga ega bo‘lish tarbiyachi-o‘qituvchida uddaburonlikni va sezgirlikni shakllantiradi.

Estetik tizim. Agar tarbiyaviy vosita, usul va metodlar orqasida yetakchi g‘oya turmasa, texnologik tizim va ijtimoiy psixologik munosabatlar tizimi maqsadli tarbiyaviy natijalar bermaydi. Tarbiyachi-pedagogning har bir harakati, bolalarning estetik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi faoliyati hayotiy me’yor va qadriyatlar asosida olib borilishi kerak, shundagina, o‘quvchining tarbiya jarayonidagi faolligi ta’milnadi. Dunyoqarashi hali to‘la-to‘kis shakllanmagan o‘quvchilar uchun o‘qituvchining hayotiy tajribalari, shaxsiy namunalari ham estetik tarbiyaviy ta’sir kuchiga egaligini unutmaslik kerak.

Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi subyektiv va obyektiv omillar ko‘zga tashlanadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo‘nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, o‘quvchi shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirish borasida o‘qituvchi muvaffaqiyatga erishadi. Tarbiyachi-pedagog tarbiya jarayonining ko‘p qirrali ekanligini, uni tashkil etish va boshqarishda nafaqat tarbiyachi faoliyati, balki o‘quvchining yosh

va psixologik xususiyatlari, shaxsiy o‘ziga xos jihatlari, o‘y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligi kerak.

Tarbiyaning uzlusizligi. Tarbiyaning yana bir xususiyati uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur’atda yoki yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsnii tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o‘zida, turli qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy faoliyat shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Binobarin, yoshlik yillarda insonning asab tizimi yuqori darajada ta’sirchan hamda beqaror bo‘ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi bolalarni o‘quvchilik yillarda to‘g‘ri tarbiya berish lozimligini talab etadi. Tarbiyachi-pedagoglarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzlusiz o‘tkazilishiga erishish lozim.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish. Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun reja tuzish va uni bajarish tarbiya samaradorligini ta’minlashning asosiy yo‘lidir. Tarbiyachi-pedagogning tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi – ijodiy jarayon. Tarbiyaviy ish rejasida mehnat tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi.

Ma’lumki, tarbiyalanganlik natijalarini hisobga olish o‘quvchilar xulqida, ularning o‘qish va mehnatga munosabatlaridagi o‘zgarishlarni ifodalaydigan pedagogik o‘lchamdir. Tarbiyaviy faoliyat samaradorligini aniqlash masalasi murakkab masaladir. Hech qachon tarbiya natijalarini o‘tkazilgan tadbirlar, ishtirot etgan o‘quvchilar

soni bilan belgilab bo‘lmaydi. Tarbiyaviy ish samaradorligi tarbiylanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasi bilan baholanadi.

Tarbiyachi ijodkor bo‘lishi, tarbiylanuvchilarni ham ijodiy faoliyat yuritishga jalb etishi, har bir tarbiyalanuvchida o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilishga ishonch hosil qilishi lozim.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tashkil etilishi.
2. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda tarbiyachi-ga qo‘yiladigan talablar.
3. Bola shaxsini shakllantirishda zamonaviy tarbiya texnologiyalarini izohlang?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy-ma’naviy ruhda tarbiylashda oila bilan hamkorlik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi. – T. Xalq so‘zi. 2021. 20-yanvar.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 107 b.
3. Boymurodova G. O‘qituvchilarning kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirishda interfaol yondashuvning o‘rni // Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2008. №1, – B - 44-47.
4. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talab-lari. - T.: 2018.

11-BOB. TARBIYACHI SHAXSIGA QO‘YILA-DIGAN TALABLAR VA TARBIYACHI SHAXSINI TAYYORLASH TIZIMI.

11.1. Hozirgi zamon tarbiyachisi shaxsiga qo‘yiladigan talablar.

11.2. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasiga kadrlar tayyorlash tizimi.

11.3. Tarbiyachilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

11.1. Hozirgi zamon tarbiyachisi shaxsiga qo‘yila-digan talablar.

Dunyo ta’lim tizimida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga qo‘llashni va keng ko‘lamli axborotlardan foydalishda tezkorlikka erishishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtida maktabgacha ta’lim sohasida kechayotgan yangilanishlar malakali mutaxassislarni doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash va ularni doimiy o‘zgarib turuvchi nostandard sharoitlarda amaliy faoliyatga innovatsion tayyorligini ta’minlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish” kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini modernizatsiya qilish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarning mala-

kaviy bilimlarini doimiy yangilashga qulay shart-sharoit yaratish, malaka oshirish orqali ta'lim mazmuni sifat va samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim tizimining faoliyatini tubdan takomillashtirish yuzasidan bir qator Qaror va Farmonlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “...zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jaryoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish” masalalari belgilab berilganligi, maktabgacha ta'lim tizimini uzlucksiz ta'limning boshlang‘ich shakli sifatida e’tirof etilganligi, tizimga nisbatan qo‘yilgan vazifalarning bajarilishida alohida ahamiyatga ega ekanligiga e’tibor qaratish lozimligini belgilaydi.⁷

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va ustuvor yo‘nalishlarni yaxshi bilishi lozim. Shuningdek, mehnat faoliyatini tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatidan xabardor bo‘lishi tablab etiladi. Pedagogika, maktabgacha pedagogika, bolalar psixologiyasi, yosh davrlar psixologiyasi, fiziologiya va gigiyena fanlaridan chuqr bilimga ega bo‘lishi,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017, 6-son, 70-modda.

ta’lim-tarbiyaning samarali usullari, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni mukammal bilishi tarbiyachi-ga o‘z kasbining malakali mutaxassisini bo‘lish imkonini beradi.

11.2. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasiga kadrlar taylorlash tizimi. Bugun o‘qitishning tejamkorligi va oqilonaligi, o‘qituvchi, texnika va texnologiya, ta’lim iqtisodiyoti, o‘qitishni kompyuterlashtirish haqida tez-tez gapirilmoqda. Prezidentimizning bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish darajasini bugungi 34 foizdan 2019-yilda 44 foizga yetkazamiz⁸, degan qat’iy da’vatlari-da oliy ta’lim tizimidan boshlab malakali mutaxassislarni tayyorlash, kadrlar malakasini oshirish sifatini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yangiliklardan oqilona foy-dalanish jamiyatning yashovchanligini ko‘p jihatdan belgilab berishi ko‘zda tutilgan.

Oliy ta’lim muassasalarini va malaka oshirish tizimi o‘rtasidagi ta’lim-tarbiya jarayoni uzviyiligini ta’minlashda, davalat talablari, namunaviy va ishchi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishdagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratish lozim.

Tarbiyachilarning malakasini oshirish va qayta taylorlash.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlar malakasini oshirish tizimini ijtimoiy talablarga mos holda, ta’lim jarayonlariga pedagogik texnologiyalarni joriy qilish orqali tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikada keyingi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan alohida e’tibor va mazkur yo‘nalish-

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-fevral “Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarini xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to‘lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ShARH. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2018.

da qabul qilingan bir qator hujjatlar soha pedagoglari malakasini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi.⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "...zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lif muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish, ta'lif-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lif dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish" masalalari belgilab berilganligi, maktabgacha ta'lif tizimini uzuksiz ta'lifning boshlang'ich shakli sifatida e'tirof etilganligi, tizimga nisbatan qo'yilgan vazifalarning bajarilishida alohida ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratish lozimligini belgilaydi.

Dunyo ta'lif tizimida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatlari yakunlanishi yuqori samaradorlikka ega bo'lgan o'qtish texnologiyalarini ta'lif jarayoniga qo'llashni va keng ko'lamli axborotlardan foydalananishda tezkorlikka erishishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtida maktabgacha ta'lif sohasida kechayotgan yangilanishlar malakali mutaxassislarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va ularni doimiy o'zgarib turuvchi nostandard sharoitlarda amaliy faoliyatga innovation tayyorligini ta'minlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda, natijada ko'shimcha, noan'anaviy, parallel mustaqil ta'lif tizimlarini yaratishga ehtiyoj tug'dirmoqda.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2017.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish” kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini modernizatsiya qilish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarning malakaviy bilimlarini doimiy yangilashga qulay shart-sharoit yaratish, malaka oshirish orqali ta’lim mazmuni sifat va samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta’lim tizimining faoliyatini tubdan takomillashtirish yuzasidan bir qator Qaror va Farmonlar qabul qilindi.

Maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o‘quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori qabul qilindi.

Quyilgan maqsadlar asosida:

- maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish;
- bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy negizini mustahkamlash va boyitish;
- o‘quv-uslubiy ishlarni takomillashtirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun esa maktabgacha ta’lim tashkilotlari-da faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning malaka oshirish mazmunini tubdan isloh qilish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

11.3. Tarbiyachilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlar malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, ilg‘or xorijiy tajribalarni mamlakatimizdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida qo‘llash yuqorida e’tirof etilgan vazifalar yechimini hal etishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etilgan.

Ustavi qabul qilindi. Mazkur Ustavda:

- o‘quv tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish hamda maktabga o‘qishga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash orqali bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olishni tubdan oshirish;

- maktabgacha ta’lim tizimi pedagog xodimlarini malakasini oshirishni rivojlantirish istiqbollarini prognozlashtirish, davlat dasturlari va variativ dasturlarni ishlab chiqish belgilab berilgan.

Tajriba va kuzatuvlarimiz ko‘rsatadiki, ta’lim dasturlarining uzlusizligi va izchilligini hisobga olgan holda “Vebinar”, “Teskarilangan sinf”, “Modulli kredit tizimi” kabi o‘qitishning interaktiv usullaridan foydalanish orqali maktabgacha ta’lim pedagog xodimlari malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv rejalarini va dasturlarni, o‘quv metodik va normativ hujjatlarni ishlab chiqish ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi va yetaklovchi funksiyani bajaradi.

Malaka oshirish kurslarida yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish asosida tarbiyachi-pedagoglarning innovatsion kompetentligi rivojlantiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari kompetentliligin xalqaro standartlarga mos takomillashtirish pedagogik faoliyatda muhim ahamiyat kasb etib, innovatsion pedagogik infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari ning malakasini oshirish jarayonida tinglovchilarga ijodiy seminarlar, kastinglar, master-klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va tinglovchilarni hamkorlikdagi tad-qiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tad-qiqotchilik faoliyatini tashkil etish, boshqarish sohasidagi zaruriy ko’nikma va malakalarni rivojlantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlaring malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlari samaradorligini oshirishda o‘quv-metodik resurslari mazmunini motivation, zamonaviy universal ta’lim, integratsion yondashuv, xalqaro hamkorlik tamoyillari asosida optimallashtirish ustuvor o‘rin egallaydi: Shuningdek:

- insonparvarlik tamoyili - tinglovchilarga olijanoblik, mehribonlik va iltifot qilish, o‘zaro munosabatlarda andishasizlik va qo‘pollikka yo‘l qo‘ymaslik, yuksak talabchanlik va qat’iylikni ularning shaxsiy qadr-qimmatiga hurmat bilan uyg‘unlashtirish;

- demokratik yondashuv tamoyili – darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, ta’limning samarali usul, tashkiliy shakl va ta’lim vositalarini tanlashida alohi-da urg‘u berish, tinglovchilarning fikr-mulohazalarini bayon etish imkonini yaratish;

- yaxlit yondashuv tamoyili - tinglovchilarni fiziologik va ruhiy, g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy va ma’naviy jihatdan o‘z-o‘zini anglashi asosida;

- tabaqalashtirilgan yondashuv – tarbiya jarayonidagi obyektlarning individualligini hisobga olgan holda, tarbi-

yavyi ish mazmuni, shakl va metodlari, vositalarining tanlab olinishi;

- pedagog va ta’lim oluvchilarni yagona maqsad asosida birlashtirish tamoyili.

Ta’limiy-tarbiyaviy yondashuv – tinglovchilar o‘z faoliyati davomida bilishi kerak bo‘lgan shaxs masalasi, uning yosh xususiyatlari, unga ta’lim-tarbiya berish, ta’lim beruvchining qobiliyatları va mahoratini shakllantirish, ta’lim va tarbiyaning psixologik qonuniyatları, ta’limning zamonaviy usullari, turli-tuman axborotlarni qabul qiluv-chilarning individual-psixologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda profilaktik ishlarni amalga oshirish kabi tamoyillarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Tarbiyachilar malakasini oshirishda tarbiyachilarga quyidagi talablar qo‘yilishi samarali natijalarga erishilishi shini ta’minlaydi:

- raqamli axborot vositalari (kamera, internet) yordamida loyiha ishlarini tashkil etish;

- internet va tegishli dasturiy ta’minotlardan samarali foydalanish;

- hamkasblar bilan birgalikda internetdagi mavjud vositalardan qanday foydalanishni o‘rganish (masalan, mobil telefonlar, interfaol taxtalar va boshqalar);

- Onlayn mashqlarni, veb va kompyuter dasturlarini, internet-platformalarni va ularning ilovalarini tanlash va ulardan foydalanish malakasiga ega bo‘lish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishda ta’lim va amaliyotning integratsiyalashgan holda uzlusizligini ta’minlash, o‘quv metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli o‘qitish usullari va treninglarini joriy etish orqali tashkil etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro uzviyligi; ta’lim mazmuni uzviyli-

gi, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviyilgi, ta’lim metodlari hamda shakllarini qo‘llashdagi uzviyilik, tinglovchilarning o‘zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviyilikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Hozirgi zamон tarbiyachisi shaxsiga qo‘yиладиган та-
лаблар qо‘yiladi?
2. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimiga kadrlar
taylorlash tizimi qanday tashkil etilgan.
3. Tarbiyachilarning malakasini oshirish va qayta
tayyorlash tizimi qanday tashkil etiladi?

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-in-
tizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining
kundalik qoidasi bo‘lishi kerak/ Mamlakatimizni 2016-yil-
da ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va
2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim
ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining
kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. – T.: O‘zbekiston.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil
29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim
tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi-
da” PQ-2707-son qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun
hujjatlari to‘plami, 2017-yil 9-yanvar, 1-son, 11-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil
9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan tako-
millashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3261-son qa-
rori. // “Xalq so‘zi” gazetasining 2017-yil 11-sentabrdagi
181 (6875)-soni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-son farmoni. // www.lex.uz

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3305-son qarori. // www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017, 6-son, 70-modda.

6. Raximova S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish. Ped.fanlari bo‘yicha falsafa dokt. ... disser. – Toshkent, 2020. – 160 b.

7. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika o‘quv qo‘llanma, T.; 2013.

12-BOB. PEDAGOG - TARBIYACHINING NUTQ MADANIYATI

- 12.1. Nutqning asosiy xususiyatlari.
- 12.2.Tarbiyachi nutqining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 12.3.Tarbiyachi nutq madaniyatini rivojlnatirish mexanizmlari.
- 12.4.Tarbiyachining nutq texnikasini egallash yo‘llari.

12.1. Nutqning asosiy xususiyatlari.

Pedagogik faoliyatda nutq texnikasini mukammal egalash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida o‘qituvchi bolaning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi, o‘quvchilar bilan ongli muloqotni ta’minlaydi, ta’lim-tarbiyaga oid ma’lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi, avvalo, nutq sirlarini, uning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotda ta’sir kuchini puxta bilishi kerak. Nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to‘g‘ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo‘lishidir. Nutqning quyidagi asosiy xususiyatlari ushbu talablardan kelib chiqadi¹⁰:

Nutqning to‘g‘riligi va ravonligi uning adabiy til normalariga to‘g‘ri kelishidir. Bunda ikkita jihatga e’tibor beriladi: urg‘u va grammatik normalarga amal qilinishi.

Urg‘u – so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz etilishini ta’minlaydi.

Grammatik norma – nutqning mazmundorligini, ma’noli ekanligini bildirib, nutq oqimidagi so‘zlarning o‘zgarishi, mazmunan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig‘indisidir.

¹⁰ A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. – Toshkent, Iqtisod-moliya, 2010, 367 b.

Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi – mazmundor nutqning tinglovchiga ta'sir etish omilidir. O'qituvchi so'z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida o'quvchilarga bilim beradi, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'qituvchi nutqining aniq bo'lishi, o'z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniqlik, o'rganilayotgan mavzuning o'qituvchi tomonidan ifodalananayotgan voqelikka, faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda o'qituvchi so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, o'zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.

Nutqning mantiqiyligi – nutqning mantiqiy bo'lishi, eng avvalo, o'qituvchining so'z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi tilni juda yaxshi bilishi, so'z boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o'zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. So'zlarning o'qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to'g'ri ifodalanshi, so'z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to'g'ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun bo'ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligidan dalolat beradi. O'quvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy bog'lanish, izchillik yo'qolishi bilan o'qituvchi nutqining mantiqiyligiga putur yetadi.

O'rganilayotgan mavzu matnlari o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lish uchun, matnlar boshlanma bilan ajratiladi (*masalan, xulosa qilib aytganda; shu bilan birga; ta'kidlash lozimki va hokazo*). Demak, o'qituvchi nutqining mantiqiyligi deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo'lган, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatalidigan nutq tushuniladi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi – O'qituvchi nutqining tozaligi, avvalo, uning adabiy til lisoniy normalariga

muvofig ifodalananishi bilan belgilanadi. O‘qituvchilarning chiroli va mazmunan boy nutqi hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo‘lishi, g‘ayriadabiy til unsurlaridan holi bo‘lishiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo‘lishiga xalaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma’lum bir badiiy-estetik vazifani bajarsa-da, o‘qituvching dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak. O‘qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so‘z va iboralarni noo‘rin ishlatishi o‘z nutqining notabiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo‘ladi. Natijada o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasida o‘qituvchi tomonidan ishontirish metodi orqali qo‘llaniladigan fikrlar mukammal bayon etilmaydi.

Nutqning tozaligi, uning turli sheva so‘zlaridan xoli bo‘lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishidir. Til vositalari vaziyatga qarab ishlatilgan, siyqa so‘z va iboralarsiz hosil bo‘lgan o‘qituvchi nutqi tabiiy va samimiyo bo‘ladi, tinglovchi va o‘quvchilarning qalbiga tez borib yetadi.

Til va nutq. Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq, talaffuz, urg‘u, so‘z ishlatish, gap tuzish qonuniyatlarni chuqur bilmoxdir. Shuningdek, tilning tasviriy vositalari har xil sharoitlarga mos, maqsadga muvofig bo‘lishi kerak. Nutqda til – fikr almashish quroli, o‘qituvchi qalbining oyinasi, o‘qituvching dars berish uslubini, pedagogik mahoratini to‘liq namoyon qiluvchi vosita. Nutqda – tildagi rang-barang vositalar o‘z ifodasini topsa, bunday nutq – boy nutqdir.

Til va nutq azaldan bir-biri bilan chambarchas bog‘langan vositalardir. Nutq qaysi tilda aytmasin, o‘sha millat tilining qonun-qoidalari asosida ro‘yobga chiqadi. Biroq ular bir-biridan farqlanadi.

Til – nutq uchun moddiy material. Shu material asosida nutq tashkil topadi.

Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo‘lib, ikki xilda namoyon bo‘ladi:

- ichki nutq;
- tashqi nutq.

O‘qituvchi ongida hosil bo‘ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og‘iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o‘yashi **ichki nutqdir**.

O‘qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta’siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq – **tashqi nutq** bo‘lib, u ijtimoiy hodisadir.

1. O‘qituvchi nutqiy faoliyati: so‘zlash, mutolaa qilish va eshitishdan iborat. Nutq hodisasi monolog, dialog, polilog, deklamasiya hamda ayrim tekst va kitob shaklida bo‘lishi mumkin. Nutq maxsus belgilangan tartibda o‘zining hajmi bilan notiqqa havola etiladi.

Til hodisasi fonemalar tizimida, morfemalarda, sinonimiya, omonimiyalarda, mavjud grammatik qoidalarida, murakkab terminlar va frazeologik iboralarda namoyon bo‘ladi.

Til xatosida so‘zning ma’nosi keskin buzilishi mumkin (Masalan: sof-sop, tif-tip, fan-pan, dil-til, nufuz-nufus, servis-serviz, xo‘p-xo‘b).

Nutq xatosidagi buzilishlar ko‘pincha faqat akustik tomonidan o‘zgaradi (fikr-pikr, fabrika-pabrika, safar-sapar kabilar).

Til va nutq hodisalarining qonun-qoidalarini mukammal bilish, uning qoidalariga doimo rioya qilish, obyektiv sharoitda tinimsiz mashg‘ulotlar olib borish – o‘qituvchining til sofligi, nutq madaniyati va odobi masalalariga oqilona yondashishiga olib keladi.

12.2. Tarbiyachi nutqining o‘ziga xos xususiyatlari

Tarbiyachining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyat muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda avvalo milliy istiqlol mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Mafkuramizning yuksak ustunlaridan biri — millat tilidir. Respublikamizning “Davlat tili haqida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari barkamol avlod tarbiyasida o‘z ona tiliga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish e’tirof etilgan. Yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasida tarbiyachining nutqi, uning notiqlik san’ati alohida e’tibor kasb etadi. Tarixchi olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, notiqlik san’atiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solingan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilar edi. Ular, notiqlik san’atining yetuk namoyondalarini bo‘lib, o‘zlarining chirolyi so‘zlari, baland va ta’sirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta’lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san’ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me’morchilik san’atlari bilan birga notiqlik san’ati ham murakkab va muhim san’at asari sifatida e’tirof etilgan. Notiqlik san’atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg‘in ta’sir etuvchi murakkab vosita ekanligi uchun Yunonistonda uni “San’atlar shohi” deb atashgan.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda “Notiqlik san’ati”ning eng takomillashgan va rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda notiqlik san’atining quyidagi uchta qonuniyati qizg‘in takomillashtirilib, notiqning unga jiddiy e’tibor berishi talab qilingan:

- tinglovchiga tushuntirish (ma'lum bir g'oyani);
- tinglovchining tafakkurini uyg'otish (fikrini, ongini, maqsadini);
- tinglovchini o'ziga jalb qilish (huzur-halovat va qoniqish hissini uyg'otish asosida).

Notiqlar ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda “*tinglovchilarga halovat bag'ishlash*” orqali odamlarni ezbilikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchlariga sadoqatli bo'lishga, eng yaxshi insoniy fazilatlarga amal qilib, ularni doimo bajarishga, odob va axloq qoidalariга rioya qilishga chorlar edilar. Bu ularning asosiy vazifasi hisoblanardi. Yunonistonda notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari hamda noyob asarlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Sokrat (Suqrot), Platon (Aflatun), Dinarx, Giperid, Gorgiy (Horgiy), Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen, Siseron, Kvintilian kabi namoyandalar Yunonistonning mashhur davlat arboblari bo'lib etishganlar.

Yunon notiqlari og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmining qoidalarini chuqur o'zlashtirganlar. Ular o'z fikrlari va tuyg'ularini ruhan o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir notiq o'z ustida yillab tinimsiz mashg'ulotlar olib borGAN, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'zlarining ta'sirchan nutqlarini namoyish qilish bilan notiqlik san'atini “*Mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli*” deb hisoblaganlar va buni o'z faoliyatlarida isbotlab bergenlar.

Mashhur yunon faylasufi *Sokrat* (eramizdan avvalgi 469 — 399-yillar) o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda munozara, savol-javob usulini joriy qilib, ushbu usul orqali suhbat metodiga asos solgan.

Sokratning shogirdi Platon esa o‘z ustozи g‘oyalarini davom ettirib, savol-javobni notiqlik san’atining bir shakli sifatidagi ahamiyatini o‘z asarlarida yoritadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og‘zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholab, uni mazmunan amaliy va nazariy jihatdan yanada boyitdi.

Yunonistonda notiqlik san’atining har tomonlama takomillashishi *Demosfen* (eramizdan avvalgi 384—322-yillar) nomi bilan uzviy bog‘langan. U yoshlik yillardanoq notiqlik san’atiga qiziqdı. Tug‘ma duduq bo‘lishiga qaramasdan, o‘quvchi va tinglovchilarining istehzolariga bardosh berib, qizg‘in va shiddatlı mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san’atining etuk namoyandası, ya’ni o‘z davrida “*notiqlik san’atining elitasi*” sifatida mashhur bo‘ldi. U davlat tribunasini notiqlik san’atiga asoslangan siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

Demosfenning notiqlik san’ati to‘g‘risidagi g‘oyalarini uning shogirdi faylasuf, notiq va siyosiy arbobi *siseron Mark Tulliy* (eramizdan avvalgi 106—43-yillar) davom ettiradi. Qadimgi Yunonistonda nutq mahorati, uni takomillashtirish yo‘llari, nazariyası va tarixi bo‘yicha o‘z tajribalaridan kelib chiqib Siseronning 19 ta asari, 800 dan ziyod maktublari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Siseronning notiqlik san’ati tarixiga bag‘ishlangan “Brut”, “Notiqlik san’ati namoyandalari”, “Notiq”, “Notiqlik haqidagi” kabi asarlari shular jumlasidandir. Notiqlik san’atining ulkan imkoniyatlarini, odamlarni va jamiyatni boshqarishda qudratli quroq ekanligini ta’kidlab, uni davlatning siyosiy jihatdan bosh quroli deb hisoblaydi. Shu sababli har bir davlat rahbari va davlat arbobi notiqlik san’atining cheksiz imkoniyatlarini chuqr egallashi lozimligini aytadi. Siseronning notiqlik san’ati nazariyasida “Ideal notiq” haqidagi g‘oyalari muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha,

“Ideal notiq egasi yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimga ega, tafakkuri boy faylasuf bo‘lishi kerak.” Ideal notiqlar tinglovchilar qalbiga va his tuyg‘ulariga tez, chuqur kirib borishi, ularning kayfiyatini, ruhiyatini bilib, shodlik va sevinch tuyg‘ularini, yoki aksincha, g‘azab va nafratini ta’sirchan nutqi asosida uyg‘ota olishi lozim.

Siseron tomonidan ishlab chiqilgan va nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan notiqlik san’ati haqidagi ma’lumotlarni, tizimlar va uslublarni rimlik *Kvintilian* (eramizdan avvalgi 35-95-yillar) ma’lum bir tartibga keltirib, tabaqalashtirib, undan notiqlik san’ati sohasi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatuvchilar unumli foydalanishlari uchun qayta ishlab chiqadi. U notiqlik san’atining balandparvoz, asabga teguvchi teatr artistlariga xos ovoz ritorikasiga qarshi edi. Kvintilianning fikricha, notiq tashqi ovoz natijalari bilan emas, balki ilmiy asosga ega bo‘lgan, mazmunan boy, mukammal va “tiniq” nutq orqali ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. U “Tarbiya haqida” nomli asarida o‘z nazariyalariga asoslanib, notiqlik san’atini o‘rganish metodikasini yaratdi. Faylasuf olim o‘z asarida ilk bor notiqlik san’atining ta’lim-tarbiya maskanlarida bolalar bilimi, ongi va tafakkuriga ijobiy ta’siri haqidagi g‘oyalarini ilgari surdi. Kvintilian o‘qituvchilar va tarbiyachilarning qizg‘in faoliyat olib borishlari uchun notiqlik san’atini mukammal o‘rganishga doir o‘zining metodikasini taqdim etdi. Ushbu metodika notiqlik san’ati tarixida ulkan ahamiyatga ega va hozirgi davrda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

12.3. Tarbiyachi nutq madaniyatini rivojlanatirish mexanizmlari.

Nutq madaniyatı – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir. Nutq madaniyatı adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz

o‘qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o‘qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyatni, uning nafaqat ma’naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me’yordir. O‘qituvchining nutq madaniyatni bordaniga shakllanib maromiga etadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajriba-li ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O‘qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o‘qituvchining shijoatiga bog‘liq. Shu qibiliyat tufayli o‘qituvchining nutq madaniyatni ham shakllanib boradi. Quyidagi o‘qituvchining nutq madaniyatiga xos bo‘lgan vositalarni unutmasligi kerak:

1. Nutq madaniyatni o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko‘rsatuvchi, o‘z ona tilimizga e’tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.
2. Nutq madaniyatni o‘qituvchilarni ma’naviy va madaniy saviyasi bilan, hamda adabiy tilni mukammal biliishi bilan boshqa kasb egalaridan ma’lum ma’noda ajratib turadi.
3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo‘lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo‘lib etishishidan qat’iy nazar ma’naviy jihatdan tarbiyalash.
4. Nutq madaniyatni – bu avvalo, o‘qituvchilarda nutqiy ko‘nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko‘nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qibiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o‘zbek adabiy tilini mukammal egallahash asosida erishiladi. Buning uchun o‘qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o‘qib borishi, she’rlar yod olishi va uni deklamasiya bilan o‘qiy olishi, radio va televide niye eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallahshning yana bir ko‘rinishi nutqiy taqlid bo‘lib, yosh o‘qituvchilar o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma’noli va ta’sirchan nutq so‘zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san’atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o‘rganishi mumkin.

Nutq madaniyatining va notiqlik san’atiga umumiyligi, o‘xshash tomonlari bor. Har ikkala soha til va nutq, insон nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi o‘qituvchi nutqiy faoliyatining ta’sirchan, chirolyi bo‘lishi uchun zarur hodisa bo‘lib, uning nutqiy madaniyatini o‘stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik san’ati kabi nutqning ma’noliligi, nutqiy go‘zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlanadi.

Ba’zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san’ati og‘zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san’atdir.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba’zi o‘xshashlik, umumiyligi tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida ko‘rinishi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O‘qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba’zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar:

1. Nutq madaniyati, chinakam ma’noda adabiy til bilan bog‘liq hodisadir. Uning paydo bo‘lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bog‘liq. Notiqlik san’ati uchun bular asosiy belgilar emas.

Notiqlar orasida adabiy til talablariga to‘la amal qilmaydiganlar, ma’lum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik san’atini namoyish qilib, kishilar qalbiga qizg‘in ta’sir qiluvchi kishilar uchraydi. So‘zga chechanlik, notiqlik, til materialining xarakteriga qarab emas, balki, notiqning chinakam so‘z ustasi ekanligiga, tinglovchilarni o‘ziga jalgan etishida, ta’sirchan nutqiy san’atiga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik – bu nutqning og‘zaki shakli. Notiqlik san’ati og‘zaki nutq san’atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og‘zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli bo‘lgan tushunchalardir.

3. Nutq madaniyati jamiyat a’zolarining umumiyligi nutqiy faoliyatini nazarda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi va pirovard orzusi yosh avlod nutqini madaniylashtirishni mo‘ljallaydi. Chin ma’nodagi notiqlik san’ati esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini va san’atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan nutq vositasida o‘qituvchilar jamiyat talablari asosida yosh avlodga muayyan ta’lim va tarbiya beradi, yuqori malakali, raqobatbardosh, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlaydi.

4. San’atkor notiq nutqi, asosan, ko‘pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Notiqni bir kishidan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

5. O‘qituvchilar adabiy tilning keng imkoniyatlari va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariiga javob beradigan tajribali notiq bo‘lishi mumkin. Biroq hamma o‘qituvchi ham san’atkor ma’nosidagi mukammal notiq bo‘la olmaydi. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir o‘qituvchi nutq madaniyatidan xabardor bo‘lishi shart.

6. Nutq madaniyati ko‘pchilikka mo‘ljallangan, ma’lum bir maqsadni ko‘zda tutib ish ko‘rvuchi soha. Bu ma’noda

u keng omma uchun mo‘ljallangan talabdir, ammo notiqlik – shaxsiy qobiliyatdir.

7. Nutq madaniyati – bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya’ni adabiy tilni va uning normalarini o‘rganish va bu normalarni qayta ishlash ishi bilan ham shug‘ullanadi. Notiqlik san’ati esa bunday ilmiy – normativ faoliyatni ko‘zda tutmaydi.

8. Notiqlik, ko‘proq nutqning mazmunini, mantiqiylarini, mundarijaviy tuzilishini e’tiborga oladi, nutq madaniyati esa, nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga e’tibor qiladi.

9. Notiqlik san’ati notiq uchun oldindan qanday so‘zlash tizimi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a’zolarini ona tili, ya’ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosi talabiga ko‘ra o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini beradi. Bunday ko‘nikma, aslida har qanday san’atkor notiq uchun ham zarur.

10. Notiqlik san’ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida muntazam yangilanib boradi.

O‘qituvchi nutqining ta’sirchanligi va ifodaliligi. O‘qituvchi nutqining ta’sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to‘g‘rilik va aniqlik, mantiqiylilik va tozalik tinglovchiga ta’sir etish uchun yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosan, o‘qituvchining og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo‘ladigan ruhiy vaziyat e’tiborga olinadi. Ya’ni notiq-o‘qituvchi o‘quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o‘z nutqining o‘quvchi-

lar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchilar jo‘n, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma‘lumotiga ega bo‘lmagan yosh o‘qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq—o‘qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo‘lgan har qanday fikrini to‘laligicha o‘quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo‘yiladi.

O‘quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o‘qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasি bo‘lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o‘zaro bog‘lab, o‘quvchilarni avvalo nutq rejasи bilan tanishtirib, so‘zni boshlash lozim. Vaqtни hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so‘zlash muddati oldin e’lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo‘lsa, sal oldinroq tugatilsa, o‘quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta’sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma‘lum ma’noda nutq sifatlari haqida aytilgan gaplariga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko‘rsatib o‘tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta’sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o‘quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo‘llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, humor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzlusiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o‘quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo‘yishi mumkin. Shunday paytda, humor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o‘qituvchiga juda qo‘l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda

keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o‘quvchi ham dam oladi, ham o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba’zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to‘g‘riligini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiiste’mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalaridan, hikmatli so‘zlardan, tildagi ifoda – tasvir vositalaridan nutqda o‘rni bilan foydalanish ham ijobiy natijalarga erishishni ta’mindaydi.

Nutqning o‘quvchilarga qanday ta’sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o‘qituvchining nutqiy jarayon davomida o‘zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o‘rni bor. Samimilik, xushmuomalalik, odoblilik, o‘quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o‘quvchilar tomonidan e’tibor bilan tinglanishiga sabab bo‘ladi.

Mukammal notiqlik san’atiga ega bo‘lish – o‘qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o‘tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o‘quvchilarda his-tuyg‘u va qiziqish uyg‘otishi, uning e’tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo‘lishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi, adabiy talaffuz qoidalariга bo‘ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o‘rganilayotgan bilim o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o‘qituvchilardan tinimsiz izlanish va o‘z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

12.4. Tarbiyachining nutq texnikasini egallash yo‘l-lari.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo‘lib ke’layotgan jarayon. Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqining o‘rinli yoki o‘rinsiz ekanligini belgilashda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘ladi. Demak, u o‘z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o‘quvchilar holatiga qarab tuzishi, o‘zgartirishi, doimo nutqining ta’sirchan chiqishiga e’tibor berishi, o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo‘lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. O‘quvchilar diqqatini jalb etish, o‘rganilayotgan mavzuga ularni qiziqtira olish o‘qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir.

O‘qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo‘lishi, o‘quv materialini talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishi ta’minalash garovidir. Bolalar o‘qituvchi nutqiga juda e’tibor beradilar. Biror harf yoki tovushni noto‘g‘ri aytishi kulgiga sabab bo‘ladi. Bir ohangdagи nutq-tezda charchatadi. Individual suhabat paytidagi o‘qituvchining baland ovozidan o‘quvchi o‘zini aldanayotgandek his etadi. Bu o‘qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg‘otadi. Ayrim mutaxassislar insonning tovushi va uning tembri tug‘ma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o‘zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan nutq texnikasini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab mashqlar kompleksi ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo‘lib, so‘zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma’noli ifodalash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan, bu esa o‘qituvchilarga o‘z so‘zi mazmunini o‘quvchilarga yanada to‘laqonliroq qilib yetkazishga ham imkoniyat beradi.

O‘quvchi hayoti davomida o‘qituvchisining nutqiy xususiyatlarini, o‘quvchilarga murojaat qilish, savollarga aniq va mukammal javob berish usullarini xotirasida saqlaydi. O‘qituvchining nutqi o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umummadaniy emas, balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo‘yiladi. O‘qituvchilar o‘z so‘zlarining mazmuni, sifati va oqibati uchun jamiyat oldida ijtimoiy javobgar shaxsdir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi nutqi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘qituvchi nutqi deyilganda, ta’kidlab o‘tganimizdek o‘qituvchining og‘zaki va yozma nutqi nazarda tutiladi. Yozma nutq va og‘zaki nutq – bu o‘qituvchining gapirish vaqtida tuziladigan nutqi bo‘lib, o‘quvchilar ongiga, istak va motivlariga, his-tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi muhim omillardir. O‘qituvchilar og‘zaki nutqi asosida zarur bo‘lganda o‘z kamchiliklarini tuzatib, korreksiyalab boradi.

Texnik jihatdan nutqiy tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchining nutqi quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- o‘qituvchi va uning tarbiyalanuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabati va mahsuldor muloqotini;
- ta’lim jarayonida bilimni to‘la qabul qilinishi, anglanishi va mustahkamlanishi;
- o‘quvchilar faoliyatiga, ulardagi qobiliyat va iqtidor instinktini shakllantirish maqsadida ongi va hissiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish;
- o‘quvchilarning o‘quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

“Pedagogik nutq texnikasi” tushunchasi o‘qituvchilarning kommunikativ xylqi tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. O‘qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki, o‘qituvchi va o‘quvchi muloqoti uchun emotSIONAL

psixologik muhit yaratishga, ular o‘rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta’sir ko‘rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o‘qituvchining nutqiy nazokati ham ko‘zda tutiladi.

O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi og‘zaki nutqi monologik va dialogik shaklda bo‘ladi. *Monologik nutqning keng tarqalgan shakllari hikoya, maktab ma’ruzasasi, sharhlash kabilardir. Dialogik nutq turlari suhbat, savol - javob shaklida bo‘ladi.*

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun, o‘qituvchining nutqi ma’lum talablarga javob berishi, ya’ni notiqlik mahoratini shakllantirish uchun lozim bo‘lgan kommunikativ sifatlarga javob berishi hamda nutqi bir nechta adabiy normalarga mos kelishi lozim: chunonchi, zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga.

Pedagogik nutqning to‘g‘rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o‘qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Maqsadga muvofiq keladigan pedagogik nutq texnikasi o‘zining mantiqiyligi, ishonchliligi, kuzatuvchanligi bilan bir nechta funksiyalarini bajaradi:

O‘qituvchi nutqining birinchi funksiyasi – o‘rganilayotgan bilimlarni to‘liq holda berilishini ta’minlashdan iboradir. O‘qituvchi nutqining kommunikativ o‘ziga xosligi bilan bilimni o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa mavjud. Nutq buni ta’minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin.

O‘qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o‘quvchining ongi, sezgisiga ta’sir qilishi, ularning fikrlesh faoliyatiga jadallashtirishi kerak.

O‘qituvchi nutqining ikkinchi funksiyasi, o‘quvchining o‘quv faoliyati jarayonida o‘qituvchi nutqi asosida, darsda o‘rganilayotgan bilimlarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

O‘quvchilar, o‘qituvchi nutqini eshita turib qator ope-ratsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko‘rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o‘zidagi bilim bilan unga nisbatan munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish o‘quvchilarni charchatadi. O‘quv – biluv jarayonining samarali bo‘lishiga darsda o‘qituvchilar to-monidan tanlangan kommunikativ xulq uslubi ham ta’sir qiladi. O‘qituvchi ko‘pincha “ovozingni o‘chir”, “jim o‘tir”, “boshingni ko‘tarib o‘tir”, “mashqni tugat”, “ki-tobni yop” kabi norozilikni bildiruvchi so‘zlarni ishlatadi, yoki o‘quvchining mavzu bo‘yicha javobini bo‘ladi, “har doimgidek hech narsa bilmaysan”, “sen bu mavzuni qayer-dan ham tushunarding” kabi pedagogik taktga xos bo‘lmagan so‘zlarni ishlatadi. Bu holat o‘qituvchi bilan o‘quvchi orasidagi munosabatning keskin buzilishiga, o‘quvchilarning darsda faolligini pasayishiga olib keladi.

O‘qituvchi nutqining uchinchi funksiyasi – o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi mahsuldor o‘zaro munosabatni to‘g‘ri ta’minlashdan iborat.

O‘qituvchining nutq texnikasi – o‘qituvchi va o‘quvchilar munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatlari: *o‘qituvchining o‘quvchilarga qanday murojaat qilishi, salomlashishi, talablarni qanday qo‘yishi, qanday ogohlantirishi, xohishini qanday bayon qilishi; nutqining jozibadorligi, chehradagi ifoda, qarashi ham o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatadi.* Darsdan tashqari mu-loqotda bularning ahamiyati yanada ulkan. O‘qituvchining individual muloqot uslubi (qo‘rqitishga asoslangan, tarbi-yaviy ta’sirga asoslangan, do‘stona aloqaga asoslangan), uning psixologik xarakter xususiyatiga ham bog‘liq.

O‘qituvchi nutq texnikasining xususiyati – avvalo o‘quvchilarga qaratilgan hamda yo‘naltirilgan qizg‘in

va uzlusiz faoliyatdir. O'qituvchining ta'lim-tarbiya jayronidagi nutqini bemalel pedagog monologi deb atash mumkin, unda pedagogik mahoratning eng noyob jihatlari mujassamlashgan. O'qituvchining obro'-e'tibori, asab tizimining bir maromda ishlashi, ish faoliyatining unum-dorligi va ijobjiy natijalarga erishishi unda nutq texnikasing qay darajada rivojlanganligiga bog'liq.

O'qituvchi og'zaki nutqining asosiy xususiyati, uning mazmuni o'quvchilar tomonidan ikkita kanal orqali tovush va vizual yo'l bilan qabul qilinishidadir. Vizual harakatlar o'qituvchi nutqining ta'sirchanligini, ifodaliligin oshiradi, u o'qituvchining kayfiyati haqida ham o'quvchilarga uzlusiz axborot berib turadi. Shuning uchun yosh o'qituvchi muloqotda o'zining tashqi ko'rinishini boshqara olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

O'qituvchi og'zaki nutqining yana bir xususiyati, uning improvizatsion (hech qanday tayyorgarliksiz) xarakterga ega ekanlidigkeit. Tajribali o'qituvchi matnga yoki konspektga qaramasdan, uyga maxsus tayyorlanmasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglab turib, so'z va ifodalarda tuttilayotganligini, ba'zan nutqiy kamchiliklarini ko'ra oladi. Shunday holat vujudga keladiki, go'yoki o'qituvchi notiq sifatida o'zligi haqidagi haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, o'qituvchilar o'zida notiqlik san'atiga xos, qator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi talab qilinadi:

- ijtimoiy perceptiv qobiliyat;
- ijtimoiy tasavvur qobiliyat;
- o'zini boshqara olish qobiliyat;
- muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyat;
- irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyat;
- ishontira olish qobiliyat.

Nutq texnikasi malakalari va ko'nikmalarini muvafiqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiylari ruhiy, jismoniy xususiyatlarini takomillashtirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda *tovush, diapazon, tembr, diksya, artikulyatsiya, ritmika, to'g'ri nafas olish* muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirishi uchun ta'lif va tarbiya jarayonida quyidagi yo'naliishlarga doimiy amal qilib borishi lozim:

- o'zbek adabiy tili qonuniyatları va normalarını mukammal bilishi;
- o'z-o'zini va nutqiy faoliyatini muntazam nazorat qilishi;
- o'zining nutqiy madaniyatini doimiy rivojlantirib borishi;
- nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratishi.

O'z-o'zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi o'z nutqiy faoliyatini kuza-tishi, u jonli, xilma-xil, hissiy bo'yoqlimi yoki bir xil monotonlimi, bilib borishi lozim.

Nutqingizni tayyorlash va mashq qilish jarayonida o'zingiz mustaqil ravishda quyidagi savollarga javob toping:

Tinglovchilarda qanday fikr uyg'otmoqchiman?

Auditoriyada ijobiylar muhitni qanday kayfiyat asosida yaratmoqchiman?

Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritmni talab etadi?

Yosh tarbiyachilar o'z nutqi ustida ishlayotganida quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- bolalar oldida nutq so'zlash, fikrini erkin bayon etishi, hayajonni yengishi;

- adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda, og‘zaki va yozma nutq madaniyatiga rioya etishi;
- ta’sirchan so‘zlash va ifodali o‘qish qoidalarini o‘rganishi;
- nutq mahorati va notiqlik san’atini takomillashtirib borishi;
- har qanday ta’lim-tarbiyaviy mashg‘ulot oldidan bir necha bor o‘z nutqini yozib olib (audiodesk, diktofon) ting-lashi va xatolarini tuzatishga harakat qilishi kerak.

Nutqning rang-barang bo‘lishi uchun tarbiyachi nutqini badiiy-adabiy so‘zlar bilan boyitishi lozim. Tarbiyachi nutqining mukammalligi, tozaligi, ta’sirchanligi bilan bolalar e’tiborini jalb qiladi, ular qalbiga yo‘l topadi, hech qanday qiyinchiliksiz kasbiy pedagogik faoliyatida duch keladigan barcha ziddiyatlarni bartaraf etadi. Natijada tarbiyachi pedagogik faoliyatda aslo toliqmaydi, asab tizimi doimo sog‘lom bo‘ladi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Nutqning o‘ziga xos xususiyatlari. Tarbiyachi nutqi.
2. Tarbiyachining nutq madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari.
3. Tarbiyachining nutq texnikasini egallash yo‘llari.
4. Sharq mutafakkirlari notiqlik san’ati haqida.
5. Nutq texnikasida nutqning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Nutqning to‘g‘riliqi va ravonligi, aniqligi va ta’sirchanligiga ta’rif bering?
7. Tarbiyachi nutqining funksiyalarini izohlab bering?
8. Tarbiyachining nutqiy faoliyatini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020-yil 23-sentabr.

-
2. Qudratov T.: Nutq madaniyati asoslari. T: O‘qituvchi, 1993.
 3. Kaykovus. Qobusnoma (Forschadan Muhammad-Rizo Ogahiy tarjimasi).: S.Dolimov. – T., O‘qituvchi, 2006. – 208 b.
 4. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zb. Milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.
 5. Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O‘qituvchi, 1995.
 6. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.
 7. Husanov B. G‘ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: “Iqtisod – moliya” 2009.- 156 b.

13-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHISINING ASOSIY FUNKSIYALARI

- 13.1. Maktabgacha ta'lismuassasasi pedagogining kasbiy faoliyati.
- 13.2. Tarbiyachining asosiy faoliyat funksiyalari.
- 13.3. Tarbiyachi pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylik.

Tayanch iboralar: pedagogning kasbiy faoliyati, tarbiyachining asosiy funksiyasi, zamonaliv tarbiyachi, kasbiy tayyorgarligi.

13.1. Maktabgacha ta'lismuassasasi pedagogining kasbiy faoliyati. Hozirgi kunga qadar maktabgacha ta'lismuassasasi pedagogining kasbiy faoliyati pedagog va psixologlarning tadqiqot predmeti bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar natijalari maktabgacha ta'lismuassasasi tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosliklari yaratuvchanlik, insonparvarlik, ijodiylik, jamoada ishlay olish kabilarda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Mazkur o'ziga xosliklar ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalovchi pedagog faoliyatida o'z aksini topishi lozim. Go'daklik chog'idanoq rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoit yaratish eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tug'ilganidan boshlab to maktabta'limga tayyorlashga qadar bo'lgan bosqich shaxs rivojlanishining boshqa yosh davrlaridan farqli ravishda keyinchalik bola istalgan sohaga doir maxsus bilim va ko'nikmalarni egallashi hamda faoliyatning xilma-xil turlarini o'zlashtirishi uchun asos bo'ladigan uyg'un tarzda amalga oshuvining ta'minlanishini

talab etadi. Chunki maktabgacha yoshda bola jamiyatning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan jismoniy va psixologik sifatlarga ega bo'lib, inson sifatida shakllanadi. Bola rivojlanishi uchun zarur bo'lgan jismoniy va psixologik sifatlar esa ongli ravishda dunyoni anglash, fikr yuritish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o'z xatti-harakatlarini boshqara olish orqali qo'lga kiritiladi. Maktabgacha yoshdagি bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani tarbiyachining qо'yilgan talablarga qanchalik muvofiq ekanligi belgilab beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi, eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak mas'uliyatni to'la anglab yetishi zarur. Faqtgina maktabgacha yoshdagи bola rivojining muhim qadriyat ekanligini tushunishgina emas, balki bola rivojlanishi qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallash juda muhimdir. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojining uni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liqligidir. Mazkur qonuniyat o'z navbatida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining quyidagi ikkita muhim funksiyasini belgilab beradi: 1) bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish; 2) ularning hayotiy faoliyati xavfsizligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash. MTM tarbiyachisining asosiy funksiyasi. U ta'lim-tarbiya ishlari ni rejalashtirishni axboriy-metodik hujjatlar bilan ishslash, bevosita tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va uning natijalarini tahlil etish asosida amalga oshiradi. Zamonaviy tarbiyachi psixologik, pedagogik, sotsiologik tadqiqotlarga tayangan holda bola shaxsi rivojlanishi uchun uning ta'sirini hech narsa, hatto yuqori toifali ta'lim muassasasi ham bosa olmaydigan oila ekanligini anglab yetadi. Tarbiyachi ota-onalarning pedagogik madaniyatini muttazam oshirib borishi, bolalar tarbiyasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi, mazkur jarayonda ijtimoiy yordamga muhtojlik sezuvchi oilalar bilan alohida ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiya-

chinging oilalarga ko‘rsatadigan ijtimoiy-pedagogik yordami uch turda tashkil etiladi:

- ta’limiy - ta’lim berish.
- psixologik - ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf etish.
- vositachilik - tashkil etish, ta’lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvoridagi og‘ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish.

13.2.Tarbiyachining asosiy faoliyat funksiyalari

Tarbiyachining bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish funksiyasi bolani faollikka undash, uni rivojlantiruvchi tafsifdagi faoliyatga jalb etishni talab etadi. Bolaning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash haqida g‘amxo‘rlik qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyani oqiloni tashkil etishning garovi hisoblanadi, chunki mazkur yosh davri rivoji bolaning ijtimoiy holati, kayfiyati, emotsional ko‘rinishlarga bevosita bog‘liqdir. Ana shu sababli tarbiyachi bolani o‘rab turgan atrof-muhitga e’tiborli bo‘lishi, bola hayoti va salomatligiga xavf soluvchi eng oddiy holatlarning ham oldini olishi lozim. Ya’ni, tarbiyachi bolalar bog‘chasi maydonchasi, o‘yinchoqlar, mebel jihozlarining bola bo‘yiga mos kelish holatini muntazam nazorat qilib borishi; havo va suv temperaturasini o‘lchash; bolalarni tayyorlash uchun asosiy turlarini tashkil etish, ta’lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvoridagi og‘ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish ta’limiy-psixologik va ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf etish mashg‘ulotlari vaqtini oldindan aniqlashi lozim. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, tarbiyachining e’tiborsi-

zligi, befarqligi uning kasbiy layoqatsizligining muhim belgisidir.

Zamonaviy MTM tarbiyachisining quyidagi kasbiy funksiyalarini ham ajratib ko'rsatish mumkin: 1) ota-onalarning ma'rifiy bilimlarini oshirishda ishtirok etish; 2) oila va MTM tarbiyaviy ta'sirini boshqarish hamda uyg'unlashtirish. Zamonaviy demokratik jamiyatda maktabgacha ta'lim ishiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachidan munta-zam ravishda o'zining umummadaniy va kasbiy tayyorgarligini boyitib borishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida MTM tarbiyachisi kasbiy faoliyatining yana bir yo'naliishi – mustaqil ta'lim olishni shart qilib qo'yadi. Mustaqil ta'limning maqsadi – bosqichma-bosqich tarbiyachi shaxsini rivojlantirish, kasbiy mahoratini oshirib borishdir. Oliy ta'lim muassasalarida boshqa o'quv va mutaxassislik fanlarida bo'lgani kabi "Maktabgacha ta'lim" yo'naliishi-da ham mustaqil ta'limning turli shakkarda, ya'ni, kasbga doir, badiiy adabiyotlar bilan tanishish; ular asosida muayyan mavzularda konspekt tayyorlash; muzeylarga tashrif buyurish; konferensiya, ko'rgazma va konkurslar-ga ishtirok etish kabilar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Pedagogik faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi tarbiyachidan ilg'or ish tajribalarini o'rganish, innovatsiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Innovatsiyalarning jadal kirib kelishi tarbiyachilarни ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishga jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiyachilarning bunday tadqiqot ishlariga jalb etilishi keyinchalik erishilgan natijalardan o'z faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradi.

13.3.Tarbiyachi pedagogik faoliyatindan yratuvchanlik va ijodiylik

Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun yratuvchanlik va ijodiylik qobiliyatiga ega bo'lishi va ma-

lakali mutaxassis bo‘lishi uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

1. Tarbiyachi yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kasbiy bilimlarni puxta egallab, zarur metodik adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tatbiq eta oladigan shaxs bo‘lishi lozim.

2. Tarbiyachi kuzatuvchanlik qobiliyatini yaxshi egallagan, ularning xulq-atvori, xatti-harakatlarini tahlil etib, bolaga ijobjiy ta’sir etuvchi vositalarni topa oladigan bo‘lishi kerak.

3. Tarbiyachilarning bilishga qiziqishlarini oshirish, ularning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachining nutqi ravon, aniq, mantiqiy ixcham va tushunarli bo‘lishi kerak. Ta’lim-tarbiya berishda zamонавиy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi lozim. Tarbiya jarayonida ta’limning interfaol o‘yin metodlaridan samarali foydalana olishi zarur.

4. Tarbiyachi bolalarning har tomonlama uyg‘un rivojlanishlari uchun ularni faoliyatning xilma-xil turlariga faol jalb eta olishi, ularda qiziquvchanlik, izlanuvchanlikni oshirib borishi, bolalarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini muntazam tashxis etib, korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi kerak.

5. Har bir mashg‘ulot uchun zarur materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi, tarbiyanuvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarни bosqichma-bosqich o‘zlashtirib borilishiga erishishi, o‘rganilayotgan materiallarni tarbiyanuvchilarning yosh xususiyatlariiga mos bo‘lishini ta’minlashi lozim.

6. Kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar ja-moasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi, ularning faoliyati (o‘quv, o‘yin, mehnat) mazmunli bo‘lishi uchun kerakli materiallar bilan ta’minalashi zarur.

7. Bolalarning jismoniy va psixologik holatini to‘g‘ri baholay olishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarida e’tiborga olishi kerak.

8. Kun davomida olib borgan ta’lim-tarbiya ishini muntazam tahlil qila olishi va uni yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topishi zarur.

9. Tarbiyachi muntazam ravishda ota-onalar bilan individual va jamoaviy suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazishi, ularni bolalarni tarbiyalashga doir zamonaviy metodikalar bilan tanishtirib borishi, oilalarda qo‘llanib kelayotgan ijobiy shakl, metod va vositalardan o‘zining tarbiyaviy faoliyatida foydalanishi lozim.

10. Tarbiyachi bolalarga xayrixoh munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun maqbul psixologik muhitni yuzaga kelтирishi, bolaning qalbi va yuragiga joy topa olishi, qunt va sabrli bo‘lishi, bag‘rikeng va yuksak ishonchga ega bo‘lishi lozim. Yuqorida bayon etilgan maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglarining kasbiy faoliyatga doir funksiyalari va “Maktabgacha ta’lim Konsepsiysi”ga asoslangan holda zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligini belgilovchi tayyorgarlikning uch jihatini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Asosiy jihatlari: shaxsiy tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlik, refleksiv tayyorgarlik. Zamonaviy tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi shaxsiy tayyorgarlik – tarbiyachi shaxsida qaror topishi lozim bo‘lgan sifatlarni o‘zida aks ettirib, ularga gnostik (bilishga doir) qobiliyatlar (ilmiy ma’lumotlar bilan ishlay olish, ilmiy bilimlardan amaliyotda oqilona foydalana olish, pedagogik vazifalarni yuksak mahorat bilan hal eta olish); tashkilotchilik qobiliyatları (ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mashg‘ulot shakl, metod va vositalarini tanlay olish, vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini zaruriy jizozlar bilan ta’minalash, ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkaza olish); kommunikativ qibiliyatlar (axborotni maktab-

gacha yosh davrlari bilan bog‘liqlikda tushunarli taqdim eta olish, vaziyat bilan bog‘liqlikda axborotlarni o‘zatish metod va usullarini o‘zgartira olish, kasbiy faoliyat jarayonida mu-loqotni oqilona amalga oshira olish va boshqalar)ni kiritish mumkin. Tarbiyachining kasbiy faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Pedagogik taktga doir sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim-tarbiya berishning yangi, nostonart shakl, metod va vositalarini izlash; tarbiyaviy ish jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni hal etishning samarali yo‘llarini tanlay olish; o‘z faoliyati, o‘quv jarayonida bolalarning individual rivojlanishi, innovatsion o‘quv reja va dasturlarni loyihalay olish va boshqalar. Refleksiv tayyorgarlik – tarbiyaviy jarayon natijalariga asoslangan holda tarbiyachining kelgusi faoliyatini rejalashtirish imkoniyatini berib, uning uch turdagи refleksiv qobiliyatini o‘z ichiga qamrab oladi: obyektni his qilish, o‘lchovni bilish va daxldorlik hissi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Maktabgacha ta’lim muassasasi pedagogining kasbiy faoliyati qanday huquqiy-me’yoriy hujjatlarga asoslanadi.
2. Tarbiyachisining asosiy faoliyat funksiyalariga nimalar kiradi.
3. Tarbiyachi pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikning ahamiyati nimada?
4. Zamonaviy tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi qanday shakllantiriladi.
5. Tarbiyachining oilalarga ko‘rsatadigan ijtimoiy-pedagogik yordami turlarini izohlang.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 173 b.
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituv-

chilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.

4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2007.

5. Pedagogika fanidan izohli lug‘at / Tuzuvchilar J.Yu. Hasanboyev va boshq. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.

14-MAVZU: TARBIYACHINING MUOMALA MADANIYATI

- 14.1. Muomala madaniyati haqida tushuncha.
- 14.2. Sharq mutafakkirlari asarlarida sharqona muomala madaniyati haqida.
- 14.3. Bola bilan muomalada bo‘lish jarayonining o‘ziga xosligi.
- 14.4. Tarbiyachining muomala madaniyatini shakllantirish mehanizmlari.

14.1. Muomala madaniyati

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o‘zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlanishda o‘qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta’kidlash joizki, pedagogik kasbga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, o‘qituvchilarning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiغا chiqarish, o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarga javobgarlik hissi o‘qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

“Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandalrimizning dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma’no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqealar haqqida haqqoniy ma’lumotlarga, eng muhim, o‘z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo‘lishiga erishish ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo‘lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi”. Bu vazifalarning bajarilishiga, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo‘lgan o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O‘quvchi ma’naviy muhitining shakllanishi o‘qituvchilarning yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda o‘qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi.

Pedagogik muloqotda o‘qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o‘quvchining ideali sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining o‘qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatti-harakati, pedagogik mahorati uning ma’naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O‘quvchi subyekti bilan, o‘quvchi obyekti o‘rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o‘zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta’sir etadi, natijada o‘quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi.

Pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo‘naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o‘qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o‘ziga xos ta’rifga ega. *Peda-*

*gogikaning kategoriyasi sifatida **muomala** o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqa bog‘lashga qaratilgan o‘qituvchining pedagogik qobiliyatidir.*

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O‘z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhidha tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O‘zining ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o‘quvchi qalbiga yo‘l topadi.

Muomala o‘qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o‘qituvchi quyidagi faoliyatga qat’iy amal qilishi lozim:

- o‘qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so‘z va ohangni tanlay bilishi va ta’sir o‘tkaza olishi;
- muomala obyekti bo‘lmish o‘quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o‘z o‘rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta’sirni bilishi;
- o‘quvchilarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o‘quvchilarni ta’lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- o‘quvchilarga og‘zaki, o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O‘qituvchining nutqi ravon, o‘quvchilar ongiga ijobiy ta’sir qiladigan bo‘lishi.

Nihoyat, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o‘quvchilarning xat-

ti-harakatlaridagi chuqur ma’no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o‘zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o‘quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasи sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o‘rnini to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o‘zaro munosabatlar doirasi-da sodir bo‘ladi. Boshqarish vositasи bo‘lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo‘ladi.

Pedagogik muloqot o‘qituvchining pedagogik faoliyatida o‘zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o‘z tarbiyalanuvchilar, umuman o‘quvchilar jamoasi haqida, unda ro‘y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g‘oyat xilma-xil axborotlarga ega bo‘ladi va o‘zining kelgusi ta’lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchi muloqot asosida o‘z tarbiyalanuvchilariga ma’lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma’lum qiladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan yo‘l qo‘yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo‘pollik o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo‘ladi va tuzatib bo‘lmaydigan og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo‘ladi:

- pedagogik muloqot orqali o‘qituvchi tarbiyalanuvchi obyekt bilan o‘ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o‘qituvchi o‘zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san’ati, ta’sir o‘tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;

- o‘qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo‘lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobjiy natijalarga erishish kalitidir;

- o‘quvchilar jamoasi bilan muomalada o‘qituvchi-

ning doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;

- o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bilan o‘zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo‘ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida obyekt va subyektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg‘unlashuvni sodir bo‘ladi. Ushbu o‘zaro uyg‘unlashuvni yuzaga keltiradigan muomalaning asosiy bog‘lovchisi so‘zdir. *So‘z – mazmunan o‘qituvchining nutqida, ma’ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o‘z ifodasini topadi.*

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o‘qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o‘quvchilarning shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e’tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o‘qituvchini g‘oyat xilma-xil sharoit va ko‘rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo‘lmasa-da, o‘quvchilar ichki dunyosida sodir bo‘layotgan, ularni tushunish uchun juda muhim bo‘lgan zarur ichki jarayonlar ko‘rinishlarining alopamatlarini bilib, ta’lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O‘qituvchining muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so‘zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar o‘quvchilar tomonidan har xil ko‘rinishda tushuniladi, bu o‘quvchining fikr mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o‘qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e’tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko‘nikma va malakasi; muayyan o‘quvchilar jamoasi bilan muomalada bo‘lish tajribasi.

14.2. Sharq mutafakkirlari asarlarida sharqona muomala madaniyati haqida

Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o‘zaro hurmat e’tiborda bo‘lishlari o‘zaro muomala jarayonida namoyon bo‘ladi. Xalqimizda azaldan muloqot salomlashish madaniyatidan boshlanadi. Salomlashish turli xalqlarda har xil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e’tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shu millatning ruhiy xususiyatlari, o‘zaro munosabatlarining ma’naviy asoslari, bo‘lajak muloqotning xarakteri, o‘zaro hamkorligi aks etadi. “Qur’oni karim”da salomlashish odobi musulmon ahlining qat’iy majburiy burchi tarzida bayon etiladi: “Ey mo‘minlar, o‘z uylarinidan boshqa uylarga to izn so‘ramaguningizcha va egalariga salom bermaguningizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangizlar”.

Ajdodlarimiz madaniy va ma’naviy merosi, ular yaratgan so‘z, xalq tilining tiganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Hisrav Dehlaviy, Abu Hamid G‘azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa’diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G‘arb donishmandlarning boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish asosiy muammo sifatida targ‘ib qilingan.

Ular so‘zni va nutqni ta’lim-tarbiyada ilohiy ne’mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so‘zning o‘z o‘rnini va ahamiyati borligini, tarbiyada so‘zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo‘qligini, tilga e’tibor – elga e’tibor ekanligini, so‘z sehri mo‘jizalar yarata olishini ta’kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiyy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan. Mudarrislardan barcha

mol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borligini alohida ta'kidlashgan:

birinchisi: xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;

ikkinchisi: yoshlikdan o'z nafsiga erk bermaslik;

uchinchisi: birovlardan aslo ayb qidirmaslik;

to'rtinchisi: yomonlik va omadsizlikni yaxshilikka yo'yish;

beshinchisi: agar gunohkor uzr so'rasha, uzrini qabul qilish va kechirimli bo'lish;

oltinchisi: muhojirlar hojatini chiqarish;

yettinchisi: doimo el g'amini yeyish;

sakkizinchisi: aybini tan olish;

to'qqizinchisi: el bilan ochiq chehrali bo'lish;

o'ninchisi: odamlar bilan doimo shirin muomalada bo'lish.

Muloqot Sharqona tarbiyada axloq ko'rki sanalgan. Muallim har bir o'quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o'zaro muloqotida namoyon bo'lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot – azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi bo'lган. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida ta'riflanadi.

Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. Ko'p gapirish hech qachon kishiga obro' keltirmaydi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, aytildigan har bir so'zga hurmat bilan, o'ylab yondashish lozimligini uqtirib o'tganlar. O'qituvchi "so'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatlarni o'yla"shi (I.P.Pavlov) kerak. Alisher Navoiy o'z adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida noyob

fikrlarni bayon qilgan. Bygungi kunda ham bu fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. “*Til shirinligi – ko ‘ngilga yo-qimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so ‘z sof ko ‘ngillar uchun asal kabi totlidir*” - deydi alloma.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining til boyligi muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, shirin tillilik o‘quvchilarni o‘qitish va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘qituvchining til boyligi nutqining obrazli, chirroyli, jarangdor, namunali bo‘lishini ta’minlaydi, natijada o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etadi. Zotan, til va nutqning teranligi, o‘qituvchining mahoratini, ma’naviy boyligini, o‘qituvchilik qobiliyatining qay darajada ekanligini ifodalandaydigan o‘lchov, ko‘rsatkich hisoblanadi. Amerikalik taniqli shoir Rolf Emerson: “*Nutq qudratli kuch: u ishon-tiradi, undaydi, majbur qiladi*” deydi. Sharq mutafakkirlari ijodida til va nutq vositalari orqali notiq, voiz, badihago‘y, qissaxon kabi maxsus san’at ahillari va mudarrislar diniy, ta’lim-tarbiyaviy, islomiy aqidalarini ommaga singdirishgani, pand-nasihatlar qilishgani bayon etiladi. Ushbu nutq sohiblari keng qamrovli bilimga, boy axborotga ega bo‘lishgan.

Alisher Navoiy “*Voiz olimning o‘zi, avvalo, halol ish ko ‘ruvchi bo‘lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni*” o‘z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san’ati ustida ishslash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o‘qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas’uliyati hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida nutqning ta’sir kuchi nihoyatda beqiyosdir. O‘qituvchining tili, nutqiy qobiliyati o‘quvchilarning o‘zlarini tuta bilishlariga, xulq-avtori va fikr yuritishlariga ulkan ta’sir etuvchi kuchli vositalardir. O‘qituvchining “*til boyligi va notiqlik san’ati barcha zamonalarda yonma-yon yashab kelgan*” (A.P.Chexov). Uning his tuyg‘usi, intilishlari,

iroda va e'tiqodi nutqida aks etadi. O'qituvchi til boyligi bilan o'quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg'otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun o'qituvchi "tilning xalq o'tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita" (K.D. Ushinsky) ekanligini unutmasligi kerak.

Kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik muosharat odobi deyiladi. Muosharat odobi insonning go'dakligida ota-onada bag'rida, oilada shakllantirilishi kerak. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyiladi xalq maqlarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi. Bola mакtabda, ulg'aygach esa, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qiladi.

O'quvchilarga muosharat odobini shakllantirish uchun o'qituvchining o'zi avvalo xushmuomalaligini namoyish etib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikr bo'lib, o'rnak bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari asarlarida muosharat odobi turli ko'rinish va nomlarda bayon etiladi. Jumladan, Al Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida asosiy g'oya – fozil kishilar obrazi. U kim bo'lishidan qat'iy nazar shohmi, gadomi, oddiy fuqaromi, fozil kishidir. Shaharning fozil kishilari bir-birlariga nisbatan hurmat va izzatda bo'ladilar. Ota-onada farzand, ustoz va shogird, do'starlar, qarindoshlar o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom mavjud. Forobiy asarida bundan bir necha asr ilgari ham ota-bobolarimizning ma'naviyati naqadar yuksak bo'lganligi va bu avlodlarga o'rnak bo'lishi ta'kidlanadi. Onore de Balzak "Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chi-

nakam ma'rifatli ekanligidan dalolat beradi" deydi. Ingliz donishmandi Jon Libbok "*Odamlar boodoblilik yordamida hattoki kuch bilan erishish mumkin bo'l magan g'alab-larga erishishi mumkin*"ligini aytadi. Demak, muosharat odobi nafaqat milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning ko'zgusi bo'lgan, balki turkiy xalqlarning noyob insoniy fazilati sifatida e'tirof etilgan.

Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topib yashashidir. By faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Muomala va munosabatda o'quvchilar ning diliqa to'g'ri kelmaydigan qo'pol va dilozor muloqot olib boruvchi o'qituvchilarni hech kim yoqtirmaydi. O'quvchilar xushfe'l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi shirin o'qituvchi va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadilar va hurmat-e'tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o'rinini topish, inoq va hamjihat bo'lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o'zining yutug'i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo'ladi. Ammo insondagi kamtarlik samimiyo bo'lmos'i zarur.

Shirin so'z muloqotga kirishishning asosiy qulolidir. U inson qalbini ilitadi, qo'pol so'z inson qalbini jarohatlaydi. O'qituvchining "*aql-zakovati, fikri, his-tuyg'ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi*" (Aziz Yunusov). Chunki so'zning qudrati katta. O'qituvchi o'z so'ziga, tiliga nihoyatda ehtiyyotkor bo'lmos'i lozim. Eng avvalo, o'quvchilarga muomala madaniyatini, kattalar oldida o'zini tuta bilishi, gapini bo'lmasligi, yoshi ulug'larga gap qaytarmaslikni o'rgatish zarur.

Muloqot madaniyatni hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O‘qituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi o‘quvchilarning bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo‘ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so‘z yordamida yetkazadilar, amalga oshiradilar. Shu tufayli so‘zlashuv munosabatlari nihoyatda go‘zal va muloyim bo‘lishini hayot taqozo etadi. Co‘zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo‘ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. So‘zlashuv ham o‘ziga xos san’atdir. Bu san’atning ildizi muosharat odobi bo‘lib, uni mukammal o‘rganish har bir inson uchun zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o‘rganmoq va sof adabiy tilda o‘quvchilar bilan muloqot qilish o‘qituvchining notiqlik qobiliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari haqida o‘z fikrlarini bayon etgan: “*Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab, asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol top-tirishga erishish uchun shart-sharoit yaratishdir*”.

Darhaqiqat, O‘zbekiston zaminida Sharq ma’naviy madaniyatining muhim jihatlari uyg‘onish davrida rivojlangan bo‘lib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu

Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Shayx Sa'diy, Tusiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ko'plab mutafakkirlarning ijodiy meroslari pedagogik tafakkur taraqqiyotida, insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida, umum-bashariy ma'naviy qadriyatlarning yuksalishida muhim bosqich bo'ldi. Ular Sharqona odob-axloq talablari asosida komil insonni tarbiyalashning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

Ushbu davr ma'naviy qadriyatlari mazmunida avvalo, insonning ichki va tashqi holati, hissiyoti, mehnatga, turmushga munosabati, mehr oqibati, muhabbat, sadoqati, bilim o'rganishga intilishi, ma'naviy kayfiyati, aql-idroki, erki, insonni tabiatning eng buyuk mahsuli sifatida kuylash, tasvirlash, oliy axloqli, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan adolatli jamoa vakilini tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. Ularning yosh avlod ma'naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyati ham naqadar beba ho ekanligini ta'kidlab, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarda ma'naviyat tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "...Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'a-yishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir" desak menimcha tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz". Demak, ma'naviy madaniyat manbalarida ilgari surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni yosh avlodga o'rgatish va ongiga singdirish o'qituvchining jamiyat va Vatan oldidagi yuksak burchidir.

Inson o'z qadr-qimmatini va o'zligini umumta'lim maktablarida ta'limg-tarbiya jarayonida anglay boshlaydi. Ta'limg muassasalarida o'qituvchi tomonidan o'zaro mulo-

qot asosida olib boriladigan quyidagi xususiyatlar negizida o‘quvchilarda muloqot orqali ma’naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari (*O.Musurmonova*) ifodalangan:

- har bir insonning qiziqishlarini ko‘ra bilish, his etish va hurmat qilish;
- milliy-ma’naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, o‘zligini anglashga ehtiyoj;
- inson hayotida mehnatning o‘rnini to‘g‘ri tushunish;
- insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon, e’tiqod, milliy qadriyatlarni e’zozlash;
- Vatanga muhabbat, sadoqat, o‘z manfaatlarini jamiyat, xalq manfaatlaridan yuqori qo‘ymaslik;
- ota-onas, qarindoshlar va boshqa atrof-muhitidagi kishilarga nisbatan muruvvatli, sahovatli bo‘lish.

O‘qituvchi ta’lim-tarbiyaviy jarayonda o‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirishda muloqotning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib, ong va faoliyat birligini ta’minlashi taqozo etiladi. Ma’naviy ong o‘quvchining dunyoqarashi, bilimi, his-tuyg‘usi, idroki, irodasi va diqqatining majmuasi bo‘lib, u o‘qituvchining pedagogik mahorati negizida ta’lim-tarbiyaviy faoliyat asosida shakllantiriladi. O‘z navbatida ong ham faoliyatga ta’sir ko‘rsatadi va uni tartibga soladi.

O‘quvchilarning tarbiyaviy muhitda uyushtirilgan ma’naviy faoliyatda ma’naviy madaniyat muammolarini erkin, ongli vaadolatli yecha olishga intilishi ta’minlashi kerak. O‘qituvchi bilan o‘zaro muloqot jarayonida o‘quvchi ongli ravishda o‘z munosabatlarini bildirishga, to‘g‘ri xulosa chiqara olishga, milliy g‘urur asosida ularni avaylashga, asrashga, sevishga, umrboqiyligini ta’minlashi ma’naviy burchi ekanligi o‘rgatiladi.

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asarda “*Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta’lim-tarbiya tizimi*

bilan chambarchas bog‘liqligidir. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o‘zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o‘ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin” – deb ta’kidlaydi.

Ma’naviy madaniyatning muhim belgilarini shakllantirishda, ta’lim-tarbiya tizimini ma’naviy muhit, ma’naviy faoliyat va ma’naviy anglash bosqichlaridan iborat andozalar asosida tashkil etishda ushbu mezonlar talablariga rioya qilish belgilangan maqsadni samarali amalgalashni imkoniyatini beradi. Bunda o‘qituvchining muloqoti asosida o‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi quyidagi omillar ham muhim ahamiyatga ega:

1. O‘quvchi ma’naviy faoliyat asosida o‘zligini anglashni shakllantirish uchun ma’lum bir muhitda ma’naviy qadriyatlar bilan harakat orqali muloqotga kirishadi. Harakatsiz muhit va faoliyat bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun o‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirish samaradorligini *ma’naviy harakat omili* ta’minlaydi.

2. Ma’naviy qadriyatlarning mohiyati, ma’naviy-axloqiy tajriba, o‘qituvchining ta’sirchan nutqiy muloqoti vositasida o‘quvchilar ongiga singdiriladi. *Nutqiy aloqalar* tarbiya jarayoni obyektlari va subyektlari orasida kechadi va o‘quvchi ma’naviy madaniyatini shakllantiruvchi *omil* bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchining xulq namunasi, ma’naviy harakati, nutqiy aloqalar samaradorligi o‘qituvchi va o‘quvchining muloqoti asosidagi faoliyat munosabatlari bilan belgilanadi.

3. Ma’naviy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatidan ta’sirlanish va amaliy faoliyatda ularga tayanish, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilishini ta’minlab,

o‘quvchi ma’naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyatini yanada takomillashtirish ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan (o‘qituvchi va o‘quvchi) doimiy ijodkorlikni talab qiladi. *Ijodkorlik* – milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchi ma’naviy madaniyatini shakllantirishda *muhim omil* hisoblanadi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida uning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi.

4. O‘quvchi ma’naviy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyati o‘qituvchining muloqot olib borish psixologik taktikasi omillariga ham bog‘liq. Ushbu omilni harakatlantiruvchi sharoitlar:

- o‘qituvchining pedagogik-psixologik va maxsus fanlar integrasiyasi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi;
- mutaxassisligi bo‘yicha kasbiy mahorati;
- o‘quvchilar bilan o‘zaro do‘stona muloqot madaniyati;
- o‘quvchilarning ruhiy holatini tez bilib olishi;
- o‘qituvchi ma’naviy madaniyatining shakllanganlik darajasi;
- ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usul va metodlarini tanlay bilishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari to‘g‘risida chuqur ma’lumotlarga ega bo‘lishi;
- o‘qituvchining pedagogik jamoa orasidagi hurmat – e’tibori.

5. O‘qituvchi muloqot asosida o‘quvchilarda ham ijodkorlik omilini takomillashtirib boradi. O‘quvchida uning sifatlari quyidagi belgilar bilan namoyon bo‘ladi:

- ma’naviy qadriyatlarni, an’analarni o‘zlashtirishga qiziqishda ehtiyoj va talabning kuchliligi;
- o‘rganilayotgan fanlar asoslarini egallashga ijobiy munosabat;
- ma’naviy madaniyat saviyasi, dunyoqarashi;
- o‘z-o‘ziga nisbatan talabchanlik;

- tabiatga, atrof-muhitga ongli munosabat;
- yangiliklarni va axborot texnologiyalarini o‘rganishga qiziqish;
- ijtimoiy va shaxsiy faolligi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi;
- tashabbuskorligi va ijodkorligi.

O‘quvchilarda ma’naviy madaniyatni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi ta’lim mazmuniga asoslanib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish saviyasiga bog‘liq. Bu quyidagi faoliyat turlarini mukammal bilishni taqozo etadi:

Birinchidan, o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas’uliyatni, faollikni va eng asosiysi muloqot madaniyatiga rioya etishni talab qiladi.

Ikkinchidan, har bir darsda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham belgilangan maqsadni aniq qo‘ya bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to‘g‘ri belgilab olishi lozim.

Uchinchidan, dars jarayonida bilimlar mazmunining ilmiylici, uzluksizligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, o‘qituvchining notiqlik san’ati asosida bayon etish shakllining mukammalligi, qiziqrarliliqi o‘quvchilarda ta’limiy va tarbiyaviy tomondan o‘rganiladigan qadriyatlarga qiziqishni kuchaytiradi, ularda tarixiy, adabiy, milliy va diniy xarakterdagi milliy qadriyatlar bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirish ishtiyoqi rivojlanadi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o‘z kasbiga, faniga munosabati, olib boradigan darsi andozasini va uning natijasini oldindan ko‘ra bilish, har bir dars samaradorligini ta’millovchi texnik va texnologik belgilardan biridir.

Beshinchidan, dars jarayonida o‘quvchilar jamoasiiga erkin fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini erkin bayon etishga imkoniyat yaratish, o‘quvchilar jamoasi fikriga ta-

yanish, ularning fikr-mulohazalari, istak-xohishlarini e'tiborga olish, o'quvchilarning mustaqil ishlaridan keng foydalanish zarur.

Oltinchidan, o'quvchilar bilimiga, xulqiga beriladigan bahoning xolisona vaadolatli bo'lishi barcha ta'limga va tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etilishiga ijobiy ta'sir etuvchi omil ekanligini unutmaslik kerak.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, ta'limga va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlardan va ma'naviy madaniyatni shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishini ta'minlaydi.

Pedagogning kommunikativ qobiliyatları

Pedagogning talabalar bilan muomalasi muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga, mahoratiga bog'liq bo'ladi. Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o'qituvchi vazifasida talabalarni hisoblanadi. Ma'lumki, shaxsining u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o'ynasa, boshqalari yordamchi rol o'ynaydi.

Birinchi navbatda persentiv, ya'ni idrok qilish sohasiga taalluqli bo'lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog'i kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol o'ynaydi, pedagogga talabaning psixologiyasining, uning psixik holatini o'xshash tarzida idrok etish, muayyan holda umuman sinf kollektivining ahvoliga to'g'ri baho berish imkonini beradi. Pedagog shaxsining o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari tarkibiy qismi sifatida empatiya, ya'ni talabalarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti talabalarga bo'lgan muhabbatdir. Nihoyat, Pedagog shax-

sining o‘zaro fikr almashuv bilan bog‘liq xususiyatlari-ning uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o‘zaro harakatda bo‘lgan yuksak rivojlangan ehtiyojni hisoblash mumkin. U bilimlarni boshqalarga berishga talabalar bilan muomala jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo‘ladi. Tashkil etish qobiliyati ham pedagogik qobiliyatlarning tarkibiy qismidir. U barcha talabalarning har xil faoliyat turlariga jalg qilinishida, jamoaning har bir talabaga ta’sir ko‘rsatish quroliga aylanishida, har bir talabaga faoliyat, vaziyatni ta’minlab berishda namoyon bo‘ladi. Pedagogda ijtimoiy o‘zaro harakatda bo‘lgan, unda mavjud bo‘lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi. Endi pedagogik qibiliyatlar strukturasiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Bu, avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: hozir-javoblik, tanqid ko‘zi bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. Pedagogning nutqi: notiqlik qibiliyatlarini mavjudligi, so‘z boyligi va hokazolar ham muhim rol o‘ynaydi. Tabiatda bir qadar artistlik xususiyatiga ega bo‘lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham talabalar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o‘ynaydi. Pedagogik qibiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo‘lishining shartigina emas, balki ko‘p jihatdan pedagogning muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan pedagogning o‘zida pedagogik qibiliyatlarning aniq maqsadini ko‘zlab tarkib topish va rivojlanishi katta rol o‘ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom haqiqiy narsa ekanligini ko‘rsatmoqda.

Masalan, shaxs perceptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo‘lgan kuzatuvchanlik pedagogning pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g‘ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. Pedagog o‘zining ijtimoiy-psixologik kuzatuvchanligini, ya’ni talabalarda turli xarakter xususiyatlari, maylla-

rini payqab olish qobiliyatining emas, shu bilan birga ularning paydo bo‘lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini rivojlantirishga qodirdir. Pedagog o‘z talabalarini, ular muhitidagi o‘zaro munosabatlarini, o‘zining ular bilan o‘zaro munosabatlarini hozirgi daqiqada qanday bo‘lmasin, xuddi shunday idrok etish va ko‘rish mahoratini doimo takomillashtirib borishi lozim.

Bu esa osongina qo‘lga kiritilmaydi. Gap shundaki, pedagogning idrok etishi har qanday kuzatuvchining idrok etishiga o‘xshaydi, chunki pedagog hamisha talabalarga nisbatan tashqi vaziyatda turadi, ma’lum darajada ulardan, ular faoliyatidan (uning tashkilotchisi bo‘lsa ham) uzoqlashgan bo‘ladi. Shu sababli, pedagog o‘zi ko‘rayotgan narsalarga o‘zining ijtimoiy rivojlanish jarayonida idrok qilgan normativ mulohazalarini ongli va ongsiz ravishda qolishi mumkinki, pedagog uchun yangi bo‘lgan hodisalar uning o‘zida mavjud bo‘lgan normalar va tasavvurlar asosida an’anaviy tarzda talqin etilishi mumkin. Bundan tashqari, pedagogning muayyan masalaga javob izlashga intilishi unda ahamiyatlari biror faktni o‘tkazib yubormaslik uchun qulay yo‘nalish hosil qiladi. Agar pedagog talabaning xatti-harakatlarini faqat to‘g‘ri idrok etib, baho bersa, ularni vujudga keltirgan sabablarni chuqur ko‘ra olsagina, shu bilan birga o‘zida sabot, o‘zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik kabi fe’l-atvor xususiyatlarini rivojlantira olsagina, yuqoridagi vazifaga erishish mumkin. Pedagogning o‘z talabalarini: ularning fe’l-atvori, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini turli voqealarga, muammolarga va hokazolarga munosabatlarini doimo o‘rganib va bilib borishga intilishi muhimdir. Pedagog talabalarini qanchalik bilib olsa, unda talabalar bilan munosabatda xushmuomala bo‘lish imkoniyatlari shu qadar ko‘proq bo‘ladi. Lekin pedagog o‘z talabalarini bilan yaqinroq bo‘lishga harakat qilar ekan, ba’zan tegishli daqiqalarda o‘zi eshitmasligi lozim

bo‘lgan narsalarni eshitmasdan o‘tib ketishi lozim. Bunga sabab eshitish odobsizlik bo‘lishi mumkinligi yoki vaziyat noaniq bo‘lib turganda, eshitish darhol aniqlik kiritish zarurligini taqozo qilishidir. Talabalar bilan o‘z muomasasini baqiriq va mayda-chuyda narsalarga aralashishga aylantirib yubormaslik uchun kundalik ishlarda nimanidir sezmay qolishni o‘rgatish muhimdir.

Nihoyat ba‘zan biror narsani tushunmay qolish ham foydadan bo‘ladi. Bularning hammasi pedagoglarning talabalar bilan bo‘ladigan kichik ixtiloflariga barham beradi, unga talabalar bilan bo‘ladigan kelishmovchiliklarga tegishli darajada odob bilan aralashuvga yordam beradi. V.A. Suxamlinskiy ta’kidlab o‘tganidek, pedagog talabalar, ayniqsa, katta yoshdagi talabalar o‘rtasidagi ziddiyatlarga juda ehtiyyotkorlik bilan aralashuvi lozim. U shuningdek, ziddiyatlarning shunday sohasi borki, unda pedagogning aralashuvi nihoyatda cheklangan bo‘lishi, hamma kelishmovchiliklar va ziddiyatlar ham kollektivda muhokama qilish obyekti bo‘lmasligi mumkin va lozim deb hisoblangan edi.

Pedagogning talabalar bilan muomalasi jarayonida ikki xil hissiy (emotsional) holat vujudga kelishi mumkin. Pedagogning ijobjiy hissiyotlari asosida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish qobiliyati haqiqiy samara beradi.

Pedagog talabalarga biror-bir narsani o‘rgata olishi uchun ular bilan munosabatga kirishishi shart. Munosabat - odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlardan kelib chiqadi. Munosabat kishilar o‘rtasida faoliyat davomida axborot ayriboshlashni o‘z ichiga oladi.

Munosabatning ikkinchi jihatni muloqotga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham ayriboshlanadi. Uchinchi jihatni munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilish-

dir. Shunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda kommunikativ (axborot o'tkazish), interfaol (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarini alohida ko'rsatish mumkin.

Kishi birgalikda faoliyat ko'rsatayotganda zaruriyatga ko'ra, boshqa odamlar bilan birlashishi, ular bilan muomalaga kirishishi, ya'ni aloqa o'rnatishi o'zaro hamjihatlikka erishishi kerakli axborot olishi va javob tariqasida axborot berishi lozim. Munosabat talabalarning o'zaro birgalikda harakat qilishi va faoliyat ko'rsatishi jarayonida ularni birlashtiradigan vosita tildan iborat ekanligini bildiradi.

Turli xil tillarda so'zlashadigan kishilar bir-birlari bilan murosa qila olmaydilar. Bu esa birgalikdagি harakatning amalga oshirilishini amri mahol qilib qo'yadi. Qo'llaniladigan belgilarni (so'zlar, imo-ishoralar va h.k) zamirida munosabatda ishtirot etayotgan shaxslarga tanish bo'lgan taqdirdagina axborot ayriboshlash mumkin bo'ladi.

So'z belgilari tizimi hayot kechirish ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va o'tkazish vositasi sifatidagi tilni toptiradi. Qo'llarida biror-bir mehnat qurolini ushlab, ko'zlar esa ushbu narsalarga qarab turgan vaqtida, bir-birlari bilan munosabatga kirishish uchun aniq tovushlardan foydalanish kishilarga ayniqla moyillik tug'diradi. Til yordamida munosabatga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgani bilan doimiy ravishda to'ldirilib turadi - o'y-fikrlarni ayriboshlab axborot berish ro'y beradi. So'zlar muayyan bir mohiyatga ega, ya'ni ashyoviy olamga allaqanday tarzda tegishli bo'ladi. Pedagog u yoki- bu so'zni ishlatganda anglashilmovchilikka yo'l qo'ymasligi kerak. Mohiyatlar tizimi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Uni shakllantirish o'rta ta'limning ham oliy ta'limning ham markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordami-

da munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajriba biror-bir mohiyatni anglatadigan so‘zlar og‘zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So‘zlar eshittirib, yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo‘yilishi yoki kar, soqov kishilarda biror-bir mohiyatga ega bo‘lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Odamlar o‘rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o‘xshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog‘lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan bo‘ladi. Kommunikatsiyaning mazmuni munosabatga kirishganlaraga taalluqli bo‘lib, nutqiy fikr-mulohazalar bilan qo‘shilgan holda tarkib topadi. Nutqsiz kommunikatsiya vositaliga qo‘l bermoq va yuz harakatlari imo-ishora, ohang, pauza, turq-tarovat, kulgu, ko‘z yoshi qilish va shu kabilar kiradi. Bular og‘zaki kommunikatsiya vositalari so‘zlarni to‘ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba’zan esa o‘rnini bosuvchi belgilar tizimini hosil qiladi.

O‘rtog‘ining boshiga tushgan kulfatdan xabar topib, unga hamdardlik bildirayotgan suhbatdoshi nutqsiz kommunikatsiya belgilarini ishlataladi: yuzlarini g‘amgin tutadi, past ohangda qo‘llarini yuziga, yo peshonasiga qo‘ygan va boshini changallangan holda chuqur xo‘rsinib gapiradi va h.k. Nutqsiz kommunikatsiyani amalga oshirish uchun turli xil yosh gruppalarda turlicha vositalar tanlanadi. Masalan: yoshlar yig‘idan ko‘pincha katta yoshdagilarga ta’sir qilish va ularga o‘z istaklarini hamda kayfiyatini yetkazish vositasi sifatida foydalananilar. Nutqsiz kommunikatsiyada qo‘llaniladigan vositalarning axborotni so‘z bilan yetkazish maqsadlarida va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Pedagog bitta so‘zning o‘zini talabaga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va h.k ma’no baxsh etgan holda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Nutqsiz kommunikatsiya imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangdagi

rang-baranglik ham rivojlana boradi. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya’ni talaba ham suhbatdoshining yuzlaridagi ifodani o‘qishga (nutqning), uning ohangida ma’qullah yoki ma’qullamaslik alomatini payqashga, katta yoshdagi kishining so‘zlariga ilova bo‘ladigan va kuchaytiradigan qo‘l-barmoqlar va yuz harakatining ma’nosini tushunishni o‘rganadi.

14.3. Bola bilan muomalada bo‘lish jarayonining o‘ziga xosligi

Muomala-axborot jarayonidir. Pedagog bevosita shaxslarga muomalada o‘z tarbiyalanuvchilari, umuman, jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida g‘oyat xilma-xil axborotga ega bo‘ladi va hokazo. Pedagog ham o‘z navbatida muomala jarayonida o‘z tarbiyalanuvchilariga maqsadga qaratilgan axborotni ma’lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, talabaning shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Muomala shaxsni g‘oyat xilma-xil sharoit va ko‘rinishlarida o‘rgatishga imkon beradi. Pedagog talabalar bilan muomala qilar ekan juda mayda qismilarni ham anglab olishga qodir bo‘ladi. Bular sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo‘lmasa-da, shaxsda sodir bo‘layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo‘lgan zarur ichki jarayonlar ko‘rinishlarining alomatlari bo‘lishi ham mumkin, bunda pedagog shaxsi katta rol o‘ynaydi. Ayni bir xil hodisaning turli kishilar tomonidan talqini shaxsning o‘tmishdagi tajribasiga bog‘liqligi bilan izohlanadi, bu tajribaning uch jihatni bor: umuman, hayotiy tajriba, pedagogik faoliyat tajribasi va muayyan jamoa bilan, talabalar bilan muomalada bo‘lish tajribasi.

Nihoyat, pedagogning talabalar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u talabalarning xatti-harakatlari-

dagi chuqur ma’no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o’zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va talabalarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. Pedagogning talabalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi o’rnini to’ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Muomala o’zaro munosabatlar doirasida sodir bo’ladi. Boshqarish vositasi bo’lgan muomala faoliyatidan oldin sodir bo’ladi. Boshqarish vositasi bo’lgan muomala talabalarning faoliyatiga hamrohlik qiladi. Nihoyat, boshqarish vositasi bo’lgan muomala faoliyatidan keyin boradi.

Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi uning muomalasidan ma’lum bo’ladi. Muomala insonlar o’rtasidagi o’zaro aloqa vositalaridir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo’lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro’-e’tibor topadi. So’zga chechanlik hech qachon insonga obro’ kel-tirmaydi. Shuning uchun ham o’tmishda yashab o’tgan mutafakkirlarimiz tilga, so’zga hurmat bilan yondashishlarini uqtirib o’tganlar. Ulug’ bobomiz Alisher Navoiy muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to‘g’risida, shirinso’zlik haqida purhikmat fikrlarni bayon qilganki, bugungi kunimiz uchun ham o’z ahamiyatini yo’qotgan emas. “Til shirinligi ko’ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so’z sof ko’ngillar uchun asal kabi totlidir” deydi Alisher Navoiy. Pedagog talabalarga bilim berish bilan bir qatorda ular nutqining rivojlanishiga ham alohi-da ahamiyat beradi va bunda u turli pedagogik usullardan foydalanadi.

Talabalar nutqini o’stirishda pedagog (so’zi) muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, uning nutqi talabani uquitish va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili hisoblana-di. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, pedagogning

nutqi obrazli, chiroyli, jarangdor, namunali bo‘lmogi, tala-
ba diqqatini o‘ziga tortmog‘i lozim. Zotan, nutq pedagog-
ning o‘z mutaxassisligi qay darajaga loyiq ekanligini ifo-
dalaydigan o‘lchov, ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuning
uchun nutq ustida ishslash, nutq madaniyatini takomil-
lashtirib borish har bir pedagogning eng asosiy ijtimoiy
burchi va mas’uliyati hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya ichida
nutqning ta’sir kuchi nihoyatda katta. Pedagogning nutqi
talabalarning o‘zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr
yuritishlariga ham ta’sir etuvchi kuchli vositadir. Pedagog-
ning nutqida uning hissi, intilishlari, iroda va e’tiqodi aks
etadi. U nutq yordami bilan talabalarda xursandchilik, ruh-
lanish, muhabbat, sadoqat, g‘azablanish, nafratlanish xis-
larini tug‘diradi. Xalq bilan birga turish, birga yashash mu-
osharat deb ataladi. Odamlarning bir-birlari bilan bo‘lgan
munosabatlarining go‘zalligi, muloyimligiga “Muosharat
odobi” deyiladi. Insonning eng ulug‘, lekin murakkab va
mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya’ni
jamiyatda o‘z o‘rnini topib yashashida. Bu faoliyatning
murakkabligi shundaki, ko‘pchilikka qo‘shilish, ular bi-
lan (alohida) ahil bo‘lib yashash uchun insonda shunga
yarasha muomala va munosabat bo‘lishi kerak. Qo‘pol
va dilozor odamni ko‘pchilik yoqtirmaydi. Insonlar xush-
fe’l, shirinsuxan, mard, muomalasi shirin kishilarni dildan
yoqtirishadi va hurmat-e’tibor qilishadi. Insonlar orasida
munosib o‘rin topish, inoq, ittifoq yashash shartlaridan
biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon
o‘zining yutug‘i bilan, boy-davlatliligi bilan, ilm-hunari
bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo‘ladi.
Ammo insondag'i kamtarlik samimiyl bo‘lmogi zarur.

So‘z inson qalbini ilitadi, so‘z inson qalbini jarohat-
laydi. “Tig‘ yarasi ketar, so‘z yarasi ketmas” degan xalq
maqoli bekorga aytilgan emas. Chunki so‘zning quadrati
benihoya katta. Inson o‘z so‘ziga, tiliga nihoyatda ehtiyyot-

kor bo‘lmogi lozim. Ayrim yoshlarimizda so‘zga, tilga e’tibor ancha sust. Eng avvalo, yoshlarga muomala madaniyatini, kattalar oldida mahmadonalik qilmaslikni, kattalar gapini bo‘lmaslikni, yoshi ulug‘larga gap qaytarmaslikni o‘rgatishimiz zarur.

Muomala madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda, shuning uchun ham biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz kerak. Insonning qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi muomala orqali namoyon bo‘ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so‘z yordamida yetkazadi, amalga oshiradi. Shu tufayli so‘zlashuv munosabatlarini nihoyatda go‘zal va muloyim bo‘lishini hayot taqozo etadi. So‘zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo‘ladi. Bundaylarni odamlar yoqtiradi, hurmat qiladi. So‘zlashuv ham o‘ziga xos san’atdir. Bu san’atni mukammal o‘rganish har bir insonga zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o‘rganmoq har bir insonning muqaddas burchidir. Tilni bilgach: uni ishlata bilish san’atini egallamoq inson uchun zarurdir.

Shirin so‘zlik va go‘zal nutq hech qachon, hech qayerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo‘li bor. Bu ham bo‘lsa, tinimsiz shirin so‘zlashni mashq qilmoqlikdir. Bu esa, asosan, ko‘p kitob o‘qish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Muomala insonning kimligini korsatuvchi yuzidir.

Muomala kategoriyasi umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o‘z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab olgan. Psixologiya fonda muomala kategoriyasi keng aloqani mujassamlashtirib, odamlar o‘rtasida o‘zaro munosabatni aks ettiradi. Muomalaning eng muhim tarkibi muolloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o‘ynaydi. Muomala

hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib, ko‘p qirralari jarayonidir. Muomala quyidagi tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Kommunikativ (bir tomonlama axborot uzatish).
2. Muomala o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo‘lib, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaninig muhim vositalaridan biri – tilga va nutq faoliyatiga bevosita murojat qiladilar.
3. Interfaol (ikki tomonlama ta’sir) - muloqotga kiri-shuvchilarni o‘zaro ta’siri, ularning nutq faoliyatida na-faqat so‘z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq- atvori o‘zaro ta’sir o‘tkazish tushuniladi.
4. O‘zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi. Bunda mulo-qotga kirishuvchilar o‘zaro bir-birini idrok qilishi jarayoni namoyon bo‘ladi. Ya’ni, ulardan biri ikkinchisining ishon-chiga loyiq aqli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok qilinadi.

Pedagogik muomala – bu pedagogning talabaga ta’sir o‘tkazish, ularning bir-birlari bilan hamkorlikligidir.

Hamkorlik o‘zaro axborot almashinuvi – turlicha kom-munikativ vositalar yordamida pedagog tomonidan tala-balalar bilan o‘zaro munosabatni tashkil qiladi. Pedagogik faoliyatda muomala muayyan dastur asosida maqsadni amalga oshirish, rejalashtirish va o‘tkazish funksiyasini bajaradi. Ya’ni muomala:

- o‘quv faoliyatini yakka holda bajarishning vositasi;
- tarbiya jarayonini ta’minalashning ijtimoiy-psixologik tizimi;
- ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi pedagog bilan talabalar o‘zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilish usuli;
- talaba individualligini takomillashtirish, iste’dodini

qaror topshirish imkonini beruvchi jarayon sifatida xizmat qiladi.

Muallim pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham pedagogga, uning axloqiy sifatlariga, talabalar bilan muomala-siga nisbatan alohida yuksak talablar qo‘yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar – yosh talabalar bilan muloqotda bo‘ladi. Talabalar ta’lim-tarbiya jarayonida umuminsoiiy va milliy axloq normalarini o‘zlashtiradi. Talaba muomala odobini asosan pedagog timsolida anglab oladi. Pedagoglar jamoasida pedagoglar o‘rtasidagi muomala-munosabatlar insonparvarlik, ixtiyorilik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda, ikki xil bo‘lib, biri - rasmiy, ikkinchisi - norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning qonuniyatlariga asoslanadi va jamoaning har bir a’zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari, qoidalari, talablar pedagoglar jamoasining fikri asosida bajariladi. Ta’lim-tarbiya berish bir kishining ishi emas. Uni pedagoglar jamoasi bajaradi. Ta’lim-tarbiyada ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun o‘quv yurti butun jamoasi, hamma pedagoglari birlashib, harakat qilishlari lozim. Har bir muallimning xatti-harakati, xulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsadi talablariga mos bo‘lmog‘i kerak. Jamoaning ayrim pedagogga ta’siri pedagoglar jamoasida shakllangan muomala odobi munosabatlariga bog‘liq. Har bir talabaning tarbiyasi uchun mas’uliyatning birligi pedagoglar jamoasining talabaga nisbatan talablaridan biridir. Darsda talabalarning intizomi pedagogik jamoadagi muomala odobi axloqiy munosabatlar darajasini ko‘rsatadi. Kollejda o‘quv intizomini saqlash butun pedagoglar jamoasining ishi. Pedagoglar jamoasida o‘zaro yordam va ishonchning mavjudligi

muomala odobiga amal qilishning muhim shartidir. Muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasining maqsadiga pedagoglarning axloqiy saviyasiga bog ‘liq. Pedagoglar jamoasida o‘zaro muomala munosabatlar o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga mas’uliyat va intizomni saqlashga asoslanadi. Pedagogik jamoada sog‘lom aqliy-ruhiy muhit mavjud bo‘lsa, axloqiy norma va yo‘l-yo‘riqlar bajarilibgina qolmasdan, balki ular har bir muallimning e’tiqodiga, odatiga aylanadi. Pedagoglar jamoasining shaxs va jamoa uchun foydali ishlariga asoslangan ta’siri natijasida muallimning ma’naviy qiyofasida chuqur sifat o‘zgarishlar sodir bo‘лади. Ijtimoiy burchni to‘g‘ri anglash, xulqini to‘g‘ri baholay olish odati shakllanadi. Jamoada o‘zaro muomala yaxshilanadi. Muomala jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta’minlash uchun ijtimoiy nazarat va ijtimoiy qonun-qoidalar muhim ahamiyatga ega. Bu nazaratda uchta muhim ta’sir etish vositasi ishtirok etadi: ma’qullamaslik, qoralash, jazolash.

Muomala jarayonida talaba yoki talaba xulqi ijtimoiy qonun-qoidalar maromiga zid kelsa, u holda uning xatti-harakati qoralanadi, e’tiroz, tanbeh, eslatish kabi vositalar bilan ta’sir o’tkaziladi. Muomala vaqtida odob, odoblilik muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifalari: axborot almashuv, o‘zaro ta’sir, o‘zaro idrok qilish, to‘g‘ri amalga oshishini idora qilib turadi. Har bir fikr bildirilganda, muloqotdosh qabul qilayotganini fahmlab turish, tashqi ko‘rinishlari o‘zgarishiga e’tibor berish, uzr so‘rash tavoze bilan murojat qilish evaziga muomala odobi ushlab turiladi. Muomala jarayonida ba’zi bir xatti-harakat, o‘ylamay bildirilgan fikr, ortiqcha imo-ishora odobsizlikka olib keladi. Odobsizlik esa nizoli vaziyat, qarama-qarshilik, ziddiyatli vaziyatni keltirib chiqaradi. Buning natijasida muomala fikr almashuv o‘zini vazifasini nizoli vaziyatga bo‘shatib beradi. Pedagogik muomalada psixologik aloqa o‘rnatish alohida ahamiyatga ega, chunki talaba bilan o‘zaro munosabat hurmat, ishonch negizida quriladi.

Bunda pedagog talabaning majburiyatini, uning kollejda, jamoat joylarida, oilada bajaradigan vazifasi nimadan iborat ekanligini e'tibordan chetga chiqarmasligi lozim.

Pedagogning talabalarga ta'sir o'tkazish samarasini uning prinsipialligi va talabchanligida o'z aksini topadi. Bundan tashqari u o'ziga ham o'ta talabchan bo'lmogi, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda obro'-e'tibor qozonmog'i lozim. Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida pedagogning talabalarga ta'sir o'tkazishi natijasida ularda:

- o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilish;
- o'z-o'zini va boshqalarning faoliyati, xulqini baholash;
- o'z-o'zini boshqarish;
- o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish;
- o'z-o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarni egalash shakllanadi.

Do'stona muomala talaba bilan pedagog o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi, muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanish darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, talabalarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin. Pedagogik jarayondagi aloqlar tizimida pedagog bilan talaba o'rtasidagi muomala munosabatlar katta o'rinni egallaydi. Pedagoglar jamoasida ijodkorlik muhiti muomala odobining shakllanishida jamoat tashkilotlarining roli kattadir. Ular muallimning obro'sini oshirish, jamoat ishlariga faol qatnashdirish yo'li bilan pedagogning axloqiy pedagogik madaniyati, mas'uliyati oshirishiga ko'maklashadi. Muallim har bir so'zini o'ylab gapirishi, boshqalarning, kasbdoshlarining so'zi, fikri, mu-lohazalarini tinglay olishi ham pedagogik jamoada o'zaro muomala munosabatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Pedagogik muloqot madaniyati tarbiyachi kasbiy faoliyatida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Tarbiyachining muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi qanday bosqichlardan iborat?
3. Tarbiyachi pedagogik muloqot madaniyatiga erishish uchun qanday vaziyatlarni e’tiborga olish darkor?
4. Tarbiyachilar diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash lozim?
5. Tarbiyachining pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlariga ta’rif bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”-gi qonuni. – Toshkent; 2020, 23-sentabr.
2. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zb. Milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.
3. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15-tom.- T.: “Fan” 2005.
5. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.
6. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 b.
7. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.- 149 b.
8. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri – T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 187 b.
9. O‘zbek pedagogikasi tarixi. //A.Zunnunov tahriri os-tida. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 272 b.

15-BOB. OILALAR BILAN HAMKORLIK

15.1. Oila tushunchasi va uning mohiyati.

15.2. Oilaning vazifalari.

15.3..Maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan ishslash shakllari.

Tayanch iboralar: Oila, axloqiy, psixologik, kommunikativ, rekreativ, regulyativ, relaksatsiya, feliotsitologik, regulyativ, jamoaviy va individual.

15.1. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo‘lgan oilaga quyidagicha ta’rif mavjud: “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, yuridik ma’noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog‘langan shaxslar doirasidan iborat bo‘lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an’analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir”¹¹.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta’minlaydi¹².

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta’riflaydilar. Oilani tashkil etuvchi ushbu guruh ni-

¹¹ Karimova O. Oila huquqi asoslari – T.: 2003.

¹² Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: “O‘zbekiston”, 2009. – B.12-13.

koh orqali hamda yaqin urug‘chilik rishtalari bilan bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarga xos bo‘lgan muhim jihatlar – bu o‘zaro mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik, mas‘uliyatlilik va albatta, hayot, turmush tarzidagi umumiylikdir¹³.

Sotsiologiya oilaga yaxlit ijtimoiy organizmning qismi, jamiyat bo‘g‘ini, ijtimoiy tarbiya jamoasi sifatida qaraydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, albatta, oilada o‘z aksini topadi. Biroq boshqa – ishlab chiqarish, kasbiy, siyosiy ijtimoiy birlashmalardan farqli ravishda oila to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta qurishga uchramaydi. Oilaning axloqiy, psixologik jihatdan yangilanishi uzoq, murakkab, qarama-qarshiliklarga bog‘liq jarayondir.

Iqtisodiy sohadagiga qaraganda, yangi munosabat, yangi axloq me’yorlari oilada sekin sur’atlarda amalga oshadi. Oilaviy o‘zgarishlarning amalga oshishida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, boshqa – biologik, psixologik, demografik omillar ham ishtirot etadi.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to‘g‘ri yo‘li oilaviy hayotdir.

Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiya o‘chog‘i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momoldandan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o‘tgan yaxshi udum, odatlar mavjud. Pedagogika fanlari doktori, professor M. Inomova oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatgan:

- birinchidan, oila o‘ziga xos va takrorlanmas ta’sirga ega;
- ikkinchidan, oila bola uchun o‘ziga xos “ko‘zgu” bo‘lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasi-da muhim ahamiyat kasb etadi;

¹³ Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – T., 2006. – Б.10.

- uchinchidan, oila o‘ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo‘lib, unda ijobiy va ba’zan salbiy his-tuyg‘ular jamuljam bo‘ladi;
- to‘rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o‘zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg‘ulari ham tarbiyalanadi;
- beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolognaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;
- oltinchidan, oila – er-xotinlik, ota-onalik vazifalari ni aks ettiradi. Ota-onaning bir-biriga bo‘lgan muhabbatni bolaga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin¹⁴.

Demak, oila – tarbiyaviy jamoa va hech kim hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi.

Oila hayoti ko‘p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi: ijtimoiy-biologik, xo‘jalik-iqtisodiy, axloqiy, psixologik. Oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyasining tugashi, boshqasining paydo bo‘lishi, uning a‘zolarining ijtimoiy faoliyatining o‘sib borish ko‘lami va tavsifi bilan bog‘liq. V.A. Slastenin, I.F. Isayev, Ye.N. Isayevlarning fikricha, oila jamiyat va odamlarga munosabati bo‘yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi.

15.2. Oilaning vazifalari. *Oilaning vazifalari. Jamiyatga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalari quydagilarda aks etadi:*

- aholining tabiiy ko‘payishi. Avlodlarning almashinuvi uchun davlat tomonidan belgilangan doirada bolalar soni muvofiq bo‘lishi zarur.
- tarbiyaviy vazifasi – bilim, ko‘nikma va malakalar, me’yorlar, qadriyatlar, ma’naviy boyliklarni uzatish.
- ishlab chiqaruvchi-xo‘jalik. Sotsiologlarning

¹⁴ Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi – T., 1999. – B.20-21.

ko‘rsatishicha, oilaning oila ishlaridan to‘liq ajralishlari uchun qo‘srimcha 40-45 mln. odam talab etiladi.

- bo‘sh vaqt ni tashkil etish.

Insonga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalari quyidagiicha:

➤ er-xotinlik vazifasi. Er-xotinlar – eng yaqin kishilar, ular o‘zaro bir-birini to‘ldiradi, bir-biridan ruhiy madad oladi.

➤ ota-onalik vazifasi. Oila qariganda ota-onalarning hayotini bezash uchun zarur bo‘lgan ishtiyoqni ta’minlaydi.

- turmushni yo‘lga qo‘yish¹⁵.

Bundan tashqari pedagogik-psixologik adabiyotlarda hozirgi zamon oilasining quyidagi vazifalari ajratib ko‘rsatilgan: iqtisodiy, ijtimoiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, reguliyativ, feliotsitologik va boshqalar¹⁶.

Oilaning *iqtisodiy funksiyasi* uning asosiy funksiyalardan biri bo‘lib, oila byudjetini to‘g‘ri taqsimlash, oilada o‘sib-ulg‘ayotgan bolalarni tejamkorlikka, tadbirkorlikka o‘rgatishni nazarda tutadi.

Oilaning *ijtimoiy funksiyasi*. Ijtimoiylashuv jarayoni bolalikda boshlanib, umrning oxirigachaga davom etadi. Shuning uchun shubhasiz bu yerda, ayniqsa, bolalik davrida oila hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Quyida ijtimoiylashuvning ba’zi jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Oila insonning jismoniyligi va emotsiyalari katta ahamiyatga ega. Bu rolni ijtimoiylashuvning boshqa institutlari bilan almashtirib bo‘lmaydi.

2. Oilada bolaning psixologik jinsi shakllanadi. Aynan oilada takrorlanmas jinsiy tabaqlananish jarayoni amalga

¹⁵ Obshaya pedagogika / Pod. red. V.A. Slastenina. – M.: “Vladost”, 2003. – CH.2. – C.224.

¹⁶ Oila psixologiyasi. B. Shoumarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2003.

oshadi.

3. Oila bolaning aqliy taraqqiyotida yetakchi rol o‘ynaydi, bolalar, o‘smirlar va o‘spirinlarning o‘qishga munosabatlariga ta’sir etadi.

4. Oilada insonning ijtimoiy me’yorlarni egallashi amalga oshadi. Bu me’yorlar orasida eng avvalo, bo‘lajak oila boshlig‘i roolidir.

5. Oila insonning qadriyatga yo‘nalganligi uchun poy-devor vazifasini bajaradi. Ular ijtimoiy va etnoslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladi, hayot tarzi, intilish darajasi va sohasi, hayotiy qarashlarini aniqlaydi.

6. Oilaning shaxs ijtimoiy rivojidagi roli buyukdir. Oilaning qadriyati va atmosferasi uning o‘z-o‘zini rivojlantirish muhitining qanchalik shakllanganligi va o‘z-o‘zini realizasiyalashga imkon berishi bilan belgilanadi.

Oilaning muhim bo‘lgan bo‘lgan funksiyalaridan yana biri uning *reproduktiv* (jamiyatning biologik uzlukligini ta’minalash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasining asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan iboratdir. V. Karimovaning fikricha, “Farzandli oila” tushunchasi oila psixologiyasida ham, oila sotsiologiyasida ham muhim bo‘lib, u oilada turmush tarzining deyarli barcha jahbalridagi ko‘rsatkichlari mezonidir. Chunonchi, o‘zbeklar-da “Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor” degan naqlning ma’nosи ham farzand tug‘ilgan uyga farishtalar yog‘iladi, yaxshilik va xursandchiliklar, to‘ylar uchun yo‘l ochiladi¹⁷.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir funksiyasi *tarbiyalash* funksiyasidir. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir. Bolaning tabiiy alomatlari va nasl-nasabi qanchalik ahamiyatga ega bo‘lmasin, tarbiya hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Chaqaloq hayotining dastlabki yillarida o‘rab olgan dunyonи anglab yetishni o‘rgana boshlaydi. Ana shu

¹⁷ Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi. – T.: 2006, 26-bet..

muhit shaxs mohiyatini va bundan keyingi rivojlanishi ni belgilab beradi. Xuddi shu davrda ota-onaning bolaga nisbatan mehr-muhabbatining tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib oilaning tarbiyaviy funksiyasi haqida shunday xulosalarga kelish mumkin:

- oilaning bolaga ta'siri boshqa har qanday tarbiyaviy harakatlardan kuchli;
- oilada shunday sifatlar shakllanadiki, oiladan tashqa-ri hech qayerda bunday sifatlar shakllanishi mumkin emas;
- oila shaxs ijtimoiylashuvini amalga oshiradi. Oiladan jamiyat a'zolari yetishib chiqadi: qanday oila – shunday jamiyat.
- oila an'analarning davomiyligini ta'minlaydi;
- oilaning muhim ijtimoiy funksiyasi fuqaro, vatan-parvar, bo'lg'usi oila boshlig'i, jamiyatning qonunga rioya qiluvchisini tarbiyalashda aks etadi;
- oila kasb tanlashga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Oilaning *kommunikativ* funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy oriyentatsiyalar, ustanovkalar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy, psixologik salomatligi – oiladagi o'zaro ichki muloqot xarakteri, oiladagi katta a'zolarning muloqotda psixologik ustanovkalarni namoyon qilishlari, oiladagi axloqiy-psixologik iqlimga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Oilaning *rekreativ* – o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolari dam olishini tashkil etish funksiyasidir. Bu funksiya keyingi yillarda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning *felotsitologik* funksiyasidir (italyancha "felitsitt" - baxt). Oilada er-xotinning

bir-birini to‘liq tushunishi – ularning o‘zlarining baxtli his qilishlarini ta’minlaydi. V.Karimova mazkur funksiyani “baxt va tinchlik-xotirjamlikni barqarorlashtirish” deb ataydi. Uning fikricha, aynan oila har bir a’zosining muammolarni yechish, uni tashqi ta’sirlardan himoya qilish kerak bo‘lsa, unda himoya immunitetini shakllantirisha yordam beradi¹⁸.

Oilaning reguliyativ funksiyasi oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro‘ni amalgalashirishni o‘z ichiga oladi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma’naviy tomondan qo’llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Hozirgi zamon oilalarida esa oilaning boshqaruv funksiyasi asosan axloqiy me’yorlar, oila a’zolarining shaxsiy obro‘si va birinchi navbatda ota-onalarning bolalarga nisbatan obro‘si kishilar yordamida amalgalashiriladi.

Oilaning relaksatsiya funksiyasi deganda oila a’zolaring jinsiy, emotsiyal faoliyatini, ruhiy-jismiy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Mazkur funksiya har bir oilada tinchlik, totuvlik, o‘zaro tushunish, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, ijobiy psixologik, emotsiyal jihatdan, ruhiy jihatdan o‘zini qayta tiklab olishni yo‘lga qo‘yilishini nazarda tutadi.

Oilaning funksiyalari bo‘yicha turlicha tasniflar mavjud bo‘lib, yuqoridaq ta’kidlaganimizdek, ular yangilanib borish xususiyatiga egadir.

Oila bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish qoidalari. Oilaning har bir funksiyasi o‘z navbatida bir qancha vazifalarni qamrab olishi bilan tavsiflanadi.

Tarbiyachilarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari shakl va metodlarini tavsiflashdan oldin ularning o‘za-

¹⁸ Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi. – T.: 2006, 25-bet.

ro birgalikdagi faoliyati va oila bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish usullarining ba‘zi psixologik-pedagogik ta’sirlari- ga to‘xtalib o‘tish lozim.

Birinchi qoida. Maktabgacha ta’lim muassasasi va tarbiyachilarning oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari asosida ota-onalarning obro‘sini oshirish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan harakat va tadbirlar turishi kerak. Ota-onalar bilan maslahatlashganda, hech vaqt “qilishingiz kerak”, “majbursiz” kabi jumlalarni ishlatmaslik ma’qul. Chunki ko‘pchilik ota-onalar o‘z majburiyatlarini yaxshi biladilar, faqat amaliyotda ular ana shu bilganlarini qanday amalga oshirish muammosiga duch kelishlari mumkin. Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro munosabatlari ning yagona to‘g‘ri shakli – bu o‘zaro hurmat. Qachonki, nazorat shaklida tajriba almashish, maslahat va birgalikda muhokama, yagona qaror shakllantirilsa, ikkala tomon uchun ham qoniqish hosil qiladi. Bunday munosabatlarning qimmati shundaki, tarbiyachilarda ham, ota-onalarda ham shaxsiy javobgarlik hissini, talabchanlik, fuqarolik burchini rivojlantiradi.

Ota-onalarning ish joylariga “Rivojlanish xaritasi”, “Ochiq jurnal” kabilarni olib borish kutilgan natijalarni bermaydi. Ota-onalar bilan suhbatda “qora ro‘yxat”dagi ma’lumotlardan foydalanish ham yaxshi foya bermaydi, chunki birinchidan, ota-onalarda bolalaridan norozilik paydo bo‘ladi, ikkinchidan ta’lim muassasasiga nisbatan ularda salbiy munosabat shakllanadi. Keyin ota-onalar ta’lim muassasasi ga borgisi kelmasligi, ular bolalari haqida yomon fikr aytganliklari uchun ko‘ngli tortmasligini aytib arz qiladi. Ba’zan bunday holat oilada ota-onsa munosabatlari yomonlashuviga ham olib keladi. Oxir-oqibat bolada ta’lim muassasasiga nisbatan ham, tarbiyachilarga nisbatan ham salbiy munosabat hosil bo‘ladi. Tarbiyachi tarbiyaviy ish shakl va metodlarini tanlashda qabul qilingan qaror va talab bolalar ko‘z oldida

ota-onaning obro'sini mustahkamlash va oshirishga imkon berishini hisobga olishi kerak.

Ikkinci qoida. Ota-onalarning tarbiyalovchi imkoniyatlariga ishonish, ularning pedagogik madaniyati darajasi va tarbiyalashdagi faolligini oshirish. Ko'pchilik ota-onalar psixologik jihatdan barcha talablarni qabul qilishga tayyor bo'lishsa ham, biroq shunday ota-onalar borki, bolalarni tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashish va bu jarayonni chuqur tushunishga doir yetarlicha ma'lumotga va pedagogik tayyorgarlikka ega emas.

Uchinchi qoida. Pedagogik takt, oila hayotiga nojo'ya aralashishga yo'l qo'yilmasligi. Tarbiyachi – rasmiy shaxs, biroq u o'z faoliyatida oila hayotining maxfiy tomonlariga, "boshqalar" dan sir saqlanadigan tomonlariga ham daxldor bo'ladi. Yaxshi tarbiyachi oila uchun begona bo'lmaydi, ota-onalar yordam qidirganlarida ularning bu vaziyatdan chiqishlariga ishonadi, maslahat beradi. Oil a qanday bo'lishi, ota-onalar tarbiyachilar bilan qanday bo'lishlariga qaramasdan, tarbiyachi hamma vaqt uddaburon, yordamga tayyor bo'lishi kerak. Oil haqidagi hamma narsaga yaxshi tomonidan e'tibor qaratishi, tarbiyada ota-onalarga yordam ko'rsatishi kerak.

To'rtinchi qoida. Oilaviy muammolarni hal qilishga doir qaror qabul qilishda ko'tarinki ruh va kayfiyat, bolaning ijobiy sifatlari, oila tarbiyasining kuchli tomonlari, shaxsning muvaffaqiyatli rivojlanirishga tayanish. Tarbiyanuvchining xarakterini shakllanishi qiyinchiliklarsiz, qarama-qarshiliklarsiz kechmaydi. Agar bu jarayon shaxs rivojlanishi qonuniyatining namoyon bo'lishi sifatida idrok etilsa, u holda mazkur qiyinchilik, qarama-qarshilik, kutilmagan natijalar tarbiyachining sarosimaga tushib qolishiga olib kelmaydi. Hammamizga yaxshi ma'lumki, yuzaga kelgan pedagogik vazifalarni hal etishning o'nlab usullari mavjud, biroq ulardan faqat biri mazkur aniq vaziyat uchun

to‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Ana shuning uchun ham maktabgacha pedagogikaga tayyor ko‘rsatma sifatida emas, shaxsga samarali ta’sir etishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan sifatida qarash kerak.

15.3. Maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan ishlash shakllari.

Maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining ikki asosiy shakli ajratib ko‘rsatiladi: *jamoaviy va individual*.

Maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan boradigan ishlarining jamoaviy shakllariga quyidagilar kiradi:

- pedagogik ma’ruzalar;
- pedagogik majburiy o‘qish;
- pedagogik ta’lim universitetlari;
- yillik ilmiy-amaliy konferensiya;
- ochiq eshiklar kuni yoki ta’lim muassasasida ota-onalar kuni;
- ota-onalar majlisi.

Pedagogik ma’ruzalar ota-onalarning e’tiborini tarbiyaning zamonaviy muammolariga qaratishni maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur shakl ota-onalarni tarbiya nazariyasini asoslariga doir tizimli bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi.

Pedagogik majburiy o‘qishni ilk yosh guruhdanoq ota-onalar bilan boshlash lozim, chunki ayni shu paytda maktabgacha ta’lim muassasasiga, pedagogik ma’rifatparvarlikka munosabat paydo bo‘ladi. Agar birinchi mashg‘ulotni maktabgacha ta’lim muassasasi mudiri o‘tib bersa, juda yaxshi bo‘ladi. Pedagogik majburiy o‘qishda parallel guruhlar birlashtirilishi ham mumkin.

Ko‘pgina ta’lim muassasalarida ota-onalar uchun pedagogik ma’ruzalar va majburiy o‘qishga bilan taqqoslaganda, ota-onalarning tarbiya nazariyasini egallash-

lari bo'yicha murakkab ish shakllaridan biri hisoblangan *pedagogik ta'lim universitetlari* ishlaydi. Mashg'ulotlar ham ma'ruza, ham seminar tarzida tashkil etiladi. Albatta, hamma ota-onalar auditoriyasi bunday ish shakliga tayyor emas. Tez-tez ta'lim muassasalarida bunday "universitet" tizimi ishlari soddalashlashtirib turiladi, nomi o'zgarmasdan qolsa ham, mazmuniga o'zgartirishlar kiritiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya muammo-lari bo'yicha ota-onalarning an'anaviy *yillik ilmiy-amaliy anjumani* shakllantiriladi. Oila tarbiyasiga doir dolzarb muammo aniqlab olinadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada butun yil davomida uni nazariy va amaliy o'r-ganish amalga oshiriladi. Shundagina anjuman haqiqattan ham yakuniy bo'lishi mumkin.

Ochiq eshiklar kuni yoki maktabgacha ta'lim muassasida ota-onalar kuni juda katta tayyorgarlikni talab etib, odatda uni bolalar bir guruhni tugallab, keyingi bosqichga o'tishlariga mo'ljallanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi maxsus jihozlanadi, navbatchilar belgilanadi, ajoyib bayram dasturi tayyorlanadi.

Bayramni o'tkazishning namunaviy tuzilishi:

- majlislar zalida o'ttiz daqiqa davomida turli guruh ota-onalari uchun maktabgacha ta'lim muassasasi faol tarbiyanuvchilarining chiqishlari tashkil etiladi, eng yaxshi guruh va alohida tarbiyanuvchilar belgilanadi;
- guruhlar bilan tanishish (tarbiyanuvchilar ota-onalarga qanday yashayotganliklari, qanday ta'lim olayotganliklari, nimani o'rganganliklari, o'zlarining ko'nikma va malakalarini namoyish etishadi; katta va tayyorlov guruhi tarbiyanuvchilari suvenirlar tayyorlashada va ota-onalariga topshirishadi);
- ko'rgazmalarga tashrif buyurish: "Eng yaxshi rasmilar", "Eng yaxshi qo'lda bajarilgan ishlar", "Kichik musavvirlar va konstrukturlar" va boshqalar;

- ota-onalar qo‘mitasi sovrini uchun tashkil etilgan sport musobaqlari;
- tarbiyalanuvchilarning badiiy film ko‘rishi;
- ota-onalar uchun fil’m namoyish etish.

Albatta, bunday ochiq eshiklar kunini o‘tkazish variantlari ko‘p. Eng asosiysi – maktabgacha ta’lim muassasasida olib borilayotgan ishlarni namoyish etish, ota-onalarning e’tiborini tarbiyaviy masalalarga qaratish.

Ota-onalar majlisi – an’naviy, hammaga yaxshi ma’lum ish shakli. Shu bilan birga bugun majlis o‘tkazish metodikasi uni takomillashtirishni talab etadi. Guruh majlisini tashkil etishga yondashuvlardan biri – majlis mavzularini muammoli tarzda shakllantirish: “Qiyinchiliklardan qo‘chish yoki ularni chetlab o‘tish bolalarni tarbiyalashga yordam beradimi?”, “Rahmdil, g‘amxo‘r qilib tarbiyalashni kechiktirish mumkinmi?”, “Bolalardagi dangasalikni qanday yo‘qotish kerak?”, “Bolalarni o‘zini-o‘zi tarbiyalash ishlariga qanday jalb etish kerak?” Faqatgina muammo shakllantirilib qolmasdan, o‘tkazish uchun qiziqarli ham bo‘lishi kerak.

Ota-onalar qo‘mitasi. Ota-onalar qo‘mitasi “Maktabgacha ta’lim muassasasining Ustavi”ga binoan mudiraga yordam berish uchun to‘ziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo‘mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil saylanadi. Qo‘mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta’lii muassasasining xo‘jalik va ta’lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo‘mita a’zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o‘tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko‘makashishdir.

Ota-onalar qo‘mitasi bolalarning ota-onalar bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo‘yicha ular bilan ish olib boradi. Qo‘mita a’zolari har ikki oyda bir marta yig‘ilish o‘tkazadi. Ota-onalar qo‘mitasi mudiraning ish rejalari

va ishning ahvoli to‘g‘risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba’zi masalalar haqidagi ma’ro‘za va hisobotni eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo‘mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta’lim muassasasida saqlanadi.

Aholi o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish. Pedagogik bilimlarni targ‘ib etish natijasida millionlab kishilar bolalarini oilada maktabgacha ta’lim muassasasi-da tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oldilar.

Korxonalarda, xo‘jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda, oilada bola tarbiyasi to‘g‘risida ma’ro‘zalar bilan chiqish, televideniye va radio eshittirishlar, pedagogik targ‘ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ‘ibot vaqtli matbuot: “Maktabgacha ta’lim”, “Xalq ta’limi”, “Pedagogik ta’lim”, jurnallari, ko‘p sonli badiiy pedagogik, ilmiy ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi.

Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruhshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qish, bolalar tarbiyasi to‘g‘risida kinofilm va spektakllar namoyish qilish.

Bu mashg‘ulotlarni har xil sohalar bo‘yicha yuqori malakali o‘qituvchi, aktyor, ruhshunos mutaxassislar olib boradilar.

Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e’lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqtı-vaqtı bilan tarbiya vazifasi-ga qarab o‘zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ko‘pincha ota-onalar konferen-

siyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta’lim to‘g‘risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o‘sishini ko‘rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o‘yinchoqlar, bolalarning ishlari o‘rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to‘g‘risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko‘pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo‘ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta’lim muassasalari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg‘ulotlari, mehnat, o‘yin faoliyatları, sayrlar va bolalarning jamoada o‘zlarining qanday tutishlari va shunga o‘xshashlar ko‘sitalidi.

Pedagogik targ‘ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ‘ibot hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog‘lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ‘ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo‘llari, ilmiy asoslangan usullari bo‘yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasidagi ijobjiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan xatolar va ularni oldini olish, bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini olib boriladi.

3. Pedagogik targ‘ibotga tayyorlashda ota-onalar har xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko‘rgazmali va ularning his tuyg‘usiga ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar bilan xamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o’rtasidagi birlik o’rnatilishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining *individual shakllariga* esa quyidagilar kiradi:

- oilaga tashrif buyurish;
- pedagogik topshiriq;
- pedagogik maslahat.

Individual ish shakllari ota-onalar bilan ishlasha muhim o’rin tutadi. Individual ish shakllaridan biri – *bola oilasiga tashrif buyurishdir*. Bu shakl tarbiyachi va ota-onalarga juda yaxshi ma’lum, biroq ikki holatda tashrif buyurish to‘xtatilishi zarur.

Oila tashrif buyurish oldindan kelishilgan holda amalga oshirilishi zarur. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugun 90% bolalar ota ham, ona ham ishlaydigan oilalarda tarbiyalanadi. Demak, har qanday vaqt ham tarbiyalanuvchiga tashrif buyurish uchun qulay emas. Noo’rin tashrif buyurish biror ish bilan mashg’ul bo‘lib turgan ota-onalarda norozilik uyg’otishi mumkin. Ba’zan shunday ham bo‘ladiki, tarbiyachi uyga borganda kim bilan suhbatlashishni ham rejalashtirmaydi. Oila tarbiyasiga doir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “taklif bo‘yicha tashrif buyurish” tarbiyachining oilaga tashrif buyurishiga nisbatan tarbiyalanuvchilarning salbiyidan ijobiy, faolgacha bo‘lgan radikal munosabatlarini o‘zgartiradi.

Bola oilasi bilan aloqalarni o’rnatish shakllaridan biri dastlabki *pedagogik topshiriqni* bajarish jarayonidagi ota-onalar va tarbiyachining muloqotida aks etadi. Pedagogik topshiriqning bir necha turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bolalar bilan uzlusiz (yakka, guruhiy, jamoaviy) ishslash, faol tarbiyaviy nuqtai nazarni talab etuvchi top-

shiriq: bolalarning qiziqishlari bilan bog‘liq to‘garaklariga rahbarlik qilish va boshqalar. Tarbiyachiga tashkiliy yordam ko‘rsatishni talab etuvchi topshiriq: ekskursiyani tashkil etishga yordamlashish (transport, yo‘llanma bilan ta’minalash); taniqli kishilar bilan uchrashuvlarni tashkil etishga ko‘maklashish; guruh xonasini jihozlashga yordamlashish. Xo‘jalik vazifalarini hal etishga qaratilgan, ta’lim muassasasining moddiy bazasini rivojlantirish va mustahkamlashni talab etuvchi topshiriq: xonalarni jihozlash, o‘quv jihozlari va qurollarini tayyorlashga ishtirok etish; ta’mirlash ishlariga yordam berish.

Pedagogik topshiriqlarning sanab o‘tilgan mazkur turлari ota-onalarning ijtimoiy ishlarining barcha turlarini qamrab olmaydi. Ota-onalarga ular nima bilan shug‘ullanishni xohlayotganliklari bo‘yicha savol bilan murojaat va anketa to‘ldirishni taklif etish mumkin.

Pedagogik maslahat asosida ota-onalarning savollariga javob berish asosiy o‘rin egallaydi. Maslahatning pedagogik-psixologik shartlari o‘zida tarbiyachi va psixologning ota-onalarning tashabbuslariga ijobiy munosabati, oilaga yordam ko‘rsatishga tayyor turish, ota-onalarda paydo bo‘lgan savollar bo‘yicha aniq tavsiya maslahatlar berishni aks ettiradi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Oila tushunchasi va uning mohiyatini tushuntiring.
2. Oilaning vazifalari va funksiyalari.
3. Maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan ish-lash shakllari.
4. Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi. – T.: 2006, 25-bet.

-
2. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2009. – B.12-13.
 3. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – T., 2006. – B.10.
 4. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi – T., 1999. – B.20-21.
 5. Obshaya pedagogika / Pod. red. V.A. Slastenina. – M.:Vlados, 2003. – CH.2. – S.224.
 - 6.Fitrat, Abdurauf. Oila yoki uni boshqarish tartiblari. -Toshkent, Ma’naviyat, 2016. 168 b.
 7. Davronova D. Oilada voyaga yemagan bolalarning ijtimoiy ongini tarbiyalash tizimini rivojlantirishda “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi. -Toshkent, Nishon noshir, 2018. -38 b.

16-bob. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHISINING ISH FAOLIYATI

16.1. Fransiyada maktabgacha ta'lism tarbiyachisining ish faoliyati.

16.2. Finlyandiyada bolalar bog'chasi tarbiyachisi.

16.3. Maktabgacha ta'lism tarbiyachisining professio-grammasi.

16.1. Fransiyada maktabgacha ta'lism tarbiyachisi- ning ish faoliyati.

Fransiyada maktabgacha ta'lism - mamlakatda eng ko'p e'tibor beriladigan soha. Yosh fransuzlarni rivojlantirish va ijtimoiylashtirish - hukumatning eng uztuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Fransyada birinchi maktabgacha ta'lism muassasasi 1770-yil paydo bo'lgan. 1826-yilga kelib bu soha rivojlanishni boshladi. 1830-yil davlat bog'chlarni o'z qaramog'i-ga oldi.

2019-yildan boshlab Fransiyada 3 yoshdan boshlab maktabgacha ta'lism olish fransuzlar uchun majburiy etib belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 98% markaziy fransiyada yashovchi kichik fransuzlar maktabgacha ta'lism muassasalariga boradi. Ammo mamlakat janubida bolalarning 30% dan ko'prog'i bog'chaga bormaydi.

Fransiyaning maktabgacha ta'limi o'z ichiga 3ta bosqichni oladi. Bola 3-4 yoshida asosiy faoliyati o'yindan iborat bo'lib, yangi sharoitga moslashadi, ular bilan hech qanday mashg'ulotlar o'tilmaydi. 4-5 yoshdan boshlab tarbiyachi bilan birgalikda rasm chizish va narsa yasash mashg'ulotlari muntazam o'tkaziladi. Katta guruhda esa

5-6 yoshli bolalar mактабга тайланади. Bolalar harflarni о‘рганади ва qо‘лларини yozishga o‘rgatadi.

Bog‘chalar haftasiga 5 kun ishlaydi. Ish kuni 6 soatdan iborat – 3 soat tushlikdan oldin va 3 soat tushlikdan keyin,

Fransiya maktabgacha ta’limi faqat bog‘chani emas, balki yaslini ham qamrab oladi. Ko‘plab ota-onalar bunday guruhlarga bolalarini 4-6 oydan boshlab beradi. Har bir tarbiyachiga 4-5 tadan bolalar to‘g‘ri keladi.

Fransuz bog‘chalarida kunlik ish vaqtি qisqa. Majburiy tushlik - tanaffus bor. Bu paytda ota-onalar yoki enaga bolalarni uylariga olib ketadilar va ovqatlanib, yana ikki soatga olib keladilar. Bog‘chalarda kunduzgi uyqu kamdan-kam uchraydi. Kichik shaharlarda bog‘cha soat 4 gacha, poytaxtda esa soat 7 gacha ishlaydi, chunki ko‘p ota-onalar ishdan so‘ng bog‘chaga yetib kelishga ulgurishi kerak.

Fransiyda tarbiyachilik kasbi istiqbolli va sharafli. Bog‘chalarga ishchilar ko‘plab nomzodlardan saralab olinadi, shuning uchun tarbiyachilar nafaqat pedagogik ta’limga ega, balki bolalar yaxshi ko‘rishi va ularning ko‘ngliga yo‘l topa olishi kerak.

Malakali tarbiyachilar bolalarning yutuqlarini, masala-larga yechim topish ko‘nikmasini, xotirasining rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini doimiy ravishda kuzatib boradi. Bu sifatlarning barchasi tengdoshlari bilan o‘zaro munosabat va kommunikativligida rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisiga munosabat juda yuqori va talabchan. Bolalarni xafa qilish mumkin emas - ularni xavfli mashg‘ulotlardan chalg‘itish kerak, bolalarni majburlash ham mumkim emas - ularni qiziq-tirish kerak. O‘yin faoliyatiga asosiy rivojlantirish shakli sifatida katta guruhda ham e’tibor qaratiladi.

Tarbiyachi bolalarga qog‘irchoq teatrini qo‘yishni o‘rgatadi.

Bolalar bog‘chasida ta’lim bepul. Faqat ovqatlanish uchun to‘lov qilish mumkin yoki bola o‘zi bilan birga uyidan ham ovqat olib kelishiga ruxsat beriladi. Bog‘chaning barcha xarajatlari mahalliy hokimiyat tomonidan qoplanadi.

Fransiyadagi bog‘chalarning o‘n foizi katolik. Mashg‘ulotlarga teng holda, katolik bog‘chalarida bolalar maxsus mashg‘ulotlarga bir haftada bir soatdan ko‘p bo‘lmagan vaqt ajratiladi.

Fransiyadagi noyob holat - ota-onalar bog‘chalari. Bu xususiy bog‘chalar ota-onalar guruhi tomonidan tashkil etiladi. Ularda tarbiyachilar va enagalar bor, lekin har bir bolani ota-onasi hafta davomida yarim kun vaqtini o‘tkazadi, bu payt ular bolalarga qarashda ko‘maklashadi yoki biror zarur yumushlarni bajarishda yordan beradi. Bu bog‘chalar pullik bo‘lib, bolani o‘qish puli ko‘plab omillarga qarab belgilanadi, ulardan biri bu oilaning daromadi.

Fransiyaning xususiy maktablariga 10% gina bolalar boradi. Bularning aksariyati xalqaro maktablar bo‘lib, darslar ingliz tilida yoki ikkita tilda olib boriladi.

Mazkur maktablarning aksariyatida bolalar bog‘chalari mavjud. Ular bolalarni uch yoshdan boshlab qabul qiladi. Bolalar ingliz tilini o‘rganadilar va ikkita tilda ta’lim olishga tayyorlanadi.

Bolalar bog‘chasidagi 5-6 yoshli bolalar hayoti haqida to‘xtalib o‘tamiz.

5-6 yoshli bolalar mashg‘ulotlarni tanlashda ancha erkin bo‘ladilar.

Maxsus peshlavhalarda bugun shug‘ullanishi lozim bo‘lgan faoliyat turlari - yozish, o‘qish, chizish, matematika ko‘rsatib qo‘yiladi,

Jo‘da ko‘p kitoblardan, albomlardan, plakat va jurnalardan foydalilanigan holda grafik naqshlar chizish orqali qo‘llarini yozishga tayyorlaydi.

Kesish, o‘lhash, o‘xshashini topish, yaratish, farqlarini topish kabi mashqlar bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi.

Stol-bosma o‘yinlari bolalarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. Vaqt haqidagi tushunchalarning shakllantirilishi orqali kalendar (taqvim) bilan tanishadilar, rasmlarni guruhlshtirish orqali vaqt bo‘yicha ketma-ketlikni tushunadilar.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida jamoada qoidalar bilan o‘ynashga o‘rganadilar.

Katta guruuhda kun tartibi quyidagicha: ertalab bolalar 15 daqiqa davomida qabul qilinadi, (ular chizadilar, yasaydalar, o‘ynaydilar). 15 daqiqada hamma yig‘iladi va har bir bolaga ularning majburiyatlari eslatiladi (gullarni sug‘orish, qushlarni oziqlantirish, bugungi kun sanasini yozish va boshqalar).

Keyin bolalarga bugungi mashg‘ulotlar haqida gapirib beriladi, ular guruhlarga bo‘linadi, mahorat burchaklariga yuboriladi. Bir soat davomida shug‘ullanadilar, so‘ng tarbiyachi bajarilgan ishlarni tahlil qiladi. So‘ng bolalar nonushta qiladilar, yarim soat davomida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadilar, undan keyin dam olmaydilar. O‘ttiz daqiqalik xor jamoada qo‘shiq aytish mashg‘ulotiga qatnashadilar. Ba’zan ritmni mashq qiladilar, ba’zan esa musiqa tanglaydilar.

Sayrdan keyin bolalar oshxonada tushlik qiladilar, so‘ng 30 daqiqa nutq o‘stirish mashg‘ulotida bo‘ladilar. Kichik guruhlarda rasm chizish, qo‘l mehnati, daraxtga ishlov berish, yasash mashqlari bilan band bo‘ladilar. Har biri kamida ikki xil mashg‘ulot turida qatnashishi shart. Mashg‘ulotlardan so‘ng sayrga chiqiladi, kechki tushlik qilinib, bolalarga ertak aytib beriladi va erkin o‘yinlar o‘ynashga ruxsat beriladi.

Ko‘p muassasalarda bolalar qaysi kuni qanday mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishni bolalarning o‘zları

xohishiga qarab tanlaydilar. Bularning barchasi oldindan tayyorlab qo‘yilgan jadvalda belgilanadi. Lekin bolalar hafta davomida barcha mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi kerakligini biladilar. Muhimi bir tomonidan, bolalar barcha mashg‘ulotlarda qatnashishilari majburiy, ikkinchi tomonidan, tanlash huquqiga ega.

Fransiyada barcha maktabgacha muassasalari uchun majburiy bo‘lgan yagona davlat ta’lim dasturi amal qiladi.

Maussasadagi ishlar jiddiy nazorat qilinadi. Asosiy e’tibor nodavlat ta’lim muassasalariga, bolalarning huquqlari va qiziqishlarining ta’minlanishiga qaratiladi, umumiy dastur asosida uslubchilar tomonidan aniq metodikalar ishlab chiqiladi. Shuning uchun ularda doim variativ metodikalar bo‘ladi.

Tizimni takomillashtirish kamroq markazlashtirishga, moslashuvchan ta’limga, ochiqlikka, bolalarni ko‘proq jalb qilishga qaratilgan yo‘nalishda, lekin yuqori akademik standartni saqlagan holda olib boriladi.

Shuningdek, musiqiy madaniyatni shakllantirishga, kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish orqali ijtimoiy munosabatlarga, yuqori darajadagi qulaylikka, tengdoshlari bilan muloqot qilishga qaratilgan ta’lim dasturlari taklif qilinadi.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni reabilitatsiya qilishga asosiy e’tibor qaratiladi. Mutaxassislarning hisoblashicha, ota-onalarning roli juda chuqur o‘rganilishi kerak, ular muassasalarga har tomonlama yordam berishi kerak.

Tarbiyachi - maktabgacha yoshdagি bolalar ta’limi va tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi pedagog.

Fransiyada birinchi MTMlari 1769-yilda tashkil togan.

Ular “to‘qish maktablari” deb nomlanib, Fransiya shaxrida yashagan Oberlen ismli pastor kambag‘al oilalarning bolalarini yig‘ib, ularni qo‘l mehnatiga o‘rgatgan. Uning asosiy maqsadi bolalarga ovqatlanish va issiq joyda bo‘lish

imkonini berishdan iborat bo‘lgan.

Keyinchalik uning shakli va mazmuni o‘zgarib, “to‘qish maktablari” 1881-yildan milliy ta’limning poy-devori “onalar maktablari” (ecoles materneiies)ga aylan-gan.

Nemis pedagogi Fridrix Frebel kuzatuvi ostida XX asr boshida Fransiyada birinchi bolalar bog‘chalari ochilgan.

Ular dastlab Frebel, keyinchalik Mariya Montessori, Ovid Dekorli, Rudolf Shtayner va Selestsen Fren metodikalaridan foydalanganlar.

“Onalar maktabi” xalq orasida juda tez o‘z o‘rnini topdi.

Hattoki Fransiyada bugungi kunda ham “Onalar maktabi” saqlab qoltingan. Avvalgidek, bunday maktablarga borish majburiy emas.

16.2. Finlyandiyada bolalar bog‘chasi tarbiyachisi.

Finlyandiyada yuqori darajadagi ta’lim tizimi yo‘lga qo‘ylgan. Maktablar o‘rtasidagi natijalar farqi katta emas. Bar-cha bolalar belgilangan muddatda maktablarni tamomlaydilar.

Tayyorlov, o‘rta maktab va ta’limning ikkinchi boqichi bepul.

Oilalarning qancha daromad olishidan qat’iy nazar bolalarning sifatli ta’lim olishi va mamlakatning faol fuqarosi bo‘lishi maqsadi qo‘ylgan.

Ta’lim tizimi o‘z ichiga maktabgacha tarbiyani ham qamrab oladi.

Finlyandiyada maktab yoshiga yetmagan har bir bola maktabgacha tarbiya olishga haqli. Maktabgacha tarbiya mahalliy hokimiyat boshqaruvidagi va oila bog‘chalarida beriladi. Bola ota-onaning biri bilan bolalar maydonchasi-dagi mashg‘ulotlarga qatnashishi mumkin.

Agar bolaning ota-onasi o‘qisa yoki ishlasa bola haftasiga 20 va undan ko‘proq soat bog‘chada bo‘lishi mumkin. Maktabgacha tarbiyaning maqsadi bolalarning rivojlanishi

va farovonligi uchun ko‘maklashishdan iborat. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning mayda motorikalari, muloqotga kirishishi, shuningdek, kelgusida uning o‘qishi uchun kerak bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar.

Hafta davomida bolalar ko‘p o‘ynaydiar va sayr qiladilar. Agar fin yoki shved tili bolaning ona tili bo‘lmasa, bu tillarni bolalarning o‘rganishiga ko‘maklashiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ham korreksion yordam olishlari mumkin.

Finlyanliyada xususiy bog‘chalar ham mavjud. Bolalar bilan malakali tarbiyachi va pedagoglar ishlaydilar.

Ota-onalardan biri uyda bolani parvarish qiladi. Yoki bolaning 9 oyga to‘lguniga qadar ota-onalar ta’til olishlari mumkin. Agar ota-onalardan biri bolaning 3 yoshga to‘lgunicha uyda parvarish qilishni xohlasa ish joyidan o‘z hisobidan mehnat ta’tili olishi mumkin. Bunday holatda oylik maoshi saqlanmaydi.

Ota-onalar bolalarni berish uchun quyidagi muassasa-larga ariza berishi mumkin:

- Bolalar bog‘chasiga;
- Guruqli oilaviy bolalar bog‘chasi;
- Oilaviy bolalar bog‘chasi.

Bolalar bog‘chasida bolalar guruhi soni guruqli oilaviy bog‘chalarnikiga qaraganda ko‘proq. Oilaviy bolalar bog‘chalarida tarbiyachi bolalarga o‘z uyida qaraydi. Ayrim tarbiyachilar oilaviy kunduzgi parvarish uchun bolalarning uylariga ham borishi mumkin.

Mahalliy hokimliklarning bolalar bog‘chalariga bolani berishni rejorashtirgan muddatdan 4 oy oldin ariza berilishi kerak. Finlyandiyada xususiy bog‘chalar quyidagicha tashkil etiladi:

- xususiy bolalar bog‘chada yoki guruqli oilaviy bolalar bog‘chasi;
- oilaviy bolalar bog‘chasi;
- oila-uyga tarbiyachini yollashi mumkin.

Agar ota-onan uygaga tarbiyachi yollasa, ish beruvchi hisoblanadi va ish beurvchining mas'uliyati yuklatiladi. Ba'zan oilalar kelishgan holda uygaga tarbiyachini yollashlari ham mumkin.

Mahalliy hokimiyat xususiy bog'chalar ustidan nazoratni olib boradi.

Bolalar bog'chasida tarbiyachi turli tadbirlarni tashkil etadi. Masalan o'yinlar, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, musiqa va qo'l mehnati, sayr yoki ekskursiyalar. Kun davomida bolaning kunduzgi uyqusi uchun ham vaqt ajratiladi. Tarbiyachi tadbirlarda asosiy e'tiborni bolalarning rivojlanishiga va ta'lim olishiga qaratadi. Bolalar ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirib boradilar.

Kun davomida bolalar 3 marta ovqatlantiriladi: nonushta, tushlik va kechki tushlik. Agar bola diyeta qilayotgan bo'lsa, bu haqida maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogiga xabar berishi kerak bo'ladi.

Bolalar bog'chasida ish kuni odatdagidek ertalab boshlanadi va kunning ikkinchi yarmida yakunlanadi. Ayrim bolalar bog'chalari va oila bog'chalari ota-onalarning ish yoki o'qishi turidan kelib chiqib, kechasi-yu kunduzi ishlaydi.

Finlyandiyada ingliz tilidagi bolalar bog'chalari ko'p. Ular asosan xususiy bog'chalar. Mahalliy hokimliklarning bolalar bog'chalari fin tilida so'zlashuvchi oilalarning bolalarini qabul qiladi, xohlovchilarga ingliz tilini o'rgatadi.

Katta shaharlarda nemis, fransuz, ispan va boshqa tillardagi bolalar bog'chalari ham faoliyat olib boradi.

16.3. Mamlakatlarda maktabgacha ta'lim-tarbiya-chisining professiogrammasi.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi va pedagogi mas'uliyatli va sharaflı kasb. Tarbiyachi millat kelajagini, o'sib kelayotgan yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirish uchun javobgar.

Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi – bu nafaqat kasb, balki e’tirokdir. U – qalb me’mori. Tarbiyachi bolalariga o‘z qalbidan mehr beradi, hayotining eng mazmunli yillarini bolalarga bag‘ishlaydi, lekin qilgan mehnati uchun maqtovlar kutmaydi. Tarbiyachi bolalarni jamiyatning axloq qoidalari bilan tanishtiradi, ularni o‘ynatadi, sayr qildiradi, kun tartibi asosida ularning kundalik hayotini tashkil etadi va bolalarning salomatligi uchun javobgar hisoblanadi.

Bolalar bog‘chasi tarbiyachisi bolalarning ikkinchi “Onasi” bo‘lib qoladi.

Tarbiyachi faoliyat olib borayotgan yosh guruhi uchun o‘quv rejasini ishlab chiqadi, mashg‘ulotlarni olib boradi va bolalarning o‘zlashtirishini motitoring qilib boradi.

Bolalar bog‘chasi tarbiyachisi o‘zining hamkasblari yoki tajribali pedagoglar bilan fikr almashadi, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan hamkorlikda ishlaydi. Bolalar bog‘chasining pedagogik va metodik kengashlarida, uslubiy kengashlarda, ota-onalar yig‘ilishi va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etadi.

Tarbiyachi professiogrammasi deganda mazkur kasbning o‘ziga xosligi, unga qo‘yiladigan talablar majmuasi tushiniladi. Professiogrammaga tarbiyachining gigiyenik va psixologik tavsifi kiritilishi va u quyidagi savollarga javob berishi kerak:

Mazkur kasbning mohiyati nimada?

Mutaxassis qanday faoliyat bilan shug‘ullanadi?

Mehnat faoliyati qanday sharoitda tashkil etiladi.

Mutaxassislarni tayyorlashga qanday talablar qo‘yiladi?

Mustaxassislikni yaxshi egallashi uchun qanday qobilayatlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Mazkur mutaxassislikni egallagan shaxsning ishga joylashishi oson va qulaymi?

Qancha daromad olishi mumkin.

Lavozim pillapoyalaridan o‘tishi uchun qanday imkoniyatlar bor?

Kasbiy tasnifi	Tarbiyachining ishi - mas'uliyatli mashg'ulot. Shuning uchun mutaxassis ta'lif, tarbiya, pedagogika, psixologiya va gigiyena masalalari bo'yicha qonunchilikni bilishi va va faoliyatiga tatbiq eta olishi kerak. Asosan tarbiyachining qaramog'ida butun guruh bolalari bo'ladi. U bolalar bilan binoda va tashqarida mashg'ulotlar olib boradi. Turli shikastlanishilarning oldini olish uchun tarbiyachi javobgar. Agar kutilmagan holatlar sodir bo'lgan taqdirda tarbiyachi birinchi tibbiy yordamni ko'rsata olishi kerak.
Kasb tarixi	Tarixdan ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasi onalarning majburiyati bo'lib kelgan. Qadimgi Gretsiyada bolalar tarbiyasi bilan qullar shug'ullanigan. O'sha davrdan boshlab uy tarbiyachisi kasbi shakllangan. Zamонавијај јамијатда о'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lif-tarbiyasi faoliyati bilan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari shug'ullanadi. Tabiiyki, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kelib chiqadi. Bunday mutaxassislar - tarbiyachilardir.
Ish joyi	Bolalar bog'chasida, guruhda, sport zalida, ochiq havoda, sayr qilish uchun mo'ljallangan maydonchada ishlaydi. Ish joylari bolalar bog'chalarida, rivojlantiruvchi markazlarda, xususiy bolalar bog'chalarida. Mansab pillapoyalarida o'sish imkoniyati katta emas: bilim darajasining oshishi, ish stajini ko'payishi oylik maoshining ortganida kuzatiladi. Faqt maktabgacha ta'lif muassasasi mudirasi lavozimiini egallashi yoki ta'limning boshqaruv organlarida ishlashi mumkin. Xususiy bolalar bog'chasini oolib yoki rivojlantiruvchi markaz tashkil etib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.
Kasbiy malakasi	Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolaning ta'lif olishi va rivojlanishi uchun ishlab chiqilgan dastur bilan shug'ullanadi. Bunga o'qish, rasm chizish, tabiatshunoslik va narsha yasash, og'zaki hisoblash ko'nikmalari kiradi. Mutaxassis bolalar bilan o'ynaydilar, diqqatini rivojlantirishga yo'naltirish, tasavvurini shakllantirish, muomala madaniyati, shuningdek , etika va estutika

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Bernadett Mussi. Shkola i detskiy sad: parallelnaya istoriya // EJE-Journal. 2010
2. Organizatsiya doshkolnogo obrazovaniya vo fransii: ot istorii k sovremennosti. © M.Yu. Osnovina Yasli “Les Diablotins” (Frantsiya, Lion) // povoljskiy pedagogicheskiy vestnik. 2013. №1, - S. 175-179.
3. <https://allterra.ru/articles/177895/>
4. <https://www.prodlenka.org/375414/>

17-BOB. BOLA HUQUQLARI KAFOLATLARINING QONUNCHILIK ASOSLARI

17.1.O‘zbekistonda bola huquqlarining himoya qilinishi.

17.2. Bola huquqlarining himoya qilinishi, uning rivojlanish tendensiyalari va huquqiy asoslarining mustahkamlanishi.

17.3.Bola huquqlarini himoya qilishda hamkorlik.

17.1. O‘zbekistonda bola huquqlarining himoya qilinishi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilin-ganining 27 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali yig‘ilishda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash borasida fikr bildirar ekan: “Biz jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzlusiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta’lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko‘nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi zarur”, deb ta’kidladi.

Bu boradagi aniq maqsad va vazifalarni belgilashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

- bolalar farovonligini ta’minlashga qaratilgan qonunlar va qonunosti hujjalarni o‘qituvchilar va ota-onalarga tushuntirish ishlarining samarali shakl, metod va vositalarini aniqlash, amaliyotga tatbiq etish;

- bolalarga ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlan-tirish sifatini oshirish maqsadida uzlusiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- mamlakatimizda bolalar farovonligini ta'minlashda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish;
- bolalarni bugungi kunda ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, huquqbuzarlik, jinoyat va boshqa g'ayriij-timoiy xatti-harakatlar sodir etishga undayotgan “omma-viy madaniyat” ta'siridan asrash;
- bolalar huquqlarining ta'minlanganlik darajasini monitoring qilish tizimini takomillashtirish;
- bolalar farovonligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini yanada kuchaytirish;
- bola huquqlari, bola huquqlarining himoyalanishi, bolalar savdosi, bolalarga nisbatan zo'ravonlik kabi holatlarni tushunish uchun bolalarda, avvalo, bola huquqlariga oid tushunchalarni shakllantirish talab etiladi.

Bunday tushunchalarni umumiy o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab shakllantirish ularda huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy dunyo-qarash shakllanishiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bola huquqlari, ayniqsa, ularni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Agar mazkur sohada qonunchilik xronologiyasiga murojaat qilsak, birinchi navbatda, bizning e'tiborimizni Konstitutsiyamiz tortadi. Jumladan, ta'lim olish, sog'liqni muhofaza qilish, mehnat qilish va boshqa bir qator huquqlar O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilab berilgan. Bundan tashqari, 1992-yil 9-dekabrda, ya'ni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning ertasiyoq, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya O'zbekiston qo'shilgan inson huquqlariga oid dastlabki xalqaro hujjatlardan biri bo'ldi. Bu esa “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishiga asosiy turtki bo'ldi. Bugungi kunda bola huquqlarining kafolatlanishini davlat siyosati darajasida amalga oshirish va himoya qi-

lish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid bir qator qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlari, “Oila” hamda Mehnat kodekslari o‘z ifodasini topgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bola huquqlarini ta’minalashga doir qator farmon va qarorlari qabul qilinib, sohalar kesimida ijroga qaratildi. Jumladan, ta’lim tizimida yangi 11 yillik umumiyoq o‘rtalama ta’limning majburiy etib belgilanishi, kasb-hunar ta’limining 11 yillik baza negizida qabul qilinishi, bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etilishi, kasb-hunar ta’limining ixtiyoriyligi, oliy ta’limda kvotalangan o‘rnlarning joriy etilishi, eng muhimmi, maktabgacha ta’lim-tarbiyaning alohida yo‘nalishda belgilanishi uchun samarali mexanizm yaratib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentabrdagi “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3274-sonli, “Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internatini va “Astronomiya va aeronavtika” bog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3275-sonli, 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276-sonli, 2017-yil 26-sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3289-sonli, 2017-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun

nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomil-lashtirish to‘grisida”gi PQ-3290-sonli Qarorlari umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

Bola huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi xalqaro huquqiy hujjatlar ro‘yxati Inson huquqlari umum-jahon deklaratsiyasi, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi bilan boshlanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ratifikatsiya qilingan dastlabki xalqaro huquqiy hujjatlardan biri Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyadir. Xalqaro huquqda bolalarning ham huquqlarga ega ekanligi Millatlar ligasi tomonidan bu boradagi birinchi xalqaro hujjat – Bola huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilingan 1924-yildayoq tan olingan edi. Keyinroq, 1948-yilda, BMT tomonidan qabul qilingan inson huquqlari umum-jahon deklaratsiyasi va mintaqaviy xarakterdagi aynan shu yildagi Inson huquqlari va burchlari Amerika deklaratsiyasi kabi inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarda insonning zo‘ravonlik, qattiq va shafqatsiz muomala hamda ekspluatatsiyadan xoli bo‘lish huquqlari kengroq mazmun bilan boyitildi. Bu huquqlar barcha insonlarga, shu jumladan, bolalarga ham birdek tegishli bo‘lib, 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktda yanada rivojlantirildi va ularning ko‘lami kengaytirildi.

Bola huquqlari haqida alohida va maxsus tartibda aniq-ravshan belgilab berilgan yangi xalqaro hujjat ishlab chiqish zarurati xalqaro hamjamiyat tomonida bir ovozdan e’tirof etilib, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yilda Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya qabul qilindi.

Ushbu hujjat orqali O‘zbekiston ham Konvensiya qoidalari va prinsiplariga rioya qilish majburiyatini hamda jahon hamjamiyati oldida javobgarlik masalasini o‘z zimmasiga oldi. Lekin, shunga qaramay, dunyoda bola huquqlarining

buzilishi eng ko‘p uchraydigan holat sifatida davom etmoqda. Bola huquqlari ta’minlanishi va ularga amal qilinishini nazorat qilib, kuzatib borishga mas’ul xalqaro toifadagi organ – Bola huquqlari qo‘mitasi huquq tarixida birinchi mafrota ushbu hujjatga ko‘ra tashkil etilgan.

Bola huquqlarining eng sodda ko‘rinishi har bir bolasning o‘ziga yetkaziladigan ziyon (zarar)dan himoya qilinish huquqiga aloqador masalalarni atroflicha muhokama qilishdan iboratdir. Bola huquqlarini himoya qilish keng qamrovli, zudlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni, jumladan, uy-joy yoki maktablarda kuzatiladigan zo‘ravonlik singari ayrim holatlarni qamrab oladi”.

Bola huquqlarining buzilishi inson huquqlari buzilishi bo‘libgina qolmay, bolalarning salomatligi va rivojlanishi ga qarshi qaratilgan, jamoatchilik tomonidan tan olinmagan hamda ommaga yetarlicha ma’lum bo‘lmagan ulkan to‘sqidir. Zo‘ravonlik, qo‘pol va shafqatsiz muomalaga, ekspluatatsiyaga mahkum etilgan bolalar:

- umr qisqarishi;
- jismoniy va aqliy salomatlikka putur yetishi;
- ta’lim muammolari (bu, o‘z navbatida, maktabga muntazam qatnamaslikni ham o‘z ichiga oladi);
- o‘zlarini kelgusi hayotlarida ota-onalik uchun lozim bo‘lgan yetarli malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lmaslik;
- uysizlik, daydilik va muqim turar joylaridan haydalish xavfi ostida yashamoqdalar.

Inson tug‘ilishi bilan muayyan huquqlarga ega bo‘ladi. Ammo, bola o‘z haq-huquqini himoya qila oladigan darajaga yetguniga qadar uning manfaatlarini qonun kuchi bilan himoya qilish zarurati paydo bo‘ladi. Jamiyatda bola huquqlarini ta’minlashda ma’lum bo‘shliqlar yuzaga kelayotgani bu borada idoralararo muvofiqlashtirish faoliyati sustligini ko‘rsatdi. Bola huquqlarining turli ko‘rinishlarda buzilishi holatlari bo‘yicha aybdorlarni jazolash bilan sa-

marali natijaga erishib bo‘lmaydi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, dunyoda bolalar huquqlari eng ko‘p buzilishiga asosiy sabab ham aynan ularning yoshligi bilan bog‘liq. Jumladan, bolalar ovoz berish huquqiga ega emas, sud tizimida o‘z huquqlarini himoya qilishda jiddiy muammo-larga duch keladi.

Jahonda har ikki soatda bolalar ombudsmaniga voyaga yetmaganlardan ikkitadan murojaat kelib tushadi. Ular nafaqat bolalarning huquqlari buzilishi holatiga taalluqli, balki murakkab vaziyatlarda maslahat berish bo‘yicha il-timoslar hamdir. Bu kabi holatlar xalqaro huquq tizimida bolalarning huquq, imtiyoz va kafolatlarini qamrab oluvchi “bola huquqlari” degan sohani yuzaga keltirdi va har bir jamiyat oldida voyaga yetmaganlarning huquqlarini qonuniy kafolatlash vazifasini qo‘ydi.

Ayni paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bolalar va yoshlar siyosati yuqorida qayd etilgan hujjatlarda ko‘zda tutilgan qoidalarga asoslanadi. Ular Konstitutsiyamiz, qonunchiligidizda o‘z in’ikosini topgan.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizi yoki 12 milliondan ortig‘ini aynan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Shu bois xalqaro ekspertlar bu haqida to‘xtalganda, “O‘zbekiston – yosh, mustaqil va dinamik tarzda rivojlanayotgan davlat” ekaniga alohida urg‘u beradi.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekistonda bolalarning bilim olish huquqi, vijdon erkinligi va diniy e’tiqodi huquqi, mehnatga oid munosabatlari, sud amaliyotida himoya qilish, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish borasida katta tajriba to‘plandi.

O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda bolalar farovonligini ta’minlash masalasiga davlat siyosati darajasida qaralib, quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

1) bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy

asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;

2) aholi reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, tibbiy xizmat moddiy-texnik bazasini mustahkamlash asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish ishlarini yanada kuchaytirish;

3) ta'lim sohasi moddiy-texnik bazasini shakllantirish va undan samarali foydalanishni ta'minlash, real iqtisodiyot tarmoqlarida talab qilinayotgan mutaxassislarini tayyorlash, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish;

4) ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini mustahkamlash, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash;

5) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish;

6) yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish ishlarini kuchaytirish, yoshlarни sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yangi sport majmularini qurish va ularni jihozlar bilan ta'minlash;

7) yoshlarni, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, ayniqsa, qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish;

8) yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yoga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, fanni yanada rivojlantirish hamda iste'dodli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish;

9) yosh oilalar to'g'risida g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oila qaror toptirish uchun

shart-sharoitlar yaratish;

10) yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyil-larini qaror toptirish, ularni chetdan kirib keladigan past saviyali "ommaviy madaniyat" illatlarining zararli ta'siri va tahdidlaridan muhofaza qilish;

11) ommaviy axborot vositalari orqali O'zbekistonda bola farovonligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayot-gan davlat dasturlarining maqsadi, mazmuni va ahamiyati to'g'risida tushuntirish ishlarini tizimli asosda tashkil etish.

Ushbu ustuvor yo'nalishlarda belgilangan maqsadlar-ni amalga oshirishda BMT qo'mitalarining bola huquqlari va xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni masalalaridagi tavsiyalari, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi, "Bolalar yashashi uchun maqbul dunyo" hujjati, Rivojlanish maqsadlarida ko'maklashish umumiyl dasturi (YUNDAF), "O'zbekiston YUNISEF" hamkorlik dasturi, O'zbekiston aholisi farovonligini oshirish strategiyasi, "Sen yolg'iz emassan" jamg'armasi va Respublika bolalar ijtimoiy mos-lashuvi markazi tomonidan bolalar farovonligini yanada yaxshilash strategiyasi asosida turli darajadagi dasturlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Dasturlarda bolalar faro-vonligini ta'minlanishning muhim qoidalari belgilandi:

Birinchidan, bolalar farovonligini ularning huquqiy himoyalanganligi, salomatligi ahvoli, hayotining qulayligi darajasi sifatida baholash lozim. Bu onalar, oila farovon-lic bilan uzviy bog'liq, ya'ni bola sog'ligening ahvoli ona sog'ligi, oiladagi ruhiy holat va boshqa omillarga bog'liq, uning hayoti barqarorligi esa yashash sharoiti, daromad da-rajasи, oilaning ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariiga qarab hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, bolalar farovonligi darajasi quyidagi ma-salalar qanchalik to'liq va sifatli hal qilinishiga bog'liq: onalar va bolalar huquqlarining ta'minlanishi; oila qu-rish va to'laqonli hayot kechirish uchun maqbul sharoit

yaratilishi; oila moddiy ahvolining yaxshilanishi; oilaning mehnatga layoqatli a'zolari, ota-onaning bandlik holiati, ularning daromadlari darajasi; onalar salomatligining himoya qilinishi; homila, yangi tug'ilgan chaqaloqlar va barcha yosh guruhidagi bolalar va o'smirlar salomatligi muhofazasi; (maktabgacha, maktabda, maktabdan tashqari, o'rta kasb-hunar ta'limida) sifatli ta'lim va tarbiya olish.

Uchinchidan, bolalar farovonligini ta'minlash muammolarining murakkabligi va ko'p qirraliligi o'z yechimi uchun korporativ, davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari ning yanada keng ishtirokini talab etadi.

To'rtinchidan, bolalar farovonligini yaxshilashni boshqarishda demokratik tamoyillarni kengroq qo'llash, quyi bo'g'inlar tashabbuslarini rivojlantirish, bu jarayonlarga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar va oilalarning o'zini jalg qilish lozim.

Beshinchidan, bu sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish, bolalar farovonligi muammolarini hal qilishga xorijiy institutlar, donorlar va homiyilar salohiyati va resurslari ni jalg qilish maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekistonda bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Harakat dasturi qabul qilinib, dasturning asosiy yo'nalishlari doirasida quyidagi mexanizmlar joriy etildi:

- milliy darajada maqsadlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha umumiy sa'y-harakat ko'lami, ustuvor yo'nalishlar va mo'ljallar belgilandi;

- milliy maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik hamda mintaqaviy va mahalliy darajada bolalar farovonligini yaxshilash tizimi shakllantirildi;

- bolalar farovonligi maqsadlariga erishishni baholash va monitoring qilish mexanizmi yaratildi.

17.2. Bola huquqlarining himoya qilinishi, uning rivojlanish tendensiyalari va huquqiy asoslarining mustahkamlanishi.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun biz hayotimizning barcha jabhalarida konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirishimiz zarur. Bu esa, pirovard natijada, inson huquq va erkinliklarini, uning sha’ni, qadr-qimmati, mol-mulkiyning daxlsizligini saqlash, fuqarolarning mehnat qilish, ta’lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish kabi eng asosiy huquqlarini to’la ta’minlash imkonini beradi.

Inson huquqlari tushunchasi konstitutsiyaviy va xalqaro huquqda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, uning maqsadi davlat organlari tomonidan hokimiyatning suiiste’mol qilinishiga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish, shu bilan birga, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga institutsiyaviy vositalar bilan ko‘maklashishdan iborat.

Inson huquqlari:

- universal bo‘lib, har qanday holatda barchaga tegishlidir;
- tabiiy bo‘lib, tug‘ilganidanoq inson bo‘lgani uchun ularga tegishlidir;
- ajralmas bo‘lib, bu huquqlardan o‘zboshimchalik bilan mahrum qilish mumkin emas.

“Bola huquqlarini himoya qilish” tushunchasi turli vaziyatlarda turli tashkilotlar tomonidan har xil ma’noda qo‘llaniladi. Bola huquqlarini himoya qilishning eng sodda ko‘rinishi har bir bolaning o‘ziga yetkaziladigan ziyondan himoya qilinish huquqiga aloqador masalalarni atroficha muhokama qilishdan iboratdir. Bola huquqlarini himoya qilish ularning salomatligini saqlash, rivojlanishi va farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bola huquqlarini himoya qilish keng qamrovli bo‘lib, zudlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni qamrab


oladi. Ular orasida maktablarda kuzatiladigan zo‘ravonlik ham alohida e’tiborni jalb qiladi. Zero, bola huquqlarining buzilishi inson huquqlarining buzilishi bo‘lib, bolalarning salomatligi va rivojlanishiga qarshi qaratilgan har qanday holatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimizda bola huquqlari va erkinliklarining ta’minlanishida muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida ilk marotaba “bola (bolalar)” tushunchasiga ta’rif berildi: “Bola (bolalar) – o’n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar)dir”. Bolaga berilgan ushbu ta’rif juda muhim, chunki “Bola huquqlari kafolati to‘g‘risida”gi Qonun kimlarni himoya qilishga qaratilganligini aniq belgilab beradi. Bu xalqaro hujjatlar bilan muvofiq bo‘lib, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 1-moddasiga ko‘ra, “18 yoshga to‘limgan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonun bo‘yicha u ertaroq balog‘atga yetmagan bo‘lsa, bola hisoblanadi”.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq har bir bolaning inson hamda fuqarolik huquqlari va erkinliklariga tegishli bo‘lgan huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq:



Bola huquqlarining kafolatlari

O‘zbekiston bola huquqlarini himoyalashga qaratilgan o‘ndan ortiq xalqaro hujjatlarga qo’shildi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha ustavi (London, 1945-yil 6-noyabr), BMT bolalar jamg‘armasi bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi asosiy shartnomma (1995-yil 22-dekabr), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Ta’lim sohasidagi kamshitishlarga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqidagi qarori (1997-yil 30-avgust), Zo‘rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to‘g‘risidagi Konvensiya (1930-yil 28- iyun, Jeneva) hamda Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risidagi Konvensiya (Jeneva, 1999-yil 17-iyun), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo’shim-

cha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori (2018-yil 10-may), BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Bosh konferensiyasi 11-sessiyasida qabul qilingan Ta’lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyaga (Parij, 1960-yil 14-dekabr) muvofiq dunyoda inson huquqlariga rioya etilishi hamda hamma uchun ta’limga teng kirish imkoniyatini ta’minalash uchun millatlar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish mexanizmlari joriy etilgan. Ushbu Konvensiyada “kamsitish” iborasi ta’lim sohasida munosabat tengligini yo‘q qilish yoki buzishni maqsad yoki natija qilib qo‘yadigan irq, tana rangi, jins, til, din, siyosiy yoki boshqa-cha e’tiqodlar, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy holat yoki utilish belgisi bo‘yicha har qanday tafovut, istisno, cheklash yoki ustunlikka barham berishga qaratilgan.

Milliy qonunchilikda bola huquqlarining himoya qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Oila, Uy-joy, Mehnat kodekslari, “Bola huquqlarini himoya qilishning kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlarida bolalarning barcha huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalar o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, Mehnat qonunchiligi, Jinoyat va jinoyat-protsessual kodeksi, Bola huquqlarining kafolatlari, Bolaga nisbatan ishlataladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish, Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunlar 18 yoshga yetmagan bolalarni huquqbuzarlik sodir etgani uchun profilaktik hisobga o‘rniga jamiyatga moslash-tirish mexanizmlarini joriy etish, Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunni unga o‘zgartish va qo‘simechalar kiritish orqali takomillashtirishni talab etadi.

Bola huquqlarini ta’minalashga doir xalqaro va milliy

darajadagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli vazirlik va idoralar, hududiy va mahalliy boshqaruv organlari qarorlarida bola huquqlarini ta'minlash yuzasidan vazifalar belgilanadi.

Bola huquqlarini ta'minlashga doir qabul qilingan xalqaro va milliy darajadagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, ijrosi ustidan nazorat olib borish mexanizmlari joriy etilgan bo'lib, ularning eng samaralisi Parlament nazorati hisoblanadi. Shuningdek, bola huquqlarini himoyalash huquqiy poydevorining mustahkamlanishi ma'muriy-tashkiliy tizimni takomillashtirish va samarali natijalarga erishish imkonini yaratdi.

Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro va milliy mexanizmlar joriy etildi.

Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi asosiy xalqaro mexanizmlardan biri Bola huquqlari qo'mitasi bo'lib, u Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga a'zo davlatlar tomonidan saylanadigan 18 a'zodan iborat. Qo'mita a'zolari o'zlariga berilgan vakolat doirasida faoliyat yuritib, biror bir davlat manfaatlarini himoya qilishlari mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Bola huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash qaysi davrda bo'lmasin nafaqat huquqiy, balki pedagogik jihatdan ham dolzarb ijtimoiy muammo hisoblangan. G'arb pedagoglarining asarlarida turlicha qarashlar va yondashuvlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, J.J.Russo inson tarbiyasida bolada erkin va ozod shaxsni ko'ra biliш tamoyiliga asoslangan. Uning fikriga ko'ra, o'z ozodligini anglagan inson o'zgalar ozodligiga ham hurmat bilan munosabat bildira oladi. O'z erki qo'lida bo'limgan inson esa birovlarining erkiga nisbatan g'ayrli munosabatda bo'ladi.

- Bolalar huquqlari himoya qilinishini ta'minlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar
- O'zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar
- O'zbekiston Respublikasining qodekslari va qonunlari
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
- O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralarining qarorlari
- Hududiy hokimliklar qarorlari

L.N.Tolstoyning fikriga ko'ra, bolaga tarbiya berishda uch tamoyil, ya'ni xalqchillik, gumanizm va demokratizm tamoyillariga amal qilish lozim. Pedagogning vazifasi esa boladagi eng noyob xulq-atvor qirralarini topib, ularni ijodiy rivojlantirish asosida bolani mustaqil hayotga yo'nalitirishdan iboratdir.

K.N.Ventsel va L.N.Tolstoy bolaning mustaqilligi tarafdori bo'lib maydonga chiqishadi. Biroq bola mustaqilligining o'ziga xos talablari mavjud. Bola mustaqilligi uning layoqatlarini inobatga olishda namoyon bo'lishi darkor. Bola layoqatiga, uning ijodiyligiga qarshi harakat qilish bola mustaqilligini cheklash bilan barobar. Shu bois, olim maksimal darajada bolada uning ijodiylik xususiyatlarini topib, faollashtirishni targ'ib etadi.

Bola shaxsiga tolerant munosabat Valdorf maktablari misolida yorqin namoyon bo'ladi. Bu yo'nalishning asoschisi Rudolf Shtayner bo'lib, birinchi Valdorf maktabi 1919-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda dunyoning 60 mamlakatida 950 ta maktab va 1400 dan ortiq maktab-

gacha bolalar maskanlarida bolaga nisbatan tolerant munosabat prinsiplari asosida ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil qilinadi. Valdorf maktablari dunyo miqyosida ish olib boruvchi eng katta mustaqil ta’lim tizimlaridan sanaladi.

Respublikamizning huquqshunos olimlari D.R.Karimova, Sh.K.Ganiboyeva, G.S.Inamdjanova, Ye.S.Sadikova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O’zbekiston hududida bola huquqlari genezisi, evolyutsiyasi va uning istiqbollari, O’zbekiston Respublikasida bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani amalgga oshirishning xalqaro-huquqiy masalalari nazariyasi va amaliyoti muammolari, ota-onalar va bolalarning huquqlarini oilada himoya qilish muammolari, huquqiy ongni shakllantirishda demokratik qadriyatlarning o‘rni masalalari o‘rganilgan.

O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida huquqiy ta’lim samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari T.K.Kudaybergenova, huquqbazarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiyaning roli va ahamiyati Z.A.Amirovning tadqiqotlari-da ilmiy pedagogik nuqtai nazardan o‘rganilgan.

T.K.Narbayeva tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi bilan bolalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etuvchi subyektlarning roli ochib berilgan.

Dastlabki o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, tadqiqot mavzusi dolzarb bo‘lib, u quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida bola huquqlari haqidagi tushunchalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj mavjud;

- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida bola huquqlariga oid tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tizimli olib borilmagan;

- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida bola huquqlariga oid tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar yetarli emas.

17.3.Bola huquqlarini himoya qilishda hamkorlik.

Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjalari buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Lekin, o‘tgan yillar davomida jamiyat hayotining turli sohalarida bola huquqlarining kafolatlari va erkinliklari to‘liq ta‘minlandi deb ayta olmaymiz. Bola huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarni ijobjiy hal qilish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi davr taqozosidir. Shu bois, 2019-yil 22-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4296-sonli “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorning qabul qilinishi mamlakatimizda bola huquqlariga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish va uni xalqaro talablarga muvofiqlashtirish imkonini beradi, chunki O‘zbekistonda yashayotgan 33 mln aholining 12 mlndan ortig‘ini bolalar tashkil etadi. Jumladan, O‘zbekiston BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasiga 1992-yil 9-dekabrda qo‘shilgan bo‘lib, u O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ratifikatsiya qilgan birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. Shundan buyon O‘zbekiston Inson huquqlari Konvensiyasini nazorat qiluvchi BMTning Bola huquqlari qo‘mitasiga munta-zam ravishda hisobot berib keladi. Mazkur hisobotlar Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi tomonidan tadqiqiy va tahliliy materiallar asosida tayyor-lanadi. Ma’lumki, taqdim etilgan hisobotlarda O‘zbekiston tomonidan Konvensiyaning ayrim talablari bajarilmayot-ganligi bir necha marotaba qayd etilgan bo‘lib, buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- milliy qonunchiligidan bola huquqlariga oid ayrim kemtikliklarning mavjudligi;

- ota-onasi ajrashgan oilalarda bolalarga aliment to‘lashda jiddiy muammolar mavjudligi, ya’ni aliment to‘lovchi uni o‘z vaqtida to‘lamaganligi;

– bola huquqlariga oid masalalarda sndlarga murojaat qilinsa, davlat boji to‘lash talab qilinganligi, ya’ni davlat boji to‘lanmagan hollarda arizalar sndlarda ko‘rilmasdan qaytarilganligi;

– BMTning Bola huquqlari qo‘mitasi mamlakatimizda nikoh yoshini bir xillashtirishni bir necha marta tavsiya etishiga qaramasdan nikoh yoshi qizlar uchun 17 yosh, o‘g‘il bolalar uchun 18 yosh tarzida saqlanib kelganligi (Respublikamizda endilikda 01.09.2019-yildan boshlab erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi bir xillashtirilgan va 18 yosh etib tayinlangan), milliy qonunchiligidan ayrim qonunlar o‘rtasida nomuvofiqliklar mavjudligi;

– bola huquqlariga oid statistik ma’lumotlardagi noaniqliklar, ya’ni aniq statistik ma’lumotlarni olishda qinchiliklarning mavjudligi va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘simcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bola huquqlarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etishi YUNISEF tashkiloti tomonidan ham e’tirof etildi. Chunki bu O‘zbekistonda Bola huquqlari bo‘yicha Xalqaro Konvensiya tavsiyalarining joriy etilishi borasida muntazam ish olib borilayotganligidan dalolat beradi.

– Qarorga muvofiq bola huquqlarini ta’minlashning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish lozimligi belgilandi:

– ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarga ularning munitsipial va aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidagi yashab turgan joyini “Mehribonlik” uylari vasiylik va homiylik organining roziligidiga ko‘ra, vasiylikka yoki homiylikka oluvchi bilan birga yashayotgan butun vaqt mobaynida, o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar bronlashtirish huquqining berilishi;

– yashash joyi va fuqaroligidan qat’iy nazar bolalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi, chet el fuqarosi yoki fuqa-

roligi bo'limgan bola ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etsa, agar uning ota-onasi qonuniy asosga ko'ra O'zbekistonda yashayotgan bo'lsa, mamlakatdan chiqarib yuborilmasligi;

- bolalarning davlat organlariga bevosita qilgan murojaatlarni to'liq ko'rib chiqish kafolatlanishi va bola to'liq muomala layoqatiga ega emasligi vajlari bilan bu turdag'i murojaatlarni ko'rmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmasligi;

- bola huquqlarini himoya qilish maqsadida sudlariga ariza bilan murojaat qilinganda davlat boji va boshqa to'lovlardan to'lanmasligi;

- 14 yoshga to'lgan bolalar o'zining ta'minoti uchun ota yoki onadan yoxud, ota-onasi bilan birga yashamayotgan bo'lsa, bir vaqtning o'zida ota-onaning har ikkalasidan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida sudlarga murojaat qilib, da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'lishi belgilandi.

Chunki, 14 yashar bolaning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari mayjud bo'lib, uning ta'lim olishi, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi kafolatlanishi va unga yetarli shart-sharoitlar yaratib berilishi lozim.

Mamlakatimizda ilk bor bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi mexanizm – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) o'rinnbosari – Bola huquqlari bo'yicha valil lavozimining joriy etilishi bolalar huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholandi. Shuningdek, Kotibiyat tuzilmasida bola huquqlarini ta'minlash faoliyatiga ko'maklashuvchi sektor tashkil etildi.

Bunday institutlar Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Ukraina, Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Yangi Zelandiya, Avstriya, Islandiya, Lyuksemburg, Isroil, Avstraliya, Kanada kabi davlatlarda mavjud.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bola huquqlari bo'yicha tashkil etilgan ombudsman instituti, bola huquqlari va qiziqishlarini himoya qiluvchi mustaqil organ sifatida, o'z faoliyatini bola huquqlarini himoya qilishga qaratgan muhim mexanizm hisoblanadi.

Mazkur mexanizm quyidagi kabi funksiyalarni bajaradi:

- bola huquqlarini yoki uning qonuniy vakillari manfaatlarini himoya qilish;
- bolaning individual murojaatlari bo'yicha tergov ishlarini olib borish;
- bola huquqlari va manfaatlariga taalluqli qonunchilikning ta'minlanishini kuzatish;
- bola huquqlari sohasida qonunchilikka o'zgartishlar kiritish bo'yicha davlat organlariga tavsiyalar tayyorlash;
- bolalar, shuningdek, kattalarning bola huquqlari to'g'risidagi axborotlardan xabardorligini oshirishga ko'maklashish;
- bolalar va ularning ota-onalari o'rtasida nizolar kelib chiqqan taqdirda vositachi sifatida harakat qilish;
- bola huquqlariga rioxha qilinishi bo'yicha masalalarda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'ruza taqdim qilish.

Vakilning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilanadi:

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishining davlat kafolatini ta'minlash;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlanishi mexanizmlarini takomillashtirish;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga oid O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirishga ko'maklashish;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari

to‘g‘risida bolalar va ularning qonuniy vakillari o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borish;

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash sohasida davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati, jamoat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar faoliyatiga ko‘maklashish;

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ga rioya qilinishi holati to‘g‘risida jamoatchilikni xabardor qilish, bola huquqlari bo‘yicha BMT Konvensiyasi qoidalari va Vakil institutini targ‘ib qilish;

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Yetim, ota-onada qaramog‘isiz qolgan va boshqa qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish Vakil institutining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Bolalar ta’lim-tarbiyasini bilan shug‘ullanuvchi tashkilot va idoralar ombudsman institutining nazoratida bo‘lishi, bu borada ularning jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikdagi faoliyatini kuchaytirishga erishiladi. Shuningdek, ta’lim muassasalari, mehribonlik uylari faoliyati jamoatchilik nazoratiga olinadi. Ayniqsa, ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar himoyasi kuchaytiriladi.

Bolalarga oid milliy statistik ko‘rsatkichlar, jumladan, ayrim xalqaro darajadagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham statistika olib borilishi tizimi joriy etildi, xalqaro standartlarga moslashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, **Stat.uz** veb saytiga joylashtirilishi lozim bo‘lgan minimal ko‘rsatkichlar va boshqa ma’lumotlar ro‘yxati tasdiqlandi.

2019-2020 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan mehribonlik uyi va bolalar shaharchasining bitiruvchilari bo‘lgan chin yetimlar uchun qo‘srimcha 1 foizgacha davlat granti asosidagi qabul kvotalarini

ajratish tartibining joriy etilishi hamda huquqbuzarlik sodir etgan bolalarni profilaktik hisobga olish o‘rniga ularning jamiyatga moslashuvini ta’minlovchi mexanizmlarning ishlab chiqilishi (to‘garak va sport mashg‘ulotlariga jalb qilish, ishga joylashtirish kabi tadbirlar) voyaga yetmagan yoshlarning moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlanishi, mustaqil hayotga tayyorlanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini to‘pishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolatlanishi natijasida BMTning O‘zbekistonga bergan tavsiyalari bajarilib, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatdagi imiji hamda xalqaro reytinglardagi o‘rni oshadi, bola huquqlari kafolatlari ta’minlanadi, ularni ijtimoiy himoyalash yanada kuchaytiriladi.

“Bola huquqlari kafolatlarining yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun, Jinoyat-protsessual kodeks va “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga voyaga yetmaganlarga nisbatan ishlatiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar turlari, ularning oldini olish choralar, sudgacha va sud muhokamasi jarayonida jinoyat protsessi ishtirokchisi hisoblangan bolalarni himoya qilishga qaratilgan qo‘srimcha kafolatlarning kiritilishi Qarorda belgilangan vazifalarning huquqiy yechimi sifatida belgilandi. Voyaga yetmaganlar jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasining barcha bosqichlarida himoyachining ishtirok etishi shartligi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bundan tashqari, voyaga yetmagan bola yoki uning qonuniy vakillarining himoyachidan voz kechishi haqiqiy emas degan norma kiritildi. Bu orqali protsessual harakatlarda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning ruxsatsiz voyaga yetmaganning qonuniy vakili ham ishtirok etishi belgilandi.

Shu bilan birgalikda, voyaga yetmagan shaxsning katta yoshdag'i yaqin qarindoshlaridan biri yoki o'zi ishonadigan boshqa shaxsning qonuniy vakil sifatida ishtirok etishiga imkon yaratildi. Avvallari amaliyotda mavjud bo'lgan, ya'ni voyaga yetmagan huquqbuzar yoki jinoyatda gumon qilinuvchi bolaning yolg'iz o'zini so'roq qilish holatlari bartaraf etilib, voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish uning qonuniy vakili yoxud katta yoshdag'i yaqin qarindoshi, pedagog yoki jabrlanuvchining vakili ishtirokida o'tkazilishi belgilandi. Natijada bolaga har qanday ruhiy yoki jismoniy ta'sir o'tkazish, uni ko'rsatmalar berishga yoki aybini tan olishga majburlash taqiqlanishi qonun bilan mustahkamlandi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq mamlakatimizda bola huquqlarini ta‘minlashda davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtiroki yanada kuchaytirildi. Davlat hokimiysi va boshqarushi organlarining bola huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha vakolatlari quyidagilar etib belgilandi:

- bola huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha yagona davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi;
- bola huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi;
- bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini ijro etadi;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlari hamda hududiy dasurlarni ishlab chiqadi va ro‘yobga chiqaradi;
- bola huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha davlat organlari, bolalar muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;
- bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishga doir tadbirlarni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti

mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiradi;

– davlatga qarashli bolalar muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va nodavlat bolalar muassasalarini rivojlantirishga ko‘maklashish chora-tadbirlarini ko‘radi;

– bola huquqlarini ta’minalash masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini jarilishini nazorat qiladi hamda xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalaydi;

– axborot-ma’rifiy faoliyatni amalga oshiradi;


– ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo’llab-quvvatlash masalalarini hal etadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bola huquqlarini ta’minalashda ishtirot etadi, ya’ni ular bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilishda ko‘maklashadi. Qonunga muvofiq (6-modda), bola huquqlarini ta’minalashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar ishtiropi quyidagicha:

– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilishda ko‘maklashadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordam ko‘rsatadi;

– bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash bo‘yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda ro‘yobga chiqarishda ishtirot etadi;

– bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlat va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkin.




Bola huquqlarini ta'minlashda davlat va jamoat organlari birdek mas'ul bo'lib, bolalarning huquqlarini himoya qilish jarayonida bevosita ishtirok etadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimla-

rining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi hamda ichki ishlar tizimida Toshkent shahar Ichki ishlar bosh bosh-qarmasi boshlig‘ining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari boshliqlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari) boshlig‘ining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi (bo‘linmasi) boshlig‘i lavozimlari joriy etildi. O‘zini o‘zi boshqarish organlarida yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosar lavozimi joriy qilindi.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori raisligidagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiya hamda uning quyi tizimlari bolalar huquqlari himoyasi ta’minlanishida yuqori organ hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha davlat tuzilmasi



Shuningdek, jamoat tashkilotlari tuzilmalarida ham yoshlar siyosati va bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizm yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlar ishlari agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

Shuningdek, Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlar Yoshlar ittifoqi kengashlari (Hududiy kengashlar), shahar, tuman Yoshlar ittifoqi kengashlari (mahalliy kengashlar) faoliyat olib bormoqda. Respublika yoshlar ittifoqi tarkibidagi Respublika “Kamalak” bolalar tashkiloti – Respublika sardorlar kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlar “Kamalak” bolalar tashkilotlari – Hududiy sardorlar kengashi, barcha shahar va tuman “Kamalak” bolalar tashkiloti – (Mahalliy sardorlar kengashi), Umumiy o‘rta ta’lim maktablari yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti – Maktab yetakchisi va sardori faoliyati tashkil etildi. Umumta’lim maktablarining har bir sinfida sinf sardorlari va yo‘nalishlar bo‘yicha sardorlar faoliyati samarali yo‘lga qo‘yildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bola huquqlarining himoya qilinishi, uning rivojlanish tendensiyalari va huquqiy asoslari mustahkamlanishi jamiyatda har bir bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta’minlanishini kafolatlashga xizmat qiladi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. O‘zbekistonda bola huquqlarining himoya qilinishing huquqiy asoslari.
2. Bola huquqlarining himoya qilinishi, uning rivojlanish tendensiyalari va huquqiy asoslarining mustahkamlanishi.

3. Bola huquqlarini himoya qilish tizimi va hamkorlik masalalari.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. –9 b.

2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – Toshkent: 2020. 23-sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y.O'RQ-637-son 23.00.2020.

3. O'zbekiston Respublikasi “Oila” Kodeksi// <http://www.lex.uz/>

4. “Bola huquqlari kafolati to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar. – Toshkent: Vektor-Press, 2009. – B. 24–26.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti M.Mirziyoyevning mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvdagi nutqi. <http://www.lex.uz>– O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
5. Alimxodjayeva S.N. Maktabgacha ta’lim muassasalarida rivojlantiruvchi o‘yin va faoliyatlarni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent,. Maktab va hayot. 1995. – № 4. – B. 13-20.
6. Abdullayeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usulalaridan foydalanish. – Farg‘ona: FarDU, 2008.
7. Axmedjanov M.M., Xo‘jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat - Buxoro Davlat universiteti, 2014
8. Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.
9. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq NMK, 2004. – 335 6.
10. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. - T.: 2018.
11. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talabari. - T.: 2018.

12. Innovatsion ta’lim texnologiyalari G‘ Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To’rayev A.B. – T.: Sano standart, 2015.
13. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar G‘ Ta’lim muassasalarini o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: Iste’dod jamg‘armasi, 2009. – 180 b.
14. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya-iqtisod, 2009.
15. Mahkamova M.Yu. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 1999. – 22 b.
16. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To’rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
17. Mutualipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika.-T: 2015
18. Muxina S.A., Solovyova A.A. Sovremennoe innovatsionnoe texnologii obucheniya. – M.: Geotar-Mediya, 2008. – 43 s.
19. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi G‘ Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
20. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2014
21. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011. - 420 b.
22. Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. – Rutledj, 2012. Ikkinchinashr.
23. Miklyaeva N.V. Doshkolnaya pedagogika: uchebnik dlya bakalavrov. – Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2013. – 510 s.

24. Podlasiy I.P. Pedagogika nachalnoy shkoli. Uchebnik. – Moskva, 2008. – 474 s.
25. Qodirova F., Toshpulatova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 160 6.
26. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – T.: Ilm ziyo, 2006.
27. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 799 b.
28. Ishmuhamedov R. va boshqalar. Ta'limda innovation texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 180 b.
29. Daminov M., Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. – T.: O'qituvchi, 1993.
30. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2005.
31. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2020. – 184 b.
32. Otavaliyeva U. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. – T.: O'qituvchi, 1994.
33. Turchenko V.I. Doshkolnaya pedagogika. Uchebnoe posobie. – Moskva: FLNTA, 2013. – 256 s.
34. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun / Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2019, 685 b.
35. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 160 b.

Internet saytlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti: www.edu.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi sayti: www.mtv.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi internet sayti: www.eduportal.uz, www.multimedia.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz sayti: www.bimm.uz.
5. Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti sayti: www.Ziyonet.uz.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy me’yoriy hujjatlar

Huquqiy-me’yoriy hujjatning nomi	Hujjat raqami	Qabul qilingan sana
O‘zbekiston Respublikasining qonunlari		
Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida	O‘RQ-595-son	16.12.2019
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari		
“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni	PF-4947-son	7.02.2017
“Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni	PF-5198-son.	30.09.2017
“2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ-2707-son	29.12.2016
“Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ-3261-son	9.09.2017
“Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ-3276-son	15.09.2017
“Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ-3289-son	26.09.2017
“O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ-3305-son	30.09.2017
“Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ-3651-son	5.04.2018
“Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ-3955-son	30.09.2018

“O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	PQ -4312-son	08.05.2019
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari		
Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarorga o‘zgartirishlar kiritish haqida	3012-2-son	11.01.2021
O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida	929- son	21.11.2017
Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida	475- son	25.06.2018
Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatni bo‘yicha ruxsatnomasi berish tartibi to‘g‘risida nizomlarni tasdiqlash haqida	595- son	30.07.2018
Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida	1027- son	18.12.2018
Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	944- son	22.11.2018
Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	1028-son	24.12.2019
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	391-son	13.05.2019
Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida	626-son	25.07.2019
Maktabgacha ta’lim sohasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihibarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida	605- son	19.07.2019
Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida	626- son	25.07.2019

Mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tajriba-sinov lo-yihasini amalgga oshirish to'g'risida	786- son	18.09.2019
Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida	802- son	22.12.2020
Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	132- son	09.03.2020
Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidat	802-son	22.12.2020
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarorga o'zgartirishlar kiritish haqida	3012-2-son	11.01.2021

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIGA OID BO'LGAN ATAMALARNING IZOHЛИ LUG'ATI

Alovida ta'lism olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar – no-gironligi bo'lganidan yoki bo'lmashigidan qat'iy nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alovida e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning qonuniy vakillari – bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnnini bosadigan shaxslar.

Davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti – davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lism va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lism va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot.

Davlat-xususiy sheriklik – xususiy investitsiyalarni va (yoki) boshqarish tajribasini jalb qilish, shuningdek, davlat tomonidan sherik va xususiy sherik o'rtasida tuzilgan bitim asosida xavf-xatarlar hamda majburiyatlarni ajratib olish va (yoki) taqsimlash maqsadida ular o'rtasidagi muayyan muddatga yuridik rasmiylashtirilgan o'zaro foydali hamkorlik.

Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lism jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydilar.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yollariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Inklyuziv ta’lim va tarbiya – bolalarning alohida ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan jarayon.

Yillik mavzuviy reja -Yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalari dan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

Kompetensiya-bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat’iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha bo‘lgan yosh – bolalarning tug‘ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ta’lim berish boshlangan paytga qadar bo‘lgan yoshi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya – bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta’lim turi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti – ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagи bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim das-turi – bola tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko‘nikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta’lim va tarbiya mazmunining o‘ziga xosligini, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti – maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

Maktabgacha ta’lim – bolaning qobiliyatlariga, ishtiyoqlariga, o‘ziga xos ruhiy va jismoniy xususiyatlariga, madaniy ehtiyojlari muvofiq maktabgacha yoshdagি bolanning har tomonlama rivojlanishini ta’minalashga, shuningdek, bolada axloqiy normalarni shakllantirishga, uning hayoti va ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minalashga qaratilgan yaxlit jarayon;

Maktabgacha ta’lim tashkiloti – maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.

Mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti – nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni amalgalashirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

Pedagogning kasbiy standarti – maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmui.

Ta’lim – ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlanishga qaratilgan tizimli jarayon;

Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta’lim oluvchilar, voyaga etmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

Ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli – maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.

Ta’lim dasturi – MTT Davlat o‘quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta’lim jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo‘lib, u qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlashi lozim.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

O‘quv-tarbiyaviy jarayon – guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejlashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o‘yinlari, bo‘sh vaqt va o‘quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi.

Haftalik reja – bu tarbiyachining ish jurnali va mashg‘ulotlar ishlanmasidan iborat.

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENTI VA MAHORATI

Muharrir *Axtam Ro'zimurotov*
Badiiy muharrir va
texnik muharrir *Dilmurod Jalilov*
Sahifalovchi *Madina Abdullayeva*
Musahhih *Nigora G'aniyeva*

Nashriyot litsenziyasi № 955129. 22.02.2021.
2021 yil 5 aprelda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasi.
Offset bosma. 7,25 shartli bosma taboq. 9,5 nashr tabog'i.
Adadi 500 nusxa. 3-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnomaga asosida

Original maket ZARVARAQ NASHRIYOTI nashriyotida
tayyorlandi.

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 23-mavze, 8-uy 27-xonodon

“ZAKOVAT-PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh. Z. Roziy ko‘chasi, 24-uy.